

Tarjimondan

Mazkur asar turk adabiyotining mashhur vakillaridan bo'lmish Yashar Kamolning qalamiga mansub.

Yashar Kamol - Kamol Sodiq Go'kchali 1922 yilda Adana shaxri yaqinidagi Xemits (Go'kcheli) qishlog'ida tavallud topdi. Uning bolalik va o'smirlik chog'lari keyinchalik o'z asarlarida tasvirlagan taqir qoyali tog'lar orasida o'tdi. Uch tomondan zalvorli tog'lar bilan o'ralgan, bir tomonini esa O'rta sr dengizining moviy to'lqinlari yuvib turgan, o'z ko'ksiga ko'pdan-ko'p afsona-yu rivoyatlarni yashirgan mana shu sirli zamin unga zehn va ilhom taqdim etdi. Uning bolaligi oson kechmadi, xatto o'rta maktabni ham tugata olmadi. Uzoq izlanishlar, uslubiy urinishlar oqibati o'laroq, u o'z ovozigab "B" faqat Yashar Kamolga xos uslubga ega bo'ldi.

Yozuvchi o'z ijodini xalq og'zaki ijodi fol'klor namunalarini to'plash va nashr qilish, she'rlar yozish bilan boshladi. Uning asarlarida hamisha ham yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qilavermaydi, adolat razolatni yengib, qahramonlar xuddi ertaklardagidek g'alabalarini tantana qilavermaydilar. Biroq yozuvchi qalamiga mansub bo'lgan har bir asar bu o'quvchi qalbiga xitob, insonda insoniylikni uyg'otishga da'vat, mehr-oqibatga chorlov ekanligi aniq.

Uning 1952 Yilda Nashr Etilgan Birinchi Hikoyalar To'plami - "Jazira" Tez Orada O'z O'quvchilarini Topdi. Oradan Ko'p O'tmay 1955 Yilda Yashar Kamolning Birinchi Yirik Asari - "Inja Mamad" Romaning Birinchi Bobi E'lon Qilindi. Yozuvchiga Katta Shuhrat Keltirgan Bu Roman Boshqa O'nlab Tillarga Tarjima Qilindi. So'ngra 1955 Yilda "Tunuka" Romani, 1960 Yilda "Tayanch Ustuni" Trilogiyasining 1-Jildi, 1963 Yilda "Yer Qattiq, Osmon Uzoq" Trilogiyasining 2-Jildi, 1969 Yilda "Umrboqiy" Trilogiyasining 3-Jildi, 1969 Yilda "Inja Mamad" Romaning Ikkinchi Bobi, 1970 Yilda "Ag'ri Tog'i Afsonasi" Qissasi, 1971 Yilda "Bepoyon Vatan Bo'ylab" Reportajlar To'plami, 1972 Yilda "Chaqirjali Efe", 1972 Yilda "Temirchi Guzaridagi Jinoyat", 1975 Yilda "Yusufjon-Yusuf", 1976 Yilda "Ilonni O'ldirsalar" Qissasi Nashr Qilindi.

"Ilonni o'ldirsalar" qissasida murg'ak bolaning boshidan o'tgan kechinmalari hikoya kilinadi. Muallif va asar qahramoni bo'lmish Hasan hamoqxonada tanishadilar. Butun qissa yozuvchi va Hasanning hikoyasi asosiga qurilgan. Jamiyatdagi mudhish, razil, johil muhit asar qahramonini jinoyat sodir etishga majburlaydi. Shu muhit mehru muhabbatga to'la murg'ak qalbni sekin-asta hissiz, qabih bir jismga aylantirib qo'yadi.

Qahramonning kechinmalari muallif juda katta mahorat bilan yoritgan. Asar so'ngida o'quvchi, garchi o'z onasini vahshiylarcha o'ldirsada, Hasandan nafratlanmasligi, uni ayblamasligi ham mumkin. Chunki haqiqiy qotil aslida Chuqurova qishlog'ining johil odamlaridir. Murg'ak, beg'ubor bolakay esa ularning bu maqsadlariga yetishlari uchun vosita, xolos. Qissada mazkur ziddiyatli haqiqat aks etganining o'ziyoq Yashar Kamol mahorati va o'ziga xos uslubidan darak berib turibdi.

Otasi o'ldirilganda Hasan yo olti, yo yetti yoshda edi.

Anavarza qoyalari uzra burgutlar qanot kergancha aylanib-aylanib uchishardi. Quyoshga yuz tutgan chirishsliklari deb ataluvchi tog' gullari oppoq bo'lib ochilgan.

Olisda suzib kelayotgan bulutning soyasi botqoqlikni butunlay qoplab, Dumluga kelganda ko'zdan g'oyib bo'lardi. Chirishslik gullari atrofida turli xil arilar "B" asal ari, qovoq ari, sariq arilar g'uj'g'on o'ynashardi. Qoyaliklar orasidan keng yer gullarining to'q zangori tikanlari bo'y cho'zib turibdi. Hasan qoyaliklarda kaklikday sakrab yurardi. Kun chiqish tarafida jarlik bor edi. Hasanning boshi aylanardi. Jarlikdagi burgut uyalariga tushib, na bir tuxum, na bir burgut bolasini topa oldi. Uni ko'rgan burgutlar devordek tekis qoyalik bo'ylab, katta qanotlarini havoda siltab-siltab uchib ketishdi. Bahor quyoshi qoyalarni qizdirib turardi. Qoyaliklar orasidan zangori ixrojlar, sariq za'faronlar, bedaning binafsharang gullari ko'rinib turardi. Kekiklar ochilay-ochilay deb turibdi. Ularning vazmin ifori atrofni tutib ketgan.

Hasanning so'nggi umidi devor ostidagi uyadan edi. Ammo bu uyaga tushish hamisha qiyinchilik bilan kechadi. Bir safar qoyaga osilib qolib, juda qiyinchilik bilan, zo'rg'a chiqib olgandi. Qaytib bu uyaga tushmagan edi. Agar o'shanda yovvoyi anjirning ildizi qo'llariga ilashib qolmaganda yoki ildiz yulini ketganda, u tamom bo'lardi. Pastlik esa o'n minora bo'yichalik keladi. Pastlikka yetib bormasdan parcha-parcha bo'lib ketish mumkin. Atrofdan aralash-quralash hidlar anqiydi. Hasan tevarakning bahor quyoshi ostidagi bunday aralash bo'yini hech bir hidga o'hshatolmay, bu hidni - qoyalar hidi deb hisoblardi. Bu Anavarza qoyaligining hidi edi. Arilar, kaltakesaklar, kaklik bolalari, uyalar, burgut bolalari, zaharli chinqiroq ilonlar, o'q ilonlar ham o'zlaridan bunday hid taratardilar. Anavarza qoyaligining insonlaridan ham qoyalar hidi anqir edi. Bu hid bahor quyoshi taftida insonga juda yoqimli, shiryin, mast qiluvchi bo'lib tuyuladi.

Anavarza qoyaligining yomg'iridan ham boshqacha hid anqiydi. Undan ham qoyalikning hidi keladi. Bulut ham ifor taratadi. Bulutning hidi ham umuman boshqacha tuyuladi.

Qoyaliklarning hidi Hasanning dimog'idan aslo ketmaydi. Ayniqsa, bir kecha, qorong'ulik, qorong'ulikdagi miltiq o'qining hidi... Porox hidi tekislikda, tuproqda o'zgacha. Tunda, qoyaliklarda esa umuman boshqachadir.

Tunda miltiq o'qining hidi anqiydi. Tunda, juda uzoqlarda, uzun aks-sado beruvchi o'q ovozlari, paq-puq... Paq-puq deya tunda aks-sado berardi. Shu sababli Anavarza qoyaligi o'sha aks-sadolar, o'q ovozlari va bu hidlar demakdir. Anavarza osmonida qonli burgutlar aylanishardi. Yaxshi eslaydi. O'sha otishma yuz bergan tun, o'sha aks-sado va o'sha burgutlarning ertalabgacha suzilib uchishlari uning uchun manguga eng qo'rqinchli xotira bo'lib qoladi.

Kun juda issiq edi. Qishloqdagilarning hammasi ishlash uchun dalaga chiqib ketgandi, faqat Hasan chiqmadi. Yuragi siqilar, nima qilarini bilmas, onasining yuziga hech qarolmasdi. Vaqt to'qqizda edi. Harqalay unga shunday deyishgandi. Har safar onasining ko'zlariga ko'zi tushishi bilan ertalabdan o'q qolmagandi. Har safar onasining ko'zlariga ko'zi tushishi bilan ertalabdan o'q qolmagandi.

Shunday tonglarda hali kun chiqmasdan onasi moyjuvoznining sariyog'idan bir bo'lagini unga berar, Hasan esa usti ayronli sariyog'ni olib, issiq tandir noniga surtar va uzoq-uzoqlardagi daraxt tagiga borib o'tirib yerd. Ortiq onasiga qarolmas edi. Na yuziga, na-da uning yurishiga... Qani edi onasini ko'rmasa.

Shunday tonglarda har doim shunday qilar edi. O'ziga o'zi sig'mas, nima qilishini bilmasdi. Telbalarcha qishloq ichida izg'ir, so'ng esa nima ishlar qilganini angalayolmasdi. Qo'ndog'i sadafli, bu qimmatli miltiqni unga avvalroq "B" etti yoshligida berishgan edi.

Bu miltiq bilan otmagan jonzoti qolmagandi. Yo'lida uchragan har bir narsaga o'q uzardi. Qushlarga, echkilarga, burgutlarga, kakliklarga, shoqollarga, chumchuqlarga, insonlarga... Hatto insonlarni ham ota boshlagandi, Hasan...

Uning uch amakisi bor edi. Uchchalovi ham unga churq etmasdilar. Butun qishloq aholisi uning qarindoshi edi. Qishloqlarining o'zi ham juda kichkinagina edi. Go'chebelik rayonidan endigina ajralib chiqqandi. Bu yerga joylashganlariga hali ko'p ham bo'lmagan. Amakilari, otasi Hasanday mahalida Binbo'g'alarda suruv-suruv qo'ylar boqishardi. Ular cho'pon edilar. Yetti "tirgakli chodirlari ham bor edi. Nima bo'lganda ham, har doim shu yetgi tirgakli chodirlari bilan g'ururlanishardi.

Sariyog' surtilgan nonini anor bog'ining ichida yeb tugatdi. Qorni yaxshigina to'ydi. Miltig'ini qo'lga olib, yana qaytarib joyiga

qo'ydi. Miltiqning qo'ndog'idagi sadaf yangi chiqqan quyoshning nurlarida moviy tus olib tovlanar va yana so'nardi. Ancha vaqtgacha qimirlamay, qo'llarini osiltirib, bo'ynini o'ng tarafga eggancha miltig'iga qarab o'tirdi.

Miltiq tovlanib so'nar, qaytadan jilolanib yana so'nardi. Onasi hovlida u yoq-bu yoqqa o'tib yurardi. Dunyo go'zali edi onasi. Husnda tengi yo'q edi onasining. Yoshgina, kichkina bir qizchaga o'hshardi. Otasi esa qarib qolgan, soch-soqoli oqargandi. Qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha eslab qolgandi, otasini... Onasining beligacha tushib turuvchi uzun sochlari bo'lardi. Chuqurova qishlog'ining hammasi shunday gapirib yurishardi. Balki onasi dunyoning eng go'zal ayoli bo'lgandir? Shu kattagina Chuqurovada onasini yoqtirmagan yigit topilmasdi. Onasi barcha oshiqlariga rad javobini berar, HasandanbT"yolg'iz o'g'lidan ayrilishni xohlamadi.

Agar onasi ketsa, Hasanning bu yerda qolishi muqarrar edi. Amakilari Hasanni onasiga berib yubormas edilar. Onasi ham farzandini tashlab, turmushga chiqib ketolmas, agar turmushga chiqib, boshqa qishloqqa ketsa, Hasanni umrbod ko'rolmasdi. Jayhon daryosining suvi kamayib, kumushday tovlanib oqardi. Hasan ertalabdan kechgacha jarlarda yurib, qumri qushlarini poylardi. Qush uyalarining teshikchalari og'zida ularning chiqishini kutib o'tirardi. Mayda teshikli to'r topib, ilonning iniday kichkina o'yilgan inchaga to'rvaday osib qo'ygandi. Inchadan chiqqan qushlar ham shu to'rga tushishardi. Hasan bu moviy, to'q zangori rangli qushlarni qovoqdan yasagan qafasiga solib qo'yardi. Qafasni qarshisiga qo'yib, to'htamasdan bu moviy qushlarni tomosha qilardi. Bu misli ko'rilmagan moviylik edi. Hasan yomg'irqushi deb ataluvchi qumrilarni tomosha qilar ekan, go'yoki bir moviy tush ichiga tushib qolar, atrof ham, butun a'zoyi badani ham moviydashib ketganday bo'lib, mast kishiday gangib qolardi. Qaldirg'ochni odatda hech kim tuta olmaydi, lekin Hasan qishloq tarixida birinchi marta qaldirg'ochni tutgan odam edi. Hasan qanday yo'l bilan bo'lsa ham, bir kunda besh-o'nta kaldirg'och tutib, bir arqonga tizib bog'lab chiqar va shundayligicha uchirardi. Kech tushishi bilan qaldirg'ochlarni shunday bog'loqlik holatida osmonga uchirib yuborardi. Hasan Anavarza g'orlarining birida burgut bolalarini ham boqardi. U ertalab uydan chiqib ketib, faqatgina kun botgandan so'ng, ko'z-ko'zga tushmaydigan, ko'chalarda odam qolmaydigan mahalda qishloqqa qaytardi. Har doimgidek sadafli miltig'i qo'lida. Qo'lidan qo'ymasdi bu sadafli miltiqni.

Arilar, ilonlar, Anavarza yonbag'irlaridagi tamomila qushlaru xas-hasharotlarning ham boshiga bitgan balo edi bu Hasan. Qishlog'idan ham qochib ketgisi kelardi. Bir haftaga yoki bir-ikki kunga qishlog'idan chiqib, narigi tomondagi qishloqgacha yurib borar, keyin esa qo'rqqanidanmi, yoki boshqa sababdanmi orqasiga qaytib kelardi. Bir marta cho'pon bola bilan o'rtoq bo'lib olib Qozondan to Forsog'gacha ketib qolgan. Keyin esa hartugur yana orqasiga qaytib kelgandi. Nima ish qilishini bilolmay yurardi. Lekin shu narsani aniq bilardiki, bu qishloqda qolmasligi kerak. Yoki onasi ketishi kerak edi boshqa yerlarga.

Ha, onasi! Onasi ketishi lozim edi. Bu yerdagi hamma onasining dushmani. Inson esa dushmanlar orasida bo'g'ilib yashaydi. Onasiga nisbatan qilinayotgan dushmanlik bevosita Hasanga ham ta'sir ko'rsatar va qishloqda yasharkan bo'g'ilib ketayotganday tuyulardi. Ha, haqiqatan bo'g'ilib ketardi, hech narsadan toymaydigan dushmanlik orasida... Buvisi, ammalari, amakilari, amakilarining xotinalari, jiyanlari - hech kim onasi bilan gaplashmas edi. Shunday ekan, onasi nega bu qishloqda yashab yuribdi. Shu qadar sohibjamol, shu qadar tengsiz go'zal bo'la turib... Onasining faqatgina uni tashlab ketolmasligi Hasanga g'urur baxsh etardi.

Onasiga nisbatan o'zida turli-tuman tuyg'ular his qilardi. Aytishlaricha, eng kichik amakisi onasini yoqtirarmish, lekin onasi uni xohlamay, rad javobini bergan ekan.

Hasan ishonilmas darajada bezovta edi. Shu sababdan ham qushlarga, hasharotlarga o'zini urardi. Bu dunyoda unga quchoq ochguvchi bir jonzot, shox-shabba qidirardi. Hasan ko'rgan-bilganlarini hech kimga aytib o'tirmasdi. O'ldirsalar ham aytmasdi. Hasan bamisli bir qurshov ichida, to'rt tomonlama o'rab olingandi. Nima qilsa ham bu qurshovdan chiqib ketolmas edi.

Boshini toshlarga ursa ham o'zini o'rab olgan temir zanjirlar ichidan qutilolmasdi.

Har kuni qochish, har kuni g'orlar, burgutlar, hasharotlar, ilonlar... Har kuni-o'sha yerlarga qochib yashash... Hech qanday o'rtog'i ham yo'q. Yo o'zi bolalardan qochadi, yo bolalar undan qochishadi. Bittagina Solih bor edi, bor bo'lsa ham hech gapirmas edi. Qaytanga yaxshi, gapirmasa, gapirmasin. Hasan esa unga gapiraverib, gapiraverib boshini shishirib yuborardi. Qanday yaxshi, odamning hech gapirmaydigan o'rtog'i bo'lsa-da, zerikmasdan, siqilmasdan uni tinglab o'tirsa.

Hasan shu tarzda moviy yomg'ir qushlari, havoda aylanib uchayotgan burgutlar, chinqiroq ilonlar, ayniqsa, Solih bilan sarmast bo'lib, o'zini unutilib yashamasa, balki o'lib ketardi.

* * *

Avval tashqaridan shitir-shitir etgan tovush eshitildi. Otasi eshikka quloq tutdi, qo'lidagi qoshiq esa bir on havoda muallaq turib qoldi. Onasiga qaradi, onasi boshini dasturxoniga egganicha o'tirardi. Hasan otasini ham, onasini ham kuzatib o'tirdi. So'ngra otasining to'htab qolgan qo'li ham, chakagi ham qaytadan harakatga tushib ketdi. Shitirlagan tovush tobora yaqinlashib kelardi. Keyin birdan to'htadi. Kechkurun edi. Yer dasturxonida ota, ona, o'g'il ovqatlanishardi. Dasturxonda xamirli no'xot sho'rva, qovurilgan tovuq, bulg'or palovi turar, ovqatlar ustidagi yog' yaltirab ko'rinar. Hasan o'sha kungi bulg'or palovining hidini hech unutilmaydi.

Derazadan ketma-ketiga ikki o'q uzildi va tindi. Hasan o'qning ovozi keyingina eshitdi yoki unga shunday tuyuldi. O'qning ovozi butun atrofnini ostin-ustun qilgandi. Onasi, otasi, butun dasturxon tuman ichida qoldi. Otasining baqirib yuborganini eshitdi. Onasi ham bir marotaba qichqirib yubordi, keyin esa hamma jim bo'lib qoldi. Tuman ham tarqadi. Hasan o'ziga kelganida o'q ovozi uzoq-uzoqlarda, Anavarza qoyaliklarida uzun aks-sado berar, qishloqning ichidan esa bo'g'iq qichqiruvga o'hshash shovqin eshitilardi. Birdan qonni ko'rди. Otasi dasturxoniga yuztuban yiqilgan, sochlari palov tovog'iga tushgandi. Otasidan otilib-otilib ko'p qon oqardi.

Hasan, ichkariga kirgan odamning faqat ola-kula ko'zlarinigina eslaydi. U onasining qo'llaridan ushlab, tuman ichidan tortib olib ketgandi. Hasan joyidan hech qimirlay olmas, ko'zlarini otasiga tikkanicha, to'htamay oqayotgan qonga qarab turardi. O'q ovozlari, jaranglovchi shovqin-suronlar Anavarza qoyaliklaridan bu yerlargacha eshitilardi. So'ngra birdaniga uyning ichi qichqirib-baqirayotgan erkak va ayollarga to'lib ketdi. Otasining o'lganini buvisining yig'lashidan keyingina tushunib yetdi. Yana nimalarnidir tushunishga harakat qilardi. Bu ishlarning hammasiga onasi sababchi edi. Ertalabgacha bir burchakka suyanganicha bo'shashib o'tirib qoldi.

Hech uxlolmasdi. Hayotida birinchi marta uxlayolmas edi. Uyqusizlikni, uxlolmaslikning nima ekanligini ilk marotaba his qildi. Insonlar kelib-ketishar, yig'lashar, baqirishar, qayerlardadir o'q ovozlari, shovqin-suronlar, bir o't parchasi cho'g' bo'lib olovlanar,

o'char, yana olovlanardi...

Hali tong, kun endigina iliy boshlagandi. Qishloqning katta maydoniga bir o'likni keltirib tashladilar. O'likning jonsiz ko'zlari kecha kechqurungi kabi ola-kula bo'lib ochilib, o'lganicha qarab yotardi. Hasan bu o'likni tanidi. Bu odamning ismi - Abbos edi. Onasining hamqishlog'i. Qishloqning ochiq yerida qonga belanib yotardi. Hasan ilk marta yashil pashshalarni ko'rdi. Negadir shu paytgacha hech yashil pashshani ko'rmagan ekan. Ular yam-yashil bo'lib vizillasdan, uchmasdan, o'tkir pichoqning tig'iday yaltirab, bemalol o'likning qonlari ustida aylanishardi. Hasan o'tkir pichoqdan juda qo'rqardi. Ustarani ko'rsa, qarolmay ko'ngli aynirdi. O'tkir pichoqlar-a, vuyuy... Onasini ham shu keng maydonga olib kelishdi. Amakilari uni tinimsiz urardilar. Yuz-ko'zi yorilgan, oq ro'moli, sochlari, yuzi qonga belangandi. Pistonli ko'yilagi qonga belangan, parcha-parcha bo'lib yotardi. Xotinlar, erkaklar, bolalar b'hamma qishloqdoshlar onasini urib, tupurib ketishardi. Hasan bir muddat hissiz qarab turdi, keyin nima bo'ddi-yu, o'zini onasini urayotganlar ustiga otdi.

Amakisining qo'lini suyagigacha tishlab, uzib olay deganini, unga keyinchalik gapirib berishdi. Aytishlaricha, telbalarga o'hshab, to'htamay onasini urganlarni urar, tupurganlarga tupurar emish. Katta amakisi uni bir tepki bilan yerga cho'ziltirib qo'yibdi. Onasi esa yotgan joyidan o'g'lining ustiga o'qday otilib kelibdi, kecha kechqurundan beri ochilmagan og'zidan: "o'g'limga rahmingiz kelsin", - degan gap chiqibdi, xolos. So'ngra chidolmay xaloyiqqa qarab: "Men o'ldirmadim Halilni, men o'ldirmadim akangizni. Mana bu o'ldirdi uni, o'zi ham o'ldi", b'hamma debdi yerda yotgan Abbosni ko'rsatib. Keyin Abbosning tepasiga borib, ochiq qolgan qora ko'zlariga qarab: "Eh Abbos! Ey, voh qadriga yetmaganim", - debdi... So'ngra hech qayerga qaramay, to'g'ri uyiga ketibdi. Qishloqdagi bir qancha uy yonib, kulga aylandi. Atrof ertalabgacha yop-yorug' bo'lib turdi. Olovning yorug'idan Anavarza qal'asigacha ko'rinib turardi.

So'ngra jandarma keldi. Bir ofitser etiklarini bir-biriga urib-urib buyruq berardi. Yana doktor ham kelib, tut daraxtining tagida oq xalatini kiyib oldi. Doktorning ko'zlari qattiq, nigohlari sovuq edi. O'sha tut daraxtining tagida Abbosning o'ligini yorishdi. Doktor bir katta toshning ustida Abbosning o'ligini qo'yning parchalari kabi kesib, so'ng yana shu holicha qop tikadigan ip bilan tikib qo'ydi. Hasanning ko'ngli aynib ketdi. Amakisi onasini parchalangan o'likning yoniga olib kelishga harakat qilib tinmay sudrar, onasi esa kelmasdi. "Kel, ko'r, fohisha, kel ko'r, akamni o'ldirtirgan odamningning o'ligini... Kel, fohisha, kel ko'r... Mana o'ynash qanday holdaligini ko'rib qo'y". Onasini yerda qumlarga bulg'alab sudrardi.

Jandarmalar, jandarma yuzboshi ularni tomosha qilib turishardi... Onasi churq etmas, faqat bormaslik uchun chiranardi, xolos.

Qo'shiqlar, marsiyalar aytib dadasini ko'mdilar. Buvisi to'shakka mixlanib qoldi. Yotib qolmasdan oldin uch o'g'lini yoniga chaqirib:

"O'g'limning qotili kofir Abbos emas, o'g'limning qotili Esmadir", dedi "Borib qoningiz uchun qasos olingda, qoningizni tozalang. Balki endi men bir umr o'rnimdan turolmasman, lekin, agar o'g'lim Halilning qasosini olmay, qonini yerda qoldirsangiz, bu dunyoda ham, narigi dunyoda ham oq sutim sizlarga harom bo'lsin. O'g'limning qotili Esmadir!!!"

* * *

Hasan bilan turmada tanishib qoldim. Tunda olib kelishdi. Butun mahbuslar uning yoniga to'planishib: "Hafa bo'lma, kuyunma, o'tib ketar", deb yupatib ko'yishdi. Hasan esa og'zini ocholmas edi. Og'ziga qulf solinganday edi. Mahbuslar unga suv, sho'rva yana allanimalar bermoqchi bo'ldilar, lekin u na gapirdi, na og'zini ochib bir narsalar yeya oldi. O'tirgan joyida, olomonning o'rtasida birdan boshi egilib uxlab qoldi.

Bo'lib o'tgan voqeadan so'ng Hasan qochgan va Anavarza qoyaliklariga berkinib olgan. Butun qishloq aholisi uni uch kecha-yu uch kunduz qidirib topa olmaganlar. So'ng Hasanni o'zining kuchugi topib bergan. Itni Anavarza qoyaliklari tomon qo'yib yuborishgan va it uni bir eski Rum qabrtoshining ichidan topgan. Hasan qochganda qabrtoshining ichiga tushib olgan, qabrtoshining qopqog'ini esa kuchi yetganicha berkitishga harakat qilib, uch kecha-yu, uch kunduz qimirlamay o'sha yerda qolgan va shu yerdan uni kuchugi topib olgan. Agar iti topmasa qachongacha u yerda qolishi mumkinligini kim bilardi deysiz?!

Jandarmalarning biri unga bir shapapoq tushirdi. Hamqishloqlari unga qo'rqib qarab turishardi. Qishloq oralab ketishar ekan, erkaklar, xotinlar, bolalar, qishloqning hammasi ko'chaga chiqib olib, yovuz mahluqqa qaraganday qarab qoldilar. O'sha kuni hamma unga la'natlab, odamni hurkitadigan nigoh bilan tikilib turishdi.

Turmada ham unga shunday ko'z bilan qarashdi. Hasan kelgan kundan boshlab shu choqqacha hech kim bilan og'iz ochib gaplashmadi. U bilan gaplashishni xohlagan, unga maslahat bermoqchi bo'lganlar ko'p edi, lekin Hasan buni ham istamadi. Guyo turmada emasday. O'zi bu yerda, qalbi, hayollari esa umuman boshqa yerlarda kezib yurardi. Endi-endi ovqat yeya boshlagan, yuzlari ozib, ko'zlari kattalashib ketganday. Borgan sari ozg'inlashib borardi. Bo'yni uzun, quloqlari katta edi. Badanidagi terisi ko'chib, shilini ketgandi. Hech kimdan bir narsa so'ramas, hech narsa xohlamas edi. Ertalablari va kechqurunlari kichkina bir idishda sho'rva qaynatar va bitta o'zi yuzini devorga o'g'irganicha katta non bo'lagi bilan sho'rvani qoshiqlab ichib tugatardi. Deyarli har kuni amakilari, qarindosh-urug'i, hamqishloqlari uni ko'rgani kelishardi. Hech birisi bilan bir og'iz ham gaplashmas, faqatgina bo'ynini bukkancha, yurak-yuragidan ularni eshitib o'tirardi. Bir-ikki safar men ham u bilan gaplashmoqchi bo'ldim, lekin u menga tikilib qarab turib, keyin esa yana ko'zlarini olib qochdida, o'tib ketdi.

Turmada har kuni u haqida yangi bir hikoya to'qishardi. Mahbuslar voqealarni hikoya qilardilar, albatta, unga eshittirib aytishni o'zlarining vazifalari deb hisoblashardi.

Hasan bu hikoyalarni eshitib o'tirar, jon-jonidan o'tib ketganda, faqat kipriklarini ketma-ket yumib-ochib qo'yardi, xolos. Qotib qolgan yuzi hech qanday ma'no anglatmasdi. Ko'zlari doim yerga qadalgan, lablari sho'ralab ketgan edi. Quloqlari kattagina, xuddi yelkan kabi boshining ikki chetida turar, yuqori qismidagi uchlari pasgga qayrilib turardi. Yuzi yo qorayib, sarg'ayib ketgandi. U mahbuslar bilan gaplashmagandan keyin, mahbuslar o'zlari uning yoniga borishardi, lekin juda yaqin bora olmasdilar. Bolaning boshidan o'tkazgan mojarolari, turishi, nigohi, og'ir-vazminligi ularga biroz vahima solib turardi. Turmaning eng ashaddiy mahbusi ham unga biroz hayiqish, biroz hurmat bilan yaqinlashardi. Ba'zi-ba'zida esa Lutfi ismli eng jirkanch, eng ahloqsiz mahbus uning qarshisiga turib olib, og'ziga kelganini gapirib tashlardi. Bunday holatlarda Hasan o'zini hech urintirmay, og'ir gaplar aytayotgan odamning ko'zlariga ko'zini tik qadar, gapirib bo'lgunigacha nigohlarini undan uzmasdi. U esa aloq-saloq gaplarini gapirayotib, bu o'tkir nigohdan o'zini bezovta his qilib, biroz pushaymonlik bilan Hasanning yonidan uzoqlashardi. Ko'pincha shu Lutfi uning asabiga tegar edi. Lutfi deganlari insoniyatning tuyg'ulari, butun yaxshi xislatlaridan mahrum bo'lgan, odobsizlikda, hayosizlikda tengi yo'q odam edi. Unda faqat izzat-nafsga tegish, ishonchsizlik, yirtqichlik mavjud bo'lib, muqaddas tushunchalardan asar ham yo'q edi. O'tgan-ketganga "suykalar", suykalgan odami ham o'zini bosa olmasa, ana keyin boshlardi to'polonni...

Lutfi bilan bo'ladigan muloqotlarda Hasanni kuzatib turardim. Nima qilar ekan, deb qiziqardim. Bir safar o'zini bosdi, ikkinchi safar ham jim bo'la qoldi. Uchinchisida... Lutfi haqorat qilar ekan, ko'zlarini unga tikmadi, yerga qaragancha, nimalarnidir o'ylab turdi.

"Ha, chuvalchang, qotil... Qonxo'r, it o'g'li haromi. Sen bir haromisan turmada sening haromi ekanligining bilmagan odam bormi? Bir odam haromzoda bo'lsa, uning nokasligini hamma biladi. Bir haromzoda bu dunyoda yashasa-ya... Eh, bir haromi-ya... Seni bir kunmas bir kun o'ldiradilar. Sen kabi bilagigacha qonga botgan odamni bu dunyoda yashab yurishi insoniyat uchun uyat, ordir. Sen iflossan, iflos o'g'li, iflos! To'ng'iz qo'pgan bola. Qani edi hukumat seni odam katoriga qo'shmaganda, o'zim hoziroq jig'ildoningdan olib bo'g'ib o'ldirardim. Ko'zlarini o'yib, o'ligingni shu yerga to'shab qo'yardim, keyin esa devorning ustidan itlarga qarab otardim. Itlar seni mazza qilib yeyishardi. Yeyishardida, burchakka borib axlat kilib tashlashardi... Ha, itning tezagi, it tezagi. O'zi qonga botgan-ku, yana o'lib talanib yurishiga o'laymi, tuf-e, bo'ying uzilsin, qo'tir o'g'li, qo'tir!"

Lutfining og'zi ko'pirib, atrofga sachrar, butun g'azabini Hasanga to'kib-sochardi. Barcha mahbuslar uning oldiga to'planib, og'izga olib bo'lmaydigan so'kinishlarini tinglab turishardi. Hasan oxiri yer tepinib, o'z o'rniga qaytdi, kaytayotganda Lutfi qarshisiga turib olib, bolaning ustidan haqoratlarni yomg'irday yog'dirib tashladi. Hasan tinmay terladi. Terladi, yana terlayverdi. Sekingina boshini ko'tarib Lutfiga qaradi. Ayni vaqtda qo'li shalvari cho'ntagiga kira boshladi. Cho'ntagidan yig'ma pichoq chiqib, chirt etib ochilganini va Hasanning Lutfi ustiga otilganini ko'ra oldik, xolos. Lutfi qandaydir, ishonilmas epchillik bilan Hasanning qo'lidan qutulib, qocha boshladi. Hasan esa qo'lida pichoq bilan uning orqasidan chopdi. Turmaning hovlisida Lutfi qochar, Hasan quvardi. Bu quvlashmachoq qachongacha davom etganini aniq bilolmayman. Hasan to'htamay quvar, Lutfi esa bu orada orqasiga o'girilib Hasanga yolvorardi. Bir-ikki marta yetay-etay dediyu, qo'lidagi pichog'i bilan uning orqasiga ikki marta urdi ham, ammo pichoq uning qirqta yamoqli kastyumini kesib ketdi, xolos. Lutfi charchagandan "yordam beringlar" deb baqirar, og'izga olinmaydigan iltijolar bilan Hasanga yolvorardi. Oxirida Lutfi bir xonaga qochib kirib, eshikni ichkaridan qulflab oldi.

Hozirgina yolvorib turgan odamiga, yana boshqattan so'kinishlar, haqoratlar yog'dira boshladi. Hasan eshikni orqasida ancha vaqtgacha kutib turdi, keyin u yerdan ketib, hovlining eng uzoq burchagiga bordi-da, devorga suyanib o'tirdi. Yig'ma pichog'ini hali ham berkitmagan edi. G'azab bilan qo'lidagi pichoqqa qarab turardi.

Bu voqeadan so'ng Lutfi bir marta ham Hasanning yoniga yaqinlashmadi.

Keyingi safar esa ichkaridagi "og'alar" Lutfini menga nisbatan gij-gijlattilar. Avvallari menga chidab bo'lmas razilliklar qilgan Lutfi, bu safar sekingina kelib yonimga o'tirdi.

Mendan bir narsa so'ramoqchi shekilli, deb o'yladim. "Ma, ol Lutfi", - deb sigareta uzatdim.

"Sen kabi itning sigaretini faqat o'zingga o'hshagan haromzodalar cheksin", - dedi.

Bunday gapni hech kutmagandim, hayronlikdan qotib qoldim. O'zinga kelganimdan so'ng, uni do'pposlab ketishimni kutib turishardi. Shu bahona janjal chiqarishardi. Birdan Hasanning oldimga otilib kelganini ko'rdim. "To'xta, og'a! Men bu it bilan olishganimga hali ham pushaymonman. Bu itdan ham xarob mahluqqa tekkizib qo'lingni harom qilma", - dedi.

Hasan birinchi bor gapirardi. Shundan so'ng Hasan bilan do'st bo'lib qoldik. Turmada necha oy o'tirganimiz aniq esimda yo'q-ku, lekin bu yerda o'tirganimizda Hasan mendan boshqa hech kim bilan gaplashmadi. Yana bir Jamusji ismli eski turma xodimi ham Hasanni yaxshi ko'rardi. .

Uzoqdan turib Hasanga fol ochar va men orqali unga yetkazardi. Hasan bu follardan hursand bo'ladimi yoki yo'qmi, hech bildirmas edi. Turma xodimini har bir so'zidan, har bir gapidan Hasanni yaxshi ko'rishini bilib turardim. Jamusji Hasan haqida yurak-yuragidan gapirardi.

Hasan men bilan bir burchakka o'tirib olib tinmay gapirar, men eshitardim. U doim sergak turar, meni kalaka qilarmikan, mensimasmikan, degan fikr bilan har bir xatti-harakatimga shubhalanib qarab qo'yardi. Men esa uning bu nigohlarini payhamaganday, sir boy bermasdim. Uni butun qalbim bilan eshitar, dardlarini tushunar edim. Aslida Hasan sergap bola ekan-u, lekin yillar davomida gapirmaslikni o'rgangan va o'zini qayta tarbiyalagan ekan. Natijada kamgaplikning ustasi bo'lib ketgan edi. Gapirishni boshlashi, didiga tushgan odamini topishi bilan, to'lib-toshib butun vujudi bilan gapirardi.

Hasan hech narsadan qo'rqmasdi. O'lish uning uchun jannat bog'iga tushish edi. Yig'ma pichog'ini qo'lidan olib qo'yishmagandi. Hasan kabi har narsaga tayyor, o'limdan qo'rqmaydigan, o'limning keng maydonida, uning og'ushida yashaydigan insonlarga yaqinlashish, xoh u jandarma bo'lsin, xoh qarog'chi yoki qotil - kim bo'lsa bo'lsin, oson emas. Hasanga faqat, o'zi kabi g'alati muhitda yashagan, o'limning asiriga aylangan, u bilan bitta dorda o'ynaydiganlar yaqinlasha olishlari mumkin edi.

Hasan tufayli, uning do'sti bo'lganim uchun menga ham hech kim tegmas, gap ham otmas edi. Agarda birontasi menga har xil gap tashlaydigan bo'lsa, Hasanning jon oluvchi boqishlariga duchor bo'lar va rangi dokaday okarib darrov yonimizdan ketib qolardi. Agar Hasanning o'zi istasa, shu qonxo'r qotillar ichida kichkina jussasi, suzib tashlagudek ko'rinuvchi bo'yni bilan ham bemamol turmaning hokimi bo'lishi mumkin edi.

Turmadan chiqqandan keyin ham Hasan bilan ayrilmadik. Ikkalamiz bir kunda chiqdik u yerdan. Bir oydan so'ng uning qishlog'iga borib, unikida o'n besh kun mehmon bo'ldim. Hasan qishloqda ham hech kim bilan gaplashmas edi. Na buvisi, na amakilari, na amakilarining bolalari bilan, na-da qarindosh-urug'lari bilan. Hech kim bilan gaplashmaslikka qasam ichganday edi.

Har gapining birida: "Agar sen uchramaganingda, men insonligimni ham unutgan bo'lardim",- derdi.

Do'stligimiz anchagacha davom etdi, keyinchalik esa bir-birimizdan uzoqlashib ketdik.

Otasining motami uzoq davom etmadi. Onasi ham hech narsa bo'lmaganday o'zining ishi bilan mashg'ul edi. Otasining dalalari ko'p edi. Ikki traktori, bir yuk mashinasi, bir qancha yengil mashinalari, otlari, chigit ekadigan mashinalari ham bor edi. Paxta, kunjut, bug'doy, sholi dalalari Chuqurovada yillar davomida ekilib kelardi.

Esmasi eri o'ldirilgandan so'ng darrov o'z ishi bilan mashg'ul bo'lib ketdi. Ishini juda yaxshi bajarar edi. U o'z qishlog'idagi o'rta maktabni bitirgan, savodli edi. Esma uddaburonligi bilan o'zini ko'rsatdi. Hech kimga, amakilari, qarindosh-urug'lariga tobe', muhtoj bo'lmasligini ham namoyon eta oldi.

Halil o'ldirilgandan so'ng bir oymi, ikki oymi o'tib, Hasanni buvisi chaqirdi: "Kel", dedi, "Kel, tole'sizim, kimsasizim, baxtsiz o'g'limning murodsiz o'g'li, kel!"

Yoshga to'lgan ko'zlari bilan uni quchoqladi. Ham yig'lar, ham ta'sirchan ovozi bilan marsiyalar aytardi. Unga bir juft yangi poyabzal uzatdi, bugun ertalab amakisi Qozondan olib kelgandi. O'rtancha amakisi Mustafosi otasini juda yaxshi ko'rardi, Hasanni ham. So'ngra naqshli bir bo'xchadan ko'm-ko'k rangli kiyimlar chiqardi. Bularni esa katta amakisi Ibrohim olib kelgandi. Ibrohim

amakisi ham uni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Qani Hasan bu kiyimlarni, poyabzalni bir kiysa edi, buvisi ko'rsa edi... Hasan darrov yechinib, yangi kiyimlarni, poyabzalni kiydi.

Buvisi qarib qolgan bo'lsa ham chiroyli edi. Baland bo'yli, nozikkina yuzlari ozg'in, katta-katta qora ko'zlari kirtaygan edi. O'g'li, Hasanning otasi o'ldirilgandan so'ng yuzi hech kulmagandi. Kecha-kunduz qishloq ichida motamsaro kezib, marsiya aytardi. Avvallari buvisining yuzlari qanday kulib turardi.

Hasan uning doim kulib turganini ko'rardi. Tog'dek o'g'li o'ldirilgandan so'ng hamma narsalardan yotsirar edi.

Hasan kiyinib yasandi. Buvisi uni tomosha qilar ekan, ilk marotaba kuldi, yuzi porlab ketdi. Dardli, yig'loqi yuz unga hech yarashmas edi.

Hasan shu gapni unga aytdi.

Buvisi xo'rsinib: "Eh bolam, Halilning yolg'iz yodgori, onalik qursin", b"b"dedi. "Yuragim yonayapti. Onalik qursin, onani yaratmasin ekan. O'g'limning o'chi olinmaguncha men oyoq-qo'limni uzatib ketolmayman. O'lsam ham mozorimda tikka turaman. Tursam ham suyaklarim chasir-chusir qiladi, chirsillasa ham ko'zlarim ochiq ketadi. O'g'limni o'ldirtirgan ko'zimning oldida bemalol yuribdi. Bemalol, bag'rimni ezib yuribdi. Uning ustiga gulday bolasini tashlab erga tegarmish. Qiyshang'lab-qiyshang'lab o'g'limni o'ldirtirib yubordi. Endi esa baquvvat gulday nabiramni o'ldirtiradi. Hali o'g'limning mozori sovimasdan turib erga tegarmish. Men amakilaring Ibrohim va Mustafoga aytdimki, u erga tegsa tegaqolsin, lekin nabiram b"b"Halilimning o'g'li otasiga tortadi, buning ustiga otasiga juda ham o'hshaydi. Otasi kabi baquvvat, ota o'g'il bo'ladi. Onasi erga tegsa, mening nabiram qora ko'zim ham ketib o'sha otalik qiluvchi bilan birga yashaydimi? Mening o'g'lim, Hasanim, o'gay ota zulmi ostida yashaydimi? Hech! Mening o'g'lima? Hech, hech! Mening o'g'lim borib, otasining qotili, to'shagiga begona erkakni yotqizadigan xotinning yonida bo'yni bukuk, boshi egik bo'lib yashaydimi? Mening nabiram...

Yig'lab, marsiyalar aytib Hasanning bo'ynidan quchoqladi va uning ketishiga ruhsat berdi. Hasan u yerdan chiqqanida o'zini juda yo'qotib qo'ygan edi. Buvisining dilida qandaydir gaplar bor edi, ammo o'sha qanday gap edi. U to'g'ridan-to'g'ri onasiga qasd qilardi. Otasining qotili onasi ekanligini to'g'ridan-to'g'ri aytardi.

Uyga keldi, onasi avvalgidan ham hursand holda ko'rди. Kular, ishchilarga ish buyurar, traktorchiga nimalarnidir gapirardi. Tamomila boshqacha edi. Ammo Hasan bugun onasining yuziga qarolmadi. Onasi uni quchoqlab, endi o'pmoqchi bo'lgandi, Hasan uni o'zidan nariga itardi. Onasi kiyimlar unga yoqqanini, o'ziga juda yarashganini aytdi. Payabzali ham yoqqan edi. Tuyg'ulari jo'shib ketib, Hasanni yana bir quchoqladi. Hasan esa muzday qotib qolgandi. Esma yana bir quchoqladi o'g'lini. Hasanning tuklari tikka bo'lib ketdi. Esma o'g'lining ahvolini tushunishda kechikmadi. To'htab, Hasanga uzoq tikiddi va hafsalasi pir bo'lganday chuqur nafas olib:

"Ey, voh", dedi. "Ey, voh, Hasan... Ey, voh!" Yuzi o'liklarnikiday oqarib ketdi.

Peshindan keyin Mustafo amakisi uylariga kelib, unga qo'ndog'i sadafli miltiq hadya qildi. Juda chiroyli, qadimdan qolgan miltiq edi.

"Bu miltiqni senga olib keldim, Hasan. Bu buvangning miltig'i. Buvang, bu miltiqni oilamizning o'chini oladigan, oilamizning ilk yigitiga beringlar, deb vasiyat qilgan. Bu miltiq bilan ham ov qilasan, ham istasang oilamiz dushmanlaridan o'chingni olasan. Qani yur men bilan. Birinchi bo'lib mening oldimda miltiqdan otishni o'rgangin".

Pastga tushishdi. Anavarzaning uchiga, Jayhon irmog'ining chetiga borishdi.

Mustafo miltiqni o'qladi: "Ol", dedi. "Ol Hasan! ol-da huv anavi oq toshni nishonga ol, ko'ramiz poylay olasanmi?"

Chiroyli kiyimlari, poyabzali, ayniqsa, sopi sadafli miltig'i, sopi emas, to'g'rirog'i qo'ndog'i sadafli miltig'i uni juda sevintirgandi. Amakilaridan bunday narsalarni hech kutmagandi. Ular onasiga dushmanga qaraganday qarashardi. Qo'llaridan kelganda, uning yuziga ham qarashmas edi, ammo...

Buvisi esa nomini ham tilga olmasdi.

Hasan miltiqni oldi, to'g'riladi, oq toshning yonidan bir tutun chiqib ketdi. Amakisi unga o'q uzatib turar, u otar edi. Eng oxirida Hasan toshning uchini poylab otdi. Amakisi esa belidagi o'qdonni olib unga uzatdi:

"Ol, bundan so'ng sen istagan narsangni o'z vaqtida ota olasan. Otishni ko'p mashq qilishing kerak... Ko'p otsang qo'ling o'rganadi o'q uzishni. Nishonga urish, ko'p mashq qilish, ko'p o'q ketkazish bilan qo'lga kiritiladi".

Hasanning sevinchi ichiga sig'mas, miltig'i ham naqadar chiroyli. To'htamay o'q uzardi. Toshlardan tinmay tutun chiqarardi.

O'q ovozlari ayniqsa, Anavarza qoyaliklarida aks-sado berib jaranglardi.

"O'qni xohlaganingcha sarflayver, men Qozondagi do'konchiga tayinlab keldim, sen qachon borib so'rasang, albatta patron beradi.

Undan keyin ham qolmasa, menga kelib ayt, xohlaganingcha olib kelaman. Yaxshi bir ovchi bo'lib, turach urib tushirsang, menga ham olib kelarsan. Yaxshi bir ovchi bo'lib, kiyik, yomg'ir qushi va quyon otib o'ldirsang amakingni ham unutmassan...

Hasan miltiqni ham, naqshindor o'qdonni ham juda yoqtirib qoldi. O'qdonning ustiga oltin ipak bilan bir qancha naqsh ishlangandi. Bo'ri, shoqol, o'rdak, turach, kichik otlar, shoxdor kiyiklar, uchayotganday sakrab chopuvchi jayronlar... Boshqa tomonida esa kulib turuvchi bir bola... Xuddi Hasanga o'hshash.

Kech tushganda uyga qaytishdi, Hasan sevinchidan to'lib-toshardi. Onasining bo'yniga osilib, uni quchoqladi. Buvisinikidan qaytgandagi ahvoli yo'q edi uning. Hamma narsani unutgan edi. Uning sevinchiga onasi ham sherik bo'ldi. Qanday yaxshi, qanday soz, amakilari Hasan haqida qayg'urishni boshlagan edilar. Birdaniga oraga sovuq qorong'ulik cho'kdi. Qorong'ulik tobora ichini achitar edi. Onasining dardini shundoqqina yuzidan o'qib, unga rahmi keldi. Bordi-da uni yana bir quchoqlab o'pdi.

Onasi: "Mustafo", dedi, amakisiga "marhamat qilib jiyaningiz bilan ovqatlaning". Mustafo hech narsa demay, boqish bilan "yo'q" ishoratini qilib, u yerdan chiqib ketdi. "Nimalar dedi senga amaking", b"b"deb so'radi Esma Hasandan. "Hech narsa demadi", - deb javob berdi Hasan. "Buving-chi, buving senga nimalar dedi?" "Hech narsa demadi", - dedi Hasan ko'zlarini uning ko'zlaridan olib qochib.

O'sha kecha Hasan miltig'i, o'qdonlari bilan birga uxladi. Tong otar-otmas Hasan o'zini Anavarza qoyaliklari tomonga urdi.

Ertalabdan kechgacha Anavarza qoyaliklaridan pat-put degan o'q ovozlari eshitila boshladi. Ozgina vaqt o'tib, o'q uzayotgan Hasan ekanligini butun qishloq bildi.

O'n besh kundan so'ng Hasan qo'lida katta bir quyon bilan kirib keldi. Onasi quyonni yaxshilab pishirib, Hasanning birinchi ovi deya hamma amakilarini chaqirdi. Amakilari xotinlari, bolalari bilan quyon go'shti yeyishga keldilar. Faqat buvisi kelmadi.

Bir qancha kundan so'ng Ibrohim amakisi unga uch yoshli arab toyini sovg'a qildi. Hasan arab toyiga ham miltiqqa sevinganday, juda hursand bo'ldi. Toy sababli sevinchidan bir necha kun ko'zlariga uyqu kelmadi.

Uzoqdan hamma yoqni to'zitib yuk mashinalari o'tar, changlar bulutday to'g'shanib, cho'l uzra osilib qolardi. Dalalarda traktorlar

tarillardir. Paxta ishchilari ochilgan paxtalarining oldida o'tirib, paxtani chanog'idan ajratardilar. Chigitli oppoq paxtalar dala bo'ylab uyum-uyum yoyilib ketgandi.

Laylaklar uzun bo'yinlari, qirmizi tumshuqlari bilan hosili o'rib olingan dalada sollona-sollona aylanib yurishardi. Hasan soy yoqalab yurar, aralash-quralash o'ylar surardi, balki o'y surmas, tush ko'rardi. Bulut soyalari ko'zlari o'ngidan tez-tez o'tib, uzoq-uzoqlarga, binafsharang Toros tog'lari tomonga oqayotganday o'tib ketardi. U yoqalab ketayotgan soy turg'un, ustini changlar, somonlar ko'mib tashlagandi.

Hasanning bo'yni cho'zilgan, qorayib, qariyalarnikiday burushib ketgan edi. O'zi-o'zi bilan gaplashadigan odati bor edi. Balki tush ko'rardi. Ko'pirib ketgan bir narsalar haqida... Kimlardir gapirardi. Balki u bir hamqishlog'idir, balki buvisi, balki Zola ismli qori, balki amakilari, balki esa Alif ismli qiz, balki... Odamlar gapirardilar, u olar, bu tashlar, yana olar, narigisi tashlardir. Boshni aylantirib yuboradigan tezlikda hammasi o'sib, rivojlanib borardi. Yulduzlargacha tingladi, yana tingladi. Doim tinglayverardi.

* * *

Esmaning orqasidan Abbas keldi. Yana bir marta keldi. Turmadan qochgandi. Esmaga unga, ket Abbas, deya yolvordir. Turmaga tushib qolding, hamma narsa tugadi. Abbas esa ketmadi. Bir-birlariga termulishib qoldilar. Bironyasi ko'rib qoladi bizni, ertaga kelarsan Abbas, dedi Esma, Abbas orqaga chekinib ketdi. Qo'lida yap-yangi bir to'pponcha bor edi.

Sochidan tirnog'igacha o'qdonlar bilan o'ralgandi. Abbas, sen tog'ga berkin, dedi Esma. Abbas tog' tarafga chekindi. Abbas Esmani telbalarcha sevardi. Esma ham unga bo'lgan muhabbatidan telba bo'layozgandi. Abbas tog' tarafga chekinib ketdi. Esma esa uning orqasidan ketmadi. Ertasiga Abbas yana keldi. Tut daraxtining soyasida, serrayib turardi. O'ning quyuq nurlari sochilib turardi. Esma uyidan chiqdi. Eri Halil uhlayotgan edi. Esma Abbasning yoniga bordi. Ket Abbas, dedi, yetti yoshli bolam bor. Menga rahming kelsin. Seni ham meni ham o'ldiradi bular, dedi. Abbas ketmadi. O'sha tun daraxtining tagida, soyada, o'ning quyuq nuri ostida tikilib qoldi. Hech gapirmasdi. Miltig'i yelkasiga osilgan edi. O'ldirishadi, ket bu yerdan, dedi Esma. Abbas esa jim turardi.

Uning turmadan qochganini Esma eshittan edi. Esmani Abbasga bermagan edilar. Esma tufayli uch kishini yarador qilgandi. Ikkitasi falaj, bittasi cho'loq bo'lib qolgandi. Abbasga ko'p muddat berildi. Uni Diyorbakirdagi turmaga hamashdi. Halil ham Esmaga oshiq bo'lgan, lekin Esma uni yoqtirmaganidan so'ng, bir kecha uni otasining uyidan, olti kishi bilan birga kuch bilan olib qochishdi. Qo'l-oyog'ini bog'lab nomusiga tegmoqchi bo'ldi. Esma chiranib qarshilik ko'rsatdi. Bir haftadan so'ng, unga afyunli sharbat ichirib, o'z niyatiga erishdi.

Esma o'ziga kelganidan so'ng, bo'lib o'tgan voqeani tushundi. Boshi aylanib, tinmay qusardi. O'z-o'zidan uyalaridi. Undan tinmay qon ketardi. Halil uni uyiga olib keldi va darrov imomni chaqirtirib, o'sha yerda nikohlatib oldi. O'sha kuni bir ozdan so'ng hukumat nikohidan ham o'tishdi. Halil doktor olib keldi. Doktor qon ketishini to'htatdi. Esma bir yil davomida na eri bilan, na qishloq aholisi bilan gaplashdi. Uch marotaba tunda uydan qochdi, uch safarida ham Halil uni yo'lda tutib olib, qaytarib keldi. Onasi esa, bu fohisha senga yaxshilik keltirmaydi, qo'yib yubor uni, ketsin, shu tufayli bir balo orttirmagin boshingga, derdi. Halil onasiga kulib o'tib ketdi. Zo'rlab xotin qilib bo'lmaydi, Halil, quloq tut onangning gaplariga, bolam, dedi. Bittasi shu tufayli o'tiribdi, axir.

Keyinchalik Esma gapira boshladi. Hamma narsani unutganday ko'rinardi. Xuddi bir yil hech kim bilan gaplashmagan, to'shakka kirganda telbalarcha parishon bo'lib qolgan u emasdi, go'yo. Bolasining tug'ilishi uni shunday o'zgartirib yuborgandi. Bolasidan boshqa hech narsani o'ylamas, bolasidan boshqa hech narsani ko'rmas edi. Kular, zavqlanar, mehnat qilardi. Qishloqdagi hamma uni yaxshi ko'ra boshladi. Hammaga, yoniga kelgan har bir kishiga yordam qilardi. Xastaning, dardmandning boshidan ketmas, qishloqda birontasining kichik bir ishi bo'lsa ham, Esma o'sha yerda bo'lardi. Bolasi o'sib-ulg'aydi.

Endi esa Abbas keldi. Turmadan qochgandi. Abbas Esma tufayli, unga bo'lgan muhabbati tufayli bu taraflargacha dong'i ketgan edi. Hamma bu ishq savdosining eng nozik yerlarigacha bilar edi. Anavarza vodiysida bu savdo tillarda doston bo'lgan edi. Abbasning muhabbati haqidagi qo'shiqlar haligacha aytilar, bu qishloqda ham kuylanar edi. Esma, ket Abbas, meni. yaxshi ko'rsang, muhabbating chin bo'lsa, ket, boshqa qaytib kelma, dedi. Abbas o'sha tut daraxtining tagida ertalabgacha tikilib turdi. Esma ham qarshisida shunday tikilib qolgandi. Kun chiqar ekan, Abbas yura boshladi, Anavarza qoyalari tomonga chekinib ketdi. U ko'zdan g'oyib bo'lguncha Esma oyoqlarining uchida turib, uni kuzatib qoldi.

Abbos bir oy davomida bu atrofda ko'rinmadi. Esma har tuni tonggacha kutar, Abbasni ko'rgisi kelardi. Abbas ko'rinmas edi. Bir kuni ertalab, Esmaning yuragi hapqirib ketdi. Kun chiqay-chiqay deb turgandi. Xavotirlanib zinadan tushdi. Abbas, sen Anavarza qoyaligi tomonga ket, meni o'sha yerda kutib tur, o'zim topaman seni dedi. Abbas hech ovoz chiqarmay yurib ketdi. Esma kun isigunga qadar oziq-ovqat tugilgan tugunini beliga bog'lab qoyalar tomonga otlandi. Qishloqdan chiqayotganini hech kim ko'rmagan edi.

Shu tariqa bir-ikki oy davomida Esma Anavarza qoyaligidagi g'orlarning biriga yashiringan Abbasning oldaga kelib-ketib turdi. Bir safarida Halil uning ketiga tushdi. Negadir ularni g'ordan topa olmadi. Abbas uni ko'rgan edi. O'tmoqchi bo'ldi, lekin Esma yo'lini to'sdi. Bir necha kunlardan so'ng Anavarza qoyaligini jandarmalar o'rab oldilar. Abbas jandarmalar bilan bir kechayu, bir kunduz otishdi. Oxirida jandarmalar uni qo'lga oldilar va kishanlab Qora ko'lga olib ketdilar. Yo'lda esa Abbas ularni chalg'itib qochib ketdi. Qochar-qochmas yana orqaga, Anavarza qoyaliklariga qaytdi. Esma uni qaytib kelishini bilib, kutib turgandi. Abbas tut daraxtining tagiga keldi. Tut daraxtining tagida soyasi tikka bo'lib ko'rinib turardi. Bir necha bor Hasan ham uni ko'rdi. Esma uning yoniga bordi va ular quchoqlashdilar.

Anavarza qoyaliklarida yana otishmalar bo'lib o'tdi, ikki jandarma yaralandi. Halil ham yaralangandi. Kurt jarroh uning yarasini bog'lab qo'ydi.

Uning yuzlari uzun, ko'zlari qop-qora, doim kulib turardi. Bo'lib turadi, bunday ishlar, bo'lib turadi, derdi.

So'ngra bir kecha, hali oqshom azoni ham o'qilmagan vaqtda, birdan o'q otildi. Halil, Esma va Hasan yer dasturxonida o'tirib, ovqatlanishardi. Bir o'q derazadan uchib kirdi, o'q ovozi atrofni ostin-ustin qildi. Bir qichqiriq eshitildi, hamma yoqni tutun qopladi, Halil dasturxoniga yuz tuban yiqildi. To'htamay qon oqardi. Uyni multiq dorisining hidi tutib ketdi.

So'ngra Anavarza qoyaligidan Abbasning murdasini olib keldilar. "So'ngra... so'ngra... Abbasning murdasini qishloqdan tashqariga otib yubordilar. O'likni itlar parcha-parcha qilib tashlagandi. Esma Abbasning o'ligini itlardan xalos qilish uchun tunda bitta xizmatkor bilan yo'lga tushdi. O'likni itlarning changalidan zo'rg'a qutqarib, qopga joyladilar. Xizmatkor bilan birga Abbasning murdasini Anavarza tepaligiga olib chiqib, ertalabgacha chuqur bir go'r qazidilar va o'sha yerga Abbasni ko'mdilar. Bu voqeani hamma eshitdi.

Qishloqda qiyomat boshlangandi. Mustafo amakisi Esmani tinmay tepkilardi. Fohisha, fohisha, akamning qotili, fohisha, deya tinmay baqirardi. Seni yashatmayman, tinch qo'ymayman seni. O'likni, u itning o'ligini qayerga olib ketding. Yo o'likni, yo joningni berasan, derdi. Esmaga og'zini ham ochmasdi. Butun qishloq bir bo'lib baqirardi. Xotinlar, erkaklar, qariyalar, bolalar Esmaga og'ziga kelganini aytishardi.

Barcha qishloq aholisi, oldinda amakilari, eng boshda buvisi turib, Abbosning mozorini topish uchun necha kunlab Anavarza qoyaligini qidirdilar. Na mozorni topdilar, na Abbosning kichik bir parchasini. Esmaga esa og'zini ham ochmasdi.

Bir it qip-qizil tilini osiltirib, yoniga kelib turdi. Suv bamisli o'likday to'htab qolgan edi. Ustini chang, somon cho'plari, yanroqlar qoplab yotar, xuddi oqmayotganday edi. Yuzi burushiq-burushiq. Yoniga uzala tushdi. Uzun, nozik lablari burushgan edi.

Baquvvat chakagi o'jarday ko'rinaradi. O'g'li o'ldirilgandan beri qora ro'mol o'rab yurardi. Xinaga bo'yalgan sochlari qora ro'molining tagidan qizarib ko'rinib turardi. Qo'lida qalin hamishdan yasalgan tayog'i ham bor edi. Kelib yoniga cho'kkaladi. Uzoqda Duldul tog'i mis rang bo'lib ko'rinib turardi. Atrofni pitiroq deb ataluvchi tikanli o'simlikning bo'yi tutib ketgandi. Issiq ham Anavarza qoyaliklaridan oqqan suvga o'hshab biqillardilar. Suv kumush bug'deq sallonib, qavoga osilib, to'lqinlanardi. Hasan unga qech qaramasdi. U gapirayotganda, qaramasdan o'qning bittagina, uchli, qorayib-charg'ayib ketgan old tishini ko'rardi. Ingichkaligidan sinay deb turgan beliga ipakdan belbog' bog'lagandi. Yuzi qop-qorayib ketgan. Ipakli belbog'ining sariq, qizil, zangori rangli shokildalari tizzasigacha tushib turardi. Qizligidan beri shunday belbog'lar bog'lab yurardi buvisi. O'g'li o'ldirilgandan beri sochidan tirnog'igacha qora kiyimlarga o'rangan, yolg'iz shu belbog'ini yechmagandi. O'lganda ham shu belbog' bilan birga o'ladi. Balki shunday deb vasiyat qilgandir.

Oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsa ham, u hanuzgacha Abbosning fohisha kelini Anavarza qoyaliklariga berkitgan murdasini qidirardi. Topib, u itning murdasini, itlarga tashlab, burgutlarga yem qilmoqchi edi. Shu maqsadda hammaga pul to'lab o'likni qidirtirardi. Ana topamiz, mana topamiz, deya kunlarini o'tkazardi buvisi. Kelini bo'lmish Esmaniku, aytmasa ham bo'lardi, lekin o'g'illari ham odamgarchiliqdan chiqqan edilar...

"Ey arslonim, eh pahlavonim Hasan, otangday baquvaat, qo'rqmasi yo'q edi bu butun boshli Chuqurovada. Otang tirik qolib, uning o'rniga Mustafo o'g'lim o'ldirilganda yoki Ibrohim o'g'lim o'ldirilganda edi, ko'rarding Hasan, Halilim, arslonim, er yigitim, o'sha vaqtning o'zidayoq bir xotinni emas, balki o'sha xotinning o'tovi, urug'-aymog'i, butun armiyasi bilan kulini ko'kka sovurardi. Sening amakilaring ham odammi, odam bo'lsalar edi, otang o'ldirilgan kuni, o'sha kelinni tutib kelib, sochlaridan sudrab,

otangning qabri ustiga olib kelardilar va o'tkir ustara pichog'i bilan bo'g'izlab tashlardilar. Kallasini bir tarafga, tanasni boshqa tarafga otib yuborardilar. Hozir esa o'sha kelin, nabiramning onasi, sening onang bo'lib ko'z o'ngimda likillab yurmasdi. Otang tirikligida onang shunday fohishalik qilsaydi... Onangning o'ligini itlarga, burgutlarga tashlardilar...

Sening otang kabisi bormi edi. U Anavarzaning burgutlariga o'hshardi. Amakilaring qurib ketsin, ular ham odammi endi? Eh, sen katta bo'lganingda edi, balog'atga yetib, qo'lingda bir miltiq ushlay olganingda edi, u onang bo'lmish fohishani, uni...

Sen... sen, sen Halilimning o'g'lisan axir. Halilim Binbo'g'a burgutiga o'hshardi. Xalilim Duldul lochini, Ali tog' shunqori kabi edi. Eh, Halilim..."

Hasan eshitib o'tirar, hech bir yerga qaramay, yuzida hech qanday o'zgarishsiz, qimirlamasdan, ko'zlarini chang-to'zon qoplagan suvga qadagancha eshitib o'tirardi.

Kattagina, qora-moviy qushdek kattalikdagi kapalak uchar, suvga tushib, tezlik bilan yana havoga ko'tarilardi. Hasanning ko'zlari kapalakda; bir pastga tushadi, bir tepaga chiqadi. Kapalaklar ko'payib, ustidagi moviy gul ochgan buta tarafga uchib ketishdi. Buta borgan sari moviylashardi. Katga-katta moviy rangli kapalaklar ham to'p-to'p bo'lib shu butaga qo'nishardi: So'ngra buta ko'm-ko'k tusga kirardi, har xil naqshli, qora, to'q zangori tuslarga.

Buvisi yig'lardi. Bir marsiya aytib, o'rnidan turdi: Xalilim, Xalilbeyim, derdi. Lekin bolang er-yigit. Shunday o'g'ling bor, lekin hali bir qarich-da. Seni o'ldirganlar sening uyingda, bolang yonida, peshona tering bilan topgan molu davlatingni sovurib, mozoringni oyoq-osti qilib yashab yuribdilar.

Men onaman, uning onasiman, bu ishlarga qanday chidab turaman axir, men uning onasiman-ku... Anavarza qoyaliklari tomonga qarab yurdi. Ovozi Anavarza qoyaliklariga urilib jarangladi.

Anavarza qoyaligiga borib, bir toshning ustiga o'tirdi. Kun botayotgan edi. Yana marsiyasini yurak-yurakdan ayta boshladi.

Hasanning bo'g'ziga bir narsa kelib tiqildi.

Seni o'ldirgan, dedi buvisi, seni o'ldirgan yaqinda erga tegadi. Seni o'ldirgan o'z yotog'iga begona bir erkakni yotqizadi, pahlavonim. Sening o'chingni oladigan hech kimim yo'q, bolam. Faqatgina nabiram, sening o'g'ling bor, lekin u hali juda kichkina. Murg'ak bo'lmaganida edi, sening qoningni yerga tashlab qo'ymas, onasi bo'lsa ham ayamas, to'shagingga hech kimni kiritmasdi. Endi esa sening pokiza to'shaginga, sevgilingning - seni o'ldirganning qo'yniga boshqasi kiradi. Sen qabringda chiriyoq bir vaqtda u qoningni bulg'alab kayfini suradi. Ukalarining iymonsiz chiqdilar, aqalli bir xotinni o'ldirolmadilar-a, Xalilim, Halilim, pahlavon Halilim...

O'g'lingning qo'lida sadafli miltiq, tagida arab toyi, belida esa kumush xanjar... Afsuslar bo'lsinkim, o'g'ling juda kichik. Miltiqni aqalli to'g'ripab ushlolmaydi, bechora, kap-katta xotin tugul kichik bir chumolini ham o'ldirolmaydi, bechora...

Qichqiruvlari aks-sado berar, faryodi to pastlarga eshitilib, yaylovlarda, qoyaliklarda jaranglardi.

Kech tushgandan so'ng uyga qaytdi. Onasi oldiga ovqatini qo'ydi, u esa yeyolmadi. Esmaga o'g'liga gapirsa ham o'g'li unga gapirolmadi, xuddi og'ziga qulf solinganu, u ocholmayotganday edi. O'sha kecha ertalabgacha uxlolmadi, onasining yuziga ham qarolmadi. Onasi xavotirlana boshlagandi undan. Tinmay gapirar, o'g'lini quchoqlab o'pardir. Bir kuni Mustafo amakisi bilan onasining suhbatini eshitib qoldi. Uning eshitib turganini na amakisi, na onasi bilardi.

"Sening hech qanday gunohing yo'q singlim", derdi Mustafo. "Bari bir bu yerlarda qolmasliging kerak, ketgin. Seni o'ldiradilar, singlim. Seni o'ldirmaganim uchun onam men bilan gaplashmayaptilar. Ibrohim esa seni o'ldirmoqchi, faqat mendan hayiqib turibdi. Sen sog'-omon yurarkansan hamda shu uyda yasharkansan, onam bari bir tinch qo'ymaydi seni. Ket singlim, bu yerdan. Mol-mulki ham qursin, bola-chaqasi ham... Ogohlantirib qo'yayapman, qon to'kilishi, muqarrar... Mening qo'limdan hech narsa kelmaydi. Butun qishloq, butun Anavarza aholisi seni Halilning qotili deb biladi. Bu yerda qolsang... Men ham o'ldirishim mumkin, singlim. Boshingni olib ket-da, o'z joningni qutqar. Bu uyda ortiq qon to'kilmasin. Hech kim bu ishni shundayligicha qoldirib qo'ymaydi. Agar men o'ldirmasam, mening o'g'illarim seni o'ldiradi, ular bo'lmasa, Ibrohim o'ldiradi, Ibrohim ham o'ldirmasa, onamning urug'-aymoqlari, tog'alarim, tog'alarimning o'g'illari o'ldiradilar. Sening o'lim varaqang bo'yingda osig'liq turibdi. Agar hech kim o'ldirmasa, onam seni o'z o'g'ling - Hasanga o'ldirtiradi..."

Esmaga qimirlamay, g'alati bir ovoz bilan: "Unday bo'lsa, men keta qolay", - dedi. "Mol-mulki ham, davlati ham kerak emas,

barchasi o'zingizga buyursin, faqat o'g'limni menga bering, hech narsangizni olishni xohlamayman, yolg'iz o'g'limni qoldiringlar menda".

"Buning iloji yo'q", b" dedi Mustafa. "Bo'lmaydi, Hasanni olib ketolmaysan".

"Unday bo'lsa men ham ketmayman", - dedi Esma. "O'g'limsiz hech qayerga ketmayman. Undan ayrilolmayman".

"Hasanni olib ketolmaysan, ketsang, faqat yolg'iz ketishing mumkin. Hasanni senga bermaydilar. Senga yuragim achiganidan gapiryapman bu gaplarni... Sening hech qanday aybing yo'q bo'lsada, baribir o'ldiradilar. Sening umring tugadi".

"Hasansiz ketmayman", - deya takrorladi Esma.

"O'zing bilasan, aks holda o'lasan", - dedi Mustafa. "O'zingga rahming kelmaydimi, hali juda yoshsan..."

"Ketolmayman", - dedi Esma. "O'g'limni yonimga olmay, hech qayerga ketmayman, ketolmayman. Qanday ketay axir, undan boshqa hech kimim yo'q mening..."

"Yana aytaman senga, qayta-qayta aytyapman. Bu yerdagi umring juda oz qoldi. Sen tufayli odamlar orasida yurolmay qoldik. Seni o'ldirishdan ham oson ish bor ekanmi?! Halilni sen o'ldirtirding, sen. Sen o'lmaguningcha itlar ham boqmaydi yuzimizga", - dedi Mustafa.

"Oyoqlaringizni o'pay, og'ajon, men Hasansiz hech qayerga ketolmayman. O'lsam xam o'g'limning yonida o'lay. O'g'lim yonimda ekan, armonsiz o'laman. O'g'limsiz yashashdan ko'ra uning yonida o'lganim afzal..."

Mustafo o'rnidan turdi. Bo'ylari uzun, yelkari keng, yuzi katta, ko'zlari qonga to'lgandi uning. Hasan undan qo'rqib ketdi.

O'zining ustiga yurib kelayotanday edi. Qorong'uda undan ham kattalashib ko'rindi. Onasini o'ldirishlarini bilardi. O'sha kuni Mustafo amakisini juda yaxshi ko'rib ketdi. U onasini qutqarishni xohlardi.

Shundan so'ng qishloqda ham, uyda ham jimlik boshlandi. Buvisi ham, qishloqliklar ham, hech kim onasidan so'z ochmadi. Otasi o'lganidan buyon bunday sukunatni ko'rmagan edi.

Sukunat balki o'n kun davom etgandir. Onasi ertalab sochlarini tararkan, hurkib, hadiksirab o'y surardi. Qo'rqanidan tili kalimaga kelmas, uyni burchagidan bu burchagiga borib kelardi.

Tun edi, eshiklar zarb tepilib ochildi. Uch kishi uch tarafdin xonani o'qqa tutishdi. Onasi uyda yo'q edi. Xonani fonarlar bilan tekshirib chiqib, to'shakka qarata ota boshladilar. Hasan uyni burchagiga tiqilgan qotib qolgandi. Qimir etmasdi.

Ularning biri Hasanni ko'rdi va bor kuchi bilan biqiniga tepdi.

"Fohishaning kindigida paydo bo'lgan, fohishaning. Otasining qotili qornida yotgan nokas o'g'il..."

Yana bir-ikki marotaba beli aralash biqiniga tepdi.

"Qayerga qochdi fohisha onang?" deb so'radi. Hasan javob bermadi.

"Qushning qanotiga, ilonning iniga kirib yashirinsa ham, u fohisha onang o'ldirilajakdir. Bugun topa olmasam, ertaga topaman, ertaga bo'lmasa, bir kun albatta topamanda, burda-burda qilib tashlayman. Jiyanim Halilning qonini bir fohishaga bulg'atib qo'ymayman. U yashab yurarkan, pahlavon Halilning suyaklari go'rida chirsillab sinib yotadi..."

Hasan churq etmadi, ularning kim ekanliklarini bildi. Qayerdan kelganliklarini ham bilardi. Ular buvisining tog'lik qarindoshlari, ukalari, jiyanlari... Ularning barisi qonxo'r edilar.

Uyning hamma yerini qidirib, Esmani topa olmadilar. Har biri Hasanni jon oluvchi tepkipari bilan tepib:

"Bu ham odammi?" dedilar. "Otasini o'ldirgan xotin bilan yuzma-yuz, yonma-yon yashab yuribdi. Bu odam emas, to'ng'iz qavmi, cho'chqa qavmidandir", - deb chiqib ketdilar.

Esma hovliayoq ularning oyoq tovushlarini eshitib, uydin sekingina chiqib ketgan, to'g'ri qishloq tashqarisidagi politsiya mahkamasi tomonga chopa boshlagan va politsiya xodimlariga voqeani to'laligicha aytib bergan ekan.

Ertalabga yaqin Esma o'n beshta jandarma bilan qishloqqa kirib keldi. Lekin hech kimni topa olmadilar. Ish prokuraturagacha ko'tarildi. Esma bu ishni shundayligicha tashlab qo'ymadi. Prokuraturaga ariza yozib: "Meni qayni ukalarim o'ldirmoqchilar. Agar meni o'ldirsalar, qotilni qayinlarim deb bilgaysizlar", b" dedi. Bu arizaning shov-shuvi butun qishloqqa, Anavarza qoyaliklarigacha tarqaldi.

Buvisi: "U o'ladi", - dedi. "Temir sandiqqa kirib yashirinsa ham, to men tirik ekanman, u albatta o'ladi".

Ertami-kechmi, bari bir o'ldirilishini Esmaning o'zi ham bilardi. Qo'rquv ichida ertalabgacha uxlashmasdi. Hattoki sochlarini ham ko'rpasining tagiga yashirib tarardi.

Bu orada Mustafa Esmalarning uyiga bir necha bor yarim kechalari, hech kimga ko'rinmay kelib ketdi. U Esmaga tinmay yolvorardi. Qo'limizni qonga bulg'ama, derdi. Bu qishloqda shu qadar ko'p qon to'kildiki, ortiq ko'mib yuboradigan darajaga yetdi.

Ket singlim, ket, yana bir karra qo'limizni qonga bulg'ama, derdi. Sen yashab yurarkansan, biz tirik murdaga aylanamiz. Ko'z o'ngimizda akamizni o'ynashingga o'ldirtirding. Endi ket, ket, nima qiladi-a, keta qolsang?

O'ldiring, o'ldiringlar, men bari bir o'g'limsiz hech qayerga ketmayman, deb qichqira boshladi Esma.

Senga hech kim o'g'lingni bermaydi. O'g'linsiz ketasan, Esma.

Ketmayman, ketolmayman, deb takrorlardi Esma qaysarlik bilan.

Bir kecha yana Esma o'z to'shagida sochlarini tarayotganida, birdan qo'llari to'htab, taroq esa sochida osilib qoldi. Hasanga o'girilib, unga ma'noli qaradi. Hasan ham unga qarab turardi. Ko'zlari to'qnashib, bir-birlarini tushunganday bo'ldilar. Esma yotog'idan o'qday otilib, to'g'ri sandig'i yoniga keldida, uni ochdi. Zotan u kiyimlarini yechmasdan to'shakka yotgan edi. Hasan ham onasi bilan birga o'rnidan turdi, kiyindi, miltig'ini qo'lga oldi. Sandiq ochilishi bilan xonani yovvoyi olmaning hidi tutib ketdi. Onasi kerakli narsalarni tez-tez bo'xchaga tugdi. Darhol yo'lga tushdilar.

Ertalabgacha yurdilar. Bo'zquyi tekisligidan ham o'tdilar. Tikanzorgacha yetib olishganda edi, hammasi tugardi, o'rmonda berkinib olishlari mumkin edi. O'rmonda esa ularni hech kim topa olmasdi. Bo'zquyi yaylovi - tep-tekis, yalang'och. Kaftday ochiq yerda ketardilar.

Orqada chang-to'zon ko'targan otliqlar ko'rindi. Bir vodiya o'tib, butazorning ichiga yashirindilar. Otliqlar butazorga kelib, berkingan joylaridan, xuddi o'zlari berkitganday, topib chiqardilar. Otliqlar orasida Mustafa ham bor edi. Hasanni tutib Mustafoning egariga o'tqazdilar. Hasan indamay turardi. Mustafa:

"Endi sen ketaver, xayr, xohlagan yeringga ket, Esma".

Otlarni tinmay qamchiladilar. Hasan juda charchagan, uyga kelar-kelmas uxlab qolgandi. To'g'rirog'i, otning ustidayoq uxlab bo'lgandi. Uyga kelganlaridan so'ng bir oz uyg'onib, oyoqlari chalishib, zina yonidagi ustun tagiga yiqilgan uxlab qoldi.

Hasan uyg'onganda, buvisi yana dardli ovozi bilan faryod urar, o'g'lining qotili Esmani qarg'ardi.

Birdan Hasanning qulog'iga: "U o'g'lini oldirib qo'ygandan so'ng, bizning ketimizdan izma-iz qaytib keldi", - degan gap chalindi.

O'z-o'ziga sig'may, darrov uylari tomonga chopdi. Zotan uylari buvisining uyi bilan qarama-qarshi, hovlining narigi burchagida edi.

Esma uni ko'rishi bilan sevinib, quchoqlab oldi. Hasan esa yana uning yuziga qaray olmadi. Qarshidagi uydan buvisining uvillashga o'hshash faryodi, qarg'ishlari hanuzgacha eshilib turardi.

Bu voqeadan so'ng yana anchagacha qishloqda sukunat hukm surdi. Deyarli hech kim Esma bilan gaplashmas, yuziga ham qaramasdi. Xuddi bu qishloqda Esma yashamayotganday, bunday inson bo'lmaganday, bu qishloqqa bunday inson kelmaganday edi.

Faqat Hasanning boshi baloga qoldi. Qayerga bormasin, qayerga qaramasin, nima ish qilmasin, doim buvisi qarshisida turardi. Doim faryod urayotganini, badduolar ayatayotganini ko'rardi. So'ngra butun qishloq aholisi - bolalar, qariyalar, yoshlar har yerda, xar qanday holatda ham unga eshittirib, otasi, otasining qotili onasi, yonib kul bo'lgan buvisi haqida gapirardilar.

Qishloq uyquda edi. Bir xo'roz uch marta qichqirdi-da, jim bo'ldi. Bir it tinmay hurardi. Esma it hurishidan juda qo'rqardi. Itning hurishini eshinishi bilan tuklari tikka bo'lib, duolar o'qishni boshlardi. Xonaga qorong'i cho'mgandi. Hasan gapira boshladi. Onasining qorasini ham ko'rmasdi. Uning kichik bir harakatini ko'rsa ham gapirolmasdi. Buni Hasan juda yaxshi bilardi.

"Bu kecha yo'lga tushamiz. Qayerga ketsak ham boshqa yo'ldan ketamiz.

Ular bizni qidirib topsalar, sizni tashlab ketgunlarigacha, men butalar orasida yashirilib turaman. Keyin sizga yetib olaman. So'ngra ketadigan yerimizga ketaveramiz. Xo'pmi?"

"Xo'p", "B" dedi onasi.

Hamma narsalari, bo'xchalari tayyor edi. Narsalarini qo'llariga olib yo'lga tushdilar. Kun chiqar-chiqmas otning tapir-tupur tovushlarini eshitib, orqalariga o'girilib qaradilar. Izlaridan beshta otliq katta tezliqda kelardi. Hasan darrov qora butaning atrofidagi maymunjonlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

"Siz ketavering", - dedi onasiga, "ular sizni tashlab ketishgandan so'ng, mnn chopib orqangizdan yetib olaman".

Onasi yura boshladi.

Bir ozdan so'ng otliqlar unga yetib oldilar. Mustafu, "Hasan qayerda?" - deya g'azab bilan so'radi. "Qo'limni qonga bulg'ama", - dedi.

"Hasan uyda qoldi, men uydan chiqayotganimda, u uxlab yotgan edi. Uyg'otmadim bechorani. Uxlab qoldi".

"Yo'q", - deya baqirdi Mustafu "yolg'on, yopg'on... Qo'shnilar ikkalovingizni birga chiqib, qochayotganingizni ko'rishgan".

"Uyda uxlab yotibdi", - dedi Esma.

"O'ldiraman seni", - dedi Mustafu.

"O'ldir, o'ldir. Zotan o'ldirmasdan nima qilyapsizlar. Meni har kuni, har kuni o'ldirmoqchi bo'lasizlar", - dedi baqirib Esma.

"Akangizni men o'ldirmadim, Abbas o'ldirdi. O'chni esa borib Abbasning aka-ukalaridan, qarindosh-urug'idan olinglar. Faqatgina meni topib olib, mendan olasiz akangizning o'chini, shundaymi? Leklardan qo'rqasizlar, shundaymi? Leklarga yaqinlashishga yuragingiz dov bermaydi, to'g'rimi. Akangizni men o'ldirmadim. Abbas o'ldirdi akangizni, buning ustiga xotinini ham olib qochdi. Boringlar, o'chingizni o'shalardan - uning qarindoshlaridan oling. Oling-da, nomusingizni tozalang".

Bir qamchi Esmaning yuziga chiyillab kelib tushdi. So'ngra ketma-ket tusha boshladi. Otliqlar uni o'rta olib qamchilardilar.

Esma o'zini tutolmay qichqirib yubordi-yu, qilgan ishidan pushaymon bo'ldi. Buni bolasi eshitgan bo'lsa-chi?

Hasan butazordan chiqib, bo'layotgan voqsani kuzatib turardi. Onasining qichqirig'ini eshinishi bilanoq bor kuchi bilan ular tomonga chopa boshladi. Keldi-da, yerdan toshlar yig'ib, otliqlarga ota ketdi. Ham baqirar, ham otliqlarni toshbo'ron qilardi. Tosh otaverib otlarni ham hurkitib yubordi. Hasan aqldan ozganday edi. To'rt tarafga yugurib, tosh yig'ib, tinmay otardi.

"Eh", - derdi o'ziga-o'zi. "Eh, eshak miya, nega miltig'imni olmadim-a?! Olganimda edi, bularning hammasini jonsiz yerga qulatardim".

* * *

"Miltiqni nega olmadingiz, Hasan?"

"Miltiqni ular berishgandi. Hadyalari boshlarida qolsin. Ularning hech narsasini olib ketgim kelmadi. Katta bo'lganimda esa o'zimga tegishli molu davlatni zo'rlik bilan qo'lga kiritar edim. Katta bo'lishimga ham aydarlik ko'p vaqt qolmagandi".

"Otni nega olmadingiz Hasan, otga minib qochganingizda tezroq qochmasidingiz?"

"Ot ham ularniki edi. Men olmoqchi edim, lekin onam xohlamadilar".

Mollari, otlari boshlarida qolsin ularning, dedilar. Istamadilar. Meni tinch qo'yib, o'g'limni menga bersalar bas, boshqa ninadek narsalarini olishni xohlamayman. Qolgan hamma narsalar, onalarining sutiday halol bo'lsin ularga, dedilar.

Hasan otlarni hurkitib-hurkitib, amakisiga qarata bir tosh otdi. Mustafoning yonog'i qonadi.

Esma yerda yotar, ust-boshi, sochlari, qo'llari, qoshu kiprigi oppoq changta belangandi. Hasan borib onasini quchoqladida, o'rnidan turg'azdi. Onasi to'htamay yig'lardi.

Otliqlardan biri kelib, "Fohisha onadan mana shunday nokas bola tug'iladi-da" dedi. "Onasi kimu bolasi kim bo'lardi. Fohishaning ketidan tushgan bola, fohisha bo'ladi. Mustafu, ey Mustafu, otasining qotili bilan bunday apoq-chapoq bo'lgan boladan nima yaxshilik chiqadiki, biz tinmay bu itning ketiga tushamiz?"

Otni hamchilab, ularning ustidan o'tib ketdi. Hasan bilan onasi otning tuyoqlari ostida qoldilar. Hasan o'qday o'rnidan turib, haligi odamning ketidan ayamay so'kindi. Otliq otini hamchilab, uzoqlashib ketdi.

Amakisi Hasanning yoniga kelib, uni ko'tardi-da, otiga mingashtirdi.

"Qani sen jahannamga bo'lsa ham ket, fohisha", - dedi. "Agar qaytib borsang, qo'limni qonga bulg'alashga majbur qilgan bo'lasan".

Otni qamchiladi. Boshqa otliqlar ham uning ketidan ketishdi. Otlar qishloq tomon uchib borardi, go'yo. Hasan hovlida egardan sakrarkan, g'azabidan quturib ketgandi. Egardan tushar-tushmas, yo'lga - onasi tomonga otildi. Darrov orqasidan quvib, tutib keldilar.

Hasan ularning qo'llaridan chiqib qochar, yo'lga tushar, ular yana tutib kelardilar. Hasanning yuz-qo'llari qonab ketgan, yangi kiyimlari parcha-parcha bo'lgandi. Uni kap-katta odamlar tutib tursalarda, u tinmay tipirchilardi.

Buvisi buyruq berdi.

"Qo'l-oyog'ini bog'langlar, bu itning". So'ngra darrov so'zidan qaytib: "Yo'q yo'q, bunday qilmanglar, ozor bermanglar nabiramga", - deya uning yoniga keldi. "Tur bolam, tur qora ko'zim, arslonim, juda charchading, turaqol. Eh bolam, eh mening pahlavonim,

onalik qursin. Onani yaratmasin ekan. Sening onang mening o'g'limni o'ldirdi. O'zing o'ylab ko'r, sen bir onadan, ustiga-ustak otangning qotili bo'lmish onangdan voz kecholmayapsan, axir men qanday qilib tog'dek baquvvat o'g'limning qonidan voz kechayin, aytgin menga Hasanim. O'g'limning o'chini olmasdan bu dunyodan ko'z yumsam, shu qora tuproqqa kirar bo'lsam, meni yer qabul qilarmidi?! Men nima qilayin, bolam, pahlavonimning o'g'li, onalik qursin, onalik... Mening tog'dek pahlavonim qora yerda chiriyo'tgan bir vaqtda, dushmanim ko'z o'ngimda sollarib, turlanib, tuslanib yuribdi. Hasanim, arslonim, bolam. Endi esa dushmanim ketayotganda, yuragimning bir parchasi, o'g'limning dunyodagi yolg'iz yodgori ham u bilan, o'g'limning qotili bilan birga ketsa, men o'lmayin kimlar o'lsin, Hasanim. Mayli, qo'yib yuboring, qo'yib yuboringlar Hasanni, qayerga xohlasa o'sha yerga ketsin".

Hasan hanuzgacha odamlar qo'lida tipirchilar, ushlab turgan qo'llarini, qayerlari duch kelsa o'sha yerlarini tishlar edi. Odamlarning qo'llarini qonatib yuborgandi.

Mustafo sekingina yonlariga bordi: "Qo'yib yuboring, Hasanimni. Qo'yib yuboringlar pahlavon o'g'limni. Onasini tashlab ketgisi yo'q, mayli onasidan voz kechmasin. Uning xotiri men uchun otasining xotiridir. Bundan so'ngra onasining o'rni ham ko'nglimizning, uyimizning to'ridadir. Qani og'aynilar, Hasanni yoningizga olingda - garchi u shuni istar ekan" Esmani topib, uyga olib kelinglar. Bundan so'ngra unga hech qanday gap gapirilmaydi, bundan so'ngra uning joyi boshimiz ustida bo'ladi.

Qanday qilaylikki, onasi bizning akamizni o'ldirtirgan bo'lsa, aslida uning otasini o'ldirtirgan-ku. Jiyanimiz otasining maqsadini ko'zlamagan, uning qonini yerda qoldirgan o'g'il bo'lsa, biz nima qilaylik. Ko'ramiz, otasining qoni yerda qolib, qanday go'rida tinch yotar ekan. Bizga nima, qora yerda suyaklari chirsillab chiriyo'tgan, go'rida ham halovat topmagan, qiyomatgacha yig'lab, mozori qurimaydigan, Ollohning, Payg'ambarning huzuriga borganda ularning yuzlariga qarolmaydigan bizning akamiz bo'lsa, uning otasi-ku, axir. Qoni yerda bulg'alanganligini u bilmaydi deysizmi?"

Hasanni qo'yib yuborishdi. Ulardan ozod bo'lishi bilanoq biroz tinchlandi va hech narsa bo'lmaganday ma'yus tortib, charchaganicha dahlizning o'rtasida turib qoldi. Odamlar kir dastro'mollari bilan qonlarini artishardi. Hasanning yuzi qonardi. U parishonxotir edi. Xuddi amakisining gaplarini butun vujudi bilan tinglayotganday unga qotib qarab turar, lekin hayoli boshqa yerda edi. Onasini chopib orqaga qaytib kelayotgani, yo'lida yiqila-yiqila yurayotgani, tush kabi ko'z o'ngidan o'tardi.

"Qoni yerda qolgan otaning qiyomatgacha go'rida yig'lab yotishini, qiyomatgacha qonini yerda qoldirganga badduolar bo'lishini bilmaydimi u?! Qoni yerda qolgan ota qabrida tinch yotolmasligini, qiyomatgacha tinch uxlo'lmasligini u bilmaydi deysizmi?!". Jim bo'ldi. Yuzini chidab bo'lmas bir g'am-g'ussa qoplab olganday edi. Ajinlari chuqurlashib, ko'payib ko'rindi. Tinmay qo'llarini bir-biriga urib, o'z joyida aylana boshladi. Ko'zlari ham kattalashib ketdi.

Yana nimalarnidir gapirmoqchi bo'lar, to'htar, Hasanga qarar, so'ng bo'ynini egganicha gapirishdan voz kechib, yo'lida davom etardi.

"U bilmaydimi?", - deb baqirdi. "Bilmasmi u, bilmaydimi u?"

Yana jim bo'lib qoldi. Tez-tez yurar, qo'llarini musht qilib, telbalarcha aylana, tinchlanar, so'ng Hasanga qarardi. Bir bukchayar, bir tik turar" misoli ochilib-yopilayotganday. Katta-katta qadam tashlab onasining yoniga keldi, yuziga qarab, basharasi achinishdan yanada battarroq bujmayib ketdi.

"Bu, bu onadir. O'likning suyaklari go'rida qalt-qalt titrasa, halovati bo'lmasa, bu ona o'lmasdan kimlar o'lsin".

Onadir, deyishi bilan ovozi titrab, bo'g'ilib chiqar va yig'lamsirab, qichqirayotganday gapirar edi.

Ovozi yo'g'on, qat'iyatli bo'lishi bilan bir qatorda, darddan ezilgan, charchagan, chorasiz bo'lib eshitilardi.

"U qoni yerda qolgan inson go'rida tinch yotmasligini, balki ruhi qabrdan chiqib sarson-sargardon kezib yurishini bilmaydimi? O'chi olinmaganidan beri har tuni, har kechasi akamni oq kafanga o'ralib, hovli kezib yurganini ko'raman. Ko'rgandimu, hech kimga aytmagandim. Bir kuni kechasi o'rnimdan tursam, tog'u toshlar ingrayapti, tashqariga chiqib qaragam, ularning eshiklari oldida bir oq kafan turibdi. Ingroq ovoz shu kafandan kelayotgan ekan. Sekingina yoniga bordim, yaqinlashib qaragam, u mening yuzlari so'ligan, oqarib ketgan akam ekan. Aka, akajonim, dedim. Halil akam hech narsa demasdan, suzilib mozor tarafga ketdi. Aks-sado orasidan: "O'g'lim Hasanga ayt, mening qonimni yerda qoldirmasin, qonimni, onasi bo'lsa ham u xotinning bo'ynida qoldirmasin", - degan gaplarini eshitdim. Yerning ochilib, Xalilning mozorga kirganini va mozor yopilishi bilan aks-sadoning ham to'htaganini eshitdim".

U Hasanning yoniga keldi. Hasan uning nafas olishini ham eshitib turardi.

"Nega aytdim-a bu gaplarni bolaga, tuf-e. Endi nima degan odam bo'ldim? O'zimni tutolmay, otasining ruhi sarson-sargardon bo'lib yurganiga, xuni olinmaguncha shunday bo'lishini kelib-kelib bolaga aytamanmi-a, tuf-e! Bo'ladigan ishmi bu. Mushtumday bola otasining xunini ola bilmaydimi? Zotan, otasining qotili onasi bo'lsa, qo'lidan nima ish kelardi bu bola bechoraning tuf, tuf-e menga..."

Ostona tomonga yurdi. Ostonaga yetib kelgach, yana orqasiga qaytdi.

Siz Hasan bilan birga boring-da, uni otta mindiring va birgalikda onasini olib kelinglar. Modomiki, u jiyanimizning onasi ekan, yavov yurmasin, bechora. Ukamizning qotili bo'lsa ham, jiyanimizning, jasur Hasanimizning..."

Gapini tugatar-tugatmas, chiqib ketdi. Eri chiqishi bilan, Mustafoning xotini Dona kelib, Hasanni yoniga oldi:

"Voy bolam, voy", "B" dedi. "Voy Hasanim, yetimchaginam, nima bo'ldi senga, qon ichida qolibsan-ku. To'hta, avval yuzingni yuvayin, so'ng onangning oldiga borasan..."

Tashqariga olib chiqib, yuzini yaxshilab yuvib qo'ydi va qon to'htatish uchun dori surtdi.

Odamlar o'tlanib eshiqda kutib turishardi. Ulardan biri Hasanni uzun qo'llari bilan ko'tarib, egarning orqa qismiga o'tqazdi va birgalikda yo'lga tushdilar.

Esmani kun botayotganda topdilar. U bo'z tuproqli bir yerga o'tirganicha, mukka tushib qolgandi. Ko'rishlari bilan yoniga bordilar.

Esma shunday holatda ediki, hatto ularning kelganini ham sezmedi. Hasan darrov otdan sakrab tushib, uning yoniga keldi.

"Men keldim, ona, yuring ketamiz", - dedi. So'ngra sekingina egilib, qulog'iga: "Otamning ruhi kezib yurganmish. Amakim ko'ribdi, butun qishloq ko'ribdi. Ko'rmagan odam qolmabdi. Oq kafanga o'ranib, mozoridan chiqib, har yerda ingrab yurganmish", - dedi.

Esma uning eshitilar-eshitilmas, pashshaning vizillashga o'hshash ovozidan hech narsa tushunmagan, balki ovozi ham eshitmagandir. Yoki Hasanga shunday tuyulgandir.

Hasanning yuragiga vahima tushdi. Bu ruh onasini o'ldirish uchun yurganmikan? U battarroq qo'rqib, onasiga yopishdi:

"Qani turing, uyimizga ketamiz. Nima qilamiz endi, har tun uyimizga kelayotganmish. Kelgani rost. Bir kuni kechasi men ham uning ingraganini eshitdim. Dadam anchagacha ingrab turdi, turing ketamiz".

Onasini qo'lidan ushlab turg'azdi. Otiqlar esa nariroqda bu ona-bolaga qarab turishardi.

Esma boshi egilganicha otiqlar tomonga zo'rg'a bir-ikki odim tashladi. Otiqlarning biri otdan tushib, Esmani otiga mindirdi.

Hasanni ham egarning orqa qismiga o'tqazdi. Ular yo'lga tushdilar.

Uyga kelganlarida butun qishloq uylarining oldida to'planib turardi. Hech kim churq etmas edi. Esmani ko'rishlari bilan hammalari uvillab yuborishdi.

Olomondan bir qariya chiqib:

"Esma, Esma", - deya baqirdi. "Uying kuygur Esma. Halil ruxga aylanib kezib yuribdi. Qishloqda uni ko'rmagan odam qolmadi. U qoni uchun qon talab qilyapti. Beringlar Halilning qonini. Beringlar qonini, Halilning qoni uchun qon taslim qilmas ekansan, ruhi kelib, o'g'lingni olib ketadi. Xa, ha olib ketadi".

Esma olomondi yorib, qech qayoqqa qaramay ichkariga kirdi.

Qishloq yana bir qancha vaqt jimib qoldi. Qishloq Hasanni ham, Esma va ruxni ham unutib yuborgandi. Bu tinch, turg'un, hamma o'z ishiga mashg'ul bo'lgan vaqt qanchagacha davom etdi, hech kim bilmaydi. Bu tinchlikning, xatti-harakatlarning, gap-so'zlarning birdaniga to'htab qolishi va bu qadar uzoq davom etishi Esmani qo'rqitar va u bu qo'rquvini o'g'liga ham aytardi.

Hamma narsaning birdaniga to'htab qolishi xayrli ishning alomati emas edi. Esma sergak turardi. O'g'lidan xavotirda edi. Bu jimjitlik o'g'liga bir narsa qilib qo'yishi mumkin edi. Yuragi bezovta edi.

Bir kuni ertalab Esmaning qo'rqanicha bo'ldi.

Karim o'rtaga tushib gapirardi:

"Ko'rdim", - derdi u uzun bo'ynini cho'zib. "Kecha kechqurun qoyaliklardan tushayotganimda Halilni ko'rdim. Alikesikning boshida boshimni bir ko'tarsam, ne ko'rayki, oq kafanli, ozib-to'zib ketgan, qorong'uda ko'zlari yonib turgan bir kishi yo'limni to'sdi. Ustimga egilib, uzoqdan menga qarab turardi. Bo'yi naq terakday cho'zilib ketgan. To'hta, ey Karim, dedi menga. Meni tanidingmi, Karim? Ovozini tanib, tanidim, dedim, sen Cho'lak o'g'li Xalilsan, shunday emasmi? Ha menman, dedi. Menman, men, arvoonga aylanib kezib yuribman. O'sha iymonsiz, Oллоhsiz onam, betarbiya, ahloqsiz ukalarim, ustiga-ustak bo'yi yetgan o'g'lim va qotilim bo'lmish xotinim tufayli arvoonga aylanib yuribman. Onam yo'q mening Karim, borib ayt unga. Ukalarim ham yo'q, ularga ham borib aytgin. O'g'lim Hasan ulg'ayib qolibdi, koshki katta bo'lmasaydi, men u tufayli mozorimda tinch yotolmay arvoonga aylanib yurganimdan, do'zax molikparining qo'lida dog'lanayotganimdan ko'ra, u ulg'aymasa ham mayli edi. So'ngra Xalil yig'lay boshladi. Holimni so'rama, Karim hozir sen meni minoradek uzun, oq kafanga burkangan holatda ko'rayapsan. Do'zax moliklari meni har kuni har xil qiyofaga, har xil shaklga solib qo'yishyapti. Bir qarasang itga aylanib, shu tog'larda ertalabgacha hurib chiqaman, o'laksalarning go'shtini yeyman. Bir qaragam meni burgutga aylantirib qo'yadilar, borib uyimning eshigiga qo'naman-da, badbaxt o'g'limni ko'raman. Ustiga-ustak u miltiqdan otishni o'rganib olibdi. Qushlarni, burgutlarni, quyonlar va tulkilarni otayapti. U og'zi bo'lsa xam tili yo'q hayvonlarni o'ldirgandan ko'ra anavini otsin, otsin-da, otasini arvoqlikdan Ё' ilonlikdan, chayonlikdan, mushuk bo'lishdan qutqarsin. Mushuk bo'lsam-ku yaxshi-ya... Bir martasida meni mushukka aylantirib qo'yishdi. Mushuk nima ish qilsa men ham shuni qilib, to'g'ri uyimga ketdim... Xotinim bor-ku, o'sha mening ko'zlarimga tikilib-tikilib turdida, bu mushuk Xalilga o'hshar ekan, deb bir tepdi. Yana boshimga kaltak bilan urdi. Haligacha boshimni ko'tarolmay yuribman. Agar qochib ketmasam meni o'ldirib qo'yardi. U qotilimning qo'lidan qochib qutildim. Onam, ukalarim, o'g'lim ham odam emas ekanlar. Karim senga aytaman, xotinimga borib ayt, meni qutqarsin, hech kim uni o'ldirolmaydi. Na onam, na ukalarim, na qarindosh-urug'im, na do'stlarim, hech kim uni o'ldirolmaydi. Garchi shunday ekan, u o'zini o'zi o'ldirsin. O'zini o'ldirsin-da, meni arvoqlikdan qutqarsin. Qo'rqoq, bir pulga qimmat o'g'lini o'sha tug'ib bergan. O'g'lim odam bo'lmaydi, bir pulga arzimaydi. Shuning uchun hamma ayb xotinimda, endi esa o'g'lini ham, meni ham bu obro'sizlikdan qutqarsin. U o'zini o'zi o'ldirmas ekan, men qiyomatgacha arvoq bo'lib kezib yuraman. Mening xunimni olmay, arvoq qilib qo'ygan o'g'lim esa, yuzi shuvut bo'lib, odamlar orasiga kirolmaydi. O'zig ni o'ldirib, o'g'lini obro'sizlikdan qutqarsin. Esmaga aytgin, mening ahvolim yomon... Onamga, o'g'limga, qishlog'imga aytgin-ki, do'zax moliklarining dastidan dod deya pman, ular meni bir kuni chuvalchang, bir kuni ilon, yana boshqa bir kuni qurbaqa, shilliqqurt tusiga kirgizib qo'yishyapti. Bu do'zax moliklariga yolvorib, meni qo'yib yuboringlar, desam ustimdan kulib, yana ham biz senga rahm qilyapmiz, og'a. Biz seni yuz mingta kichik-kichik shilliqqurtchalarga aylantirib, butun dunyoga tarqatib yuboramiz. Qiyomat kuni boshqa do'zax moliklari ham seni inson holiga qaytarolmaydilar. Oллоhning huzuriga yuz mingtaga bo'lingan shilliq qo'rt ko'rinishida borasan, narigi dunyoda ham arvoq bo'lib umr kechirasan. Insonning xuni olinmasa, juda qiyin ekan. Eh Karim, Oллоh bu narsani hech kimning boshiga solmasin ekan. Mening qo'l-oyog'im behollashib, qo'rquvdan titrab turganimda Halilning arvohi ko'zdan g'oyib bo'libdi. Yana bir qaragam, Halil mushukka aylanib, oyog'imga surkalyapti, so'ngra mushuk boyqushga aylanib, bir qoyaga qo'ndi-da, sayray boshladi. So'ngra boyqush chinqiroq ilonga aylanib, qarshimda turib oldi. Ro'paramda turgan ilonni ko'rishim bilan o'zimni Alikesik tepaligidan yo'lga otdim. Mana oyoqlarim shilini, qonab yotibdi. Uyga kelib, tabibning oldiga bordim. U yaralarimni bog'lab shunday dedi: "Karim, ukam, Halil senga ishonib, sening yo'lingda uchrabdi. O'zini senga omonat qilib toshpiribdi: Bu narsa bo'yingda qarz bo'lib qolmasin. Borib onasini, xotinini, o'g'lini, ukalarini, hamqishloqlarini topib, Halilning ayanchli ahvolini gapirib ber. Bechora Halil, qiyomatgacha bu dunyoda shilliqqurt bo'lib yurmasin. Agar bu mas'uliyatli gapni aytmasang, bo'yingda qolib ketsa, sen ham baraka topmaysan..."

Butun qishloqning og'zida shu gap. Bu gapga ishonmaganlar ham bor edi. Halilning shilliqqurtligiga, boyqush yoki qumri qushligiga, oq kafanga burkanib qishloq tepasidan uchishiga ishonmay, masxara qiluvchilar ham topilardi. Lekin, aksincha, chin yuragidan ishonib, Halilni qutqarish uchun bo'lmag'ur ishlarga qo'l urganlar ham yo'q emasdi.

Oxirida hamma narsa Hasanga kelib taqalardi. Halilning shilliqqurtligi, chuvalchang va boyqushligi, go'rida qizigan temirlar bilan dog'lanayotgani, hamma-hammasi Hasanga kelib tegardi. Yoniga kelgan har bir odam otasining bu ahvolini unga aytishni o'zining vazifasi deb bilardi. Emishki, Hasan juda yomon ish qilgan, onasi tufayli otasini gazandalar qiyofasiga tushirib qo'ygan, qonidan paydo bo'lgan otasini qiyomatgacha shilliqqurt tusida yurishiga o'z qo'li bilan mahkum qilgan edi.

Karimga kelsak, u Esmaning yoniga kelib-ketib turdi. To'htamay, balki ming karra, Halilning holatini gapirib berdi. Halilning Esmadan xohlayotgan, kutayotgan ishini har safar achinib, yig'lamsirab gapirardi. Esma jim turar, javob bermas edi.

Eng so'nggida Karim g'azab bilan gapira ketdi: "O'zing bilasan, Esma. Shu vaqtgacha seni ko'zim qiymay, aytmadan keldim".

Arvoq menga yo qonim, yo o'g'lim, yo xunimni olsinlar, yoki men Esmaning o'g'lini olishga majburman, dedi. Bundan so'ngra ham xohla o'zingni o'ldir, xohla o'ldirma..."

Esma toshdek qotib qoldi. Bu gapga ham javob qaytarmadi.

Bundan so'ngra Karim butun kuchini Hasanga tashlab, uning ketiga tushdi. Hasanni tutib, bafurja gapirolmas, arvoqning

omonatini unga yetkazolmayotgandi. Goh Anavarza qoyaliklarida, goh Jayhon irmog'ining bo'yalarida, dalada, yo'lda, cho'lda bo'lsa ham Karim doim uning ketida edi. Hasan ham uni ko'rishi bilan yerning tagiga kirib ketganday ko'zdan g'oyib bo'lardi. Karim esa: "Bu bolani jin chalgan. Bir gap bor bu bolada, oylar davomida uni hech qo'lga tushirolmayapman", - derdi. Kechalari, ertalablari uyda, yotoqda bo'lsa ham uni ta'qib etar, Hasan ham yo'lini topib Karimning qo'lidan qochib qutilardi. Tutib olsa, nimalar gapirishini so'zma-so'z bilardi.

Axiyri Karim Hasanni Anavarzaning kun botar tarafidagi Savrun suvida cho'milayotganida, yalang'och holatda tutib oldi. Hasan bu safar qocha olmadi. Yonma-yon o'tirdilar. Karim yana Alikesik tepaligida ko'rganlarini, otasi nimalar deganini birma-bir gapira ketdi. "Men arvohtoning oldidagi burchimni bajardim", - dedi so'ngida. "Mana sen, mana arvoht, mana onang. Endi xohlaganingni qilaver", - dedi.

So'zini tugatishi bilan ro'paradagi chaqirtoshlar ustida bir kaltakesakni ko'rdi. Hayajonlanib: "Qara, qara, mana, qara, shu kaltakesak tusiga kirib olgan sening otang bo'ladi. Qara, ko'zlariga qaragin, Halilning qora ko'zlariga qanchalik o'hshaydi, shu kaltakesakning ko'zlari qop-qora, boshini duo qilayotganday ko'tarib tushiryapti. Men senga nimalarni gapirayotganimni eshitish uchun kelgan. Qara, qaragin..."

Hasan kulib yuboray dedi. Karim buni ko'rib g'azabdan tutoqib ketdi. O'rnidan turib, arvohlarni, yoshu qarini, hamma-hammani so'ka ketdi.

Hasanning ustidan gaplar yomg'irday yog'a boshladi. Qishloqdagi hamma - yoshu qari, katta-kichik, barchasi Hasanni ko'rib qolsa, вЂњЎулуг'вЂќ burchini bajarardi. Hasanga otasidan, onasidan, arvohlardan albatta gapirardi...

Hasan ortiq uyquda yurganday his qilardi o'zini. Hech kimdan qocha olmas, o'zini yo'qotib qo'ygan edi. Aralash-quralash gaplar ichida o'zini bilmay sandiroqlab yurardi.

* * *

Dursun bobo yuz yoshlarda edi. U yurolmasdi ham. Qoshlari ko'zlarini ustiga tushgan, bo'yni burushib ketgandi. Burushiq bo'ynida doim bug'doy donalari, somonning parchalari bo'lardi. Qoshlarini ikki qo'li bilan ko'tarib ochar va ko'k ko'zlari bilan uzoq-uzoqlarga termulardi. Hasanni balki tanimasdi ham. Hech gaplashmagan edilar. Hasan uning yonidan hayol surib o'tayotganda: "To'hta Hasan, to'hta", - dedi nozik, ingroq ovoz bilan. "To'hta Hasan, biroz to'htagin. Dursun bobong senga bir-ikki kalima so'z aytmoqchi..."

Tayog'ini oyog'i bilan qisib, Hasanni o'z yoniga tortib o'tqazdi. Yuziga egilib qaradi. Termulib turib, hayronlik, boladay soddalik bilan: "Sen ulg'ayib, kap-katga yigit bo'libsan Hasan! Eh, bu qishloqdagilar seni aldashyapti. Sening onang juda go'zal ayol, bolam. Men shu yoshga kirib inson zotida bunday go'zallikni ko'rmaganman. Agar inson bu qadar go'zal, malak yuzli, malak fe'lli bo'lsa, odamlar unga baxillik qiladilar. Afsuski, onangni o'ldiradilar, Hasan. Qaniydi yosh bo'lsam, qaniydi, qo'lim-oyog'im yarasa, nima ish qilardim, bilasanmi Hasan?"

Qoshlarini ko'tardi, kuchi yetmay, qo'llari bilan ko'tardi bu safar. Ko'm-ko'k, beg'ubor, tiniq, ko'zlari bilan uzoq termuldi Hasanga. So'ngra qoshlarini tushirib, boshini egganicha o'y surdi. Yana qoshlarini ushlab ko'tardi-da, ko'zlarini Hasanga qadadi, keyin qoshlarini qo'yib yubordi va boshini egib oldi. So'ngra birdan boshini ko'tarib, qo'lini cho'zib, yelkasidan tutdi: "Onangni o'ldirma", - dedi. "Mening gapimga kirgin, ho'pmi? Onangni o'ldirma, Hasan. Onang kabi dunyo go'zali o'ldirilmasligi kerak. Onang emas, yetti yot begona bo'lsa ham, bunday go'zalni o'ldirishga odamning ko'zi qiymaydi. Onang kabilarni Olloh ming yilda bir yaratadi. Ular Ollohnung yer yuzidagi seviklilaridir, arvoht yurgan otangga, kal Karimning gaplariga quloq tutma, o'ldirma onangni. Onangga ham ayt, bu telba qishloq gapiga kirib o'zini-o'zi o'ldirmasin, Hasanim. Onang Ollohnung sevgan bandasidir. Ollohnung sevgan bandasini o'ldirsangiz, Olloh boshingizdan tosh yog'dirib, shunday xastaliklarga duchor qiladiki, hammingiz kiritilib ketasiz!"

U kulimsirab, qo'llari bilan qoshlarini ko'tarib, Hasanga karadi. Tishsiz og'zi, boladay soddaligi, yumshoqligi bilan tinmay kulimsirar edi.

"Hozir yosh bo'lib qolsam, nima qilardim, bilasanmi Hasan?"

Hasan javob bermadi.

Hasan javob bermaguncha u qayta-qayta so'rayverdi. Oxiri, Hasan ham kulimsirab: "Ha, nima qilardingiz, Dursun amaki?" "Sen ham gapirar ekansan-a, Hasan", - deb hayronlik bilan sevindi, chaqaloqnikedek tishsiz og'zini ochib kuldi. "Ha gapiraman, odamini topsam", - dedi Hasan. "Nima qilardim bilasanmi? Uyingizga borib, to'shamchi to'shardimda, yerga o'tirib olardim. Agar quvib yuborishsa, hizmatkor bo'lib qolardim uyingizda. Yana haydamoqchi bo'lishsa, kasal bo'lib yotib olardim. Nima qilsam ham uyingizda qolishning bir yo'lini qilardim. Va ertalabdan kechgacha onangni tamosha kilib o'tirardim. Esmani tamosha qilib to'g'ri jannatga ketardim Hasan. Onangni chin yurakdan, go'zalligini to'yib-to'yib tamosha kilgan odam jahannamga tushmaydi. Sidqidildan onangga qaragan odam bu dunyoda ham, u dunyoda ham jannatda bo'ladi. Olloh ham onangga to'yib-to'yib qarayatgandir balki. Shuning uchun onangni o'ldirgan odamning kosasi oqarmaydi. Endi esa Hasanim, meni ko'tar-da, uyingga olib bor. Mana shunday yarim ko'z bilan, yarimta jon bilan bo'lsa ham, butun kuchimni ko'zimga to'plab unga bir qarayin, chin ko'ngildan qaragan odam to'g'ri jannatga kiradi, qani endi uyingta olib bor meni".

So'ngra jim bo'lib qoldi. Hasanning ko'zlariga qadab turgan ko'zlarini asta tushirdi. Hasan hursand bo'lib:

"Qani ketdik bizning uyga Dursun amaki. Onam sizga yaxshi bir kahva tayyorlab beradilar, agar xohlasangiz ovqat ham pishirib beradilar".

"Qani ketdik", - deya oyoqlarini yerga bosib o'rnidan turmoqchi bo'ldi, yana bir kuchandi-da, turolmadi. So'ngra Hasan borib uning qo'llaridan ushlab turg'azdi.

Yo'lga tushib, uyga yetib keldilar. Hasan bilan Dursun amakini birga ko'rgan odamlar tushunmay qoldilar. Ichlariga qurt kirgan odamday chidolmasdan ularga eshittirib badduolar ayta boshladilar.

Esmas Dursun amakini quvonib kutib oldi. Peshin mahali edi. Esmas uning ovqat yegan-emaganini so'radi va "emadim" degan javobni olgach, darrov dasturxon tuzab yubordi. O'tirgan yerlariga soya tushganidan havo salqin edi.

Dursun amaki qo'li bilan qoshlarini ko'tarib, Esmaga qarardi: "Ollohga shukr, beaded shukr, shu kunimga, shu holimga shukr", deya duolar o'qir, "subhanalloh, subhanalloh", deya maftun bo'lib qolganni yashirolmasdi.

Ular uzoq ovqatlanib o'tirdilar. Chunki Dursun amaki ham tishsiz og'zi bilan chaynashga qiynalardi, ham Esmaga qarayverib og'ziga ovqat solishga ulgurolmasdi.

O'sha kun Dursun amaki kun botgunigacha Esmalarning uyida o'tirdi. Kun botgandan so'ng "Hasan, endi meni uyimga olib

bor", b" dedi.

Hasan uning qo'ltig'iga kirdi va ular yo'lga tushdilar. Yo'lda hech gaplashmadilar.

Kechqurun Hasan aloq-jaloq tushlar ko'rdi. Tushiga otasi kiribdi. Qamishzordan botqoqlikka tushib cho'kib borayotganmish, o'zini hech ko'tarolmayotganmish. Birdan otasi ko'z o'ngida ilonga aylanibdi, ilon ham botqoqlikka botib ketayotganmish. Botqoqlikning balchig'ida tipirchilarmish-u loyga battarroq botib, bo'ynigacha kirib ketayotganmish. Bir kaltakesak, qurbaqa, bir katta ko'zli boyqushga aylanarmish. Kaltakesak, qurbaqa botqoqlikda boyqushga aylanib, maymunjon daraxtining ichidan chiqib kelarmish. Qanotlari loyga belangan, yulingan, ivib ketgan edi. So'ngra oq kafanli, kafani loyga bulg'alangan, ko'zlari kattalashib, irg'ib chiqqan otasiga aylanardi. Hamma yeri ho'l, shalabbo edi. So'ngra hamma narsa boyqushning katta-katta ko'zlariga aylandi. Boyqush ham shalabbo bo'lib ivigan, patlari yulinib ketgan, ko'zlari portlagudek bo'lib borgan sari kattalashib borardi...

* * *

Hasan kun chiqmasdanoq uyg'ondi. Qo'lga miltig'ini oldi. Onasi esa yostig'ining ustiga sochlarini yoygancha uxlar edi. Sochlari uzun, qirq kokil edi. O'ralgan sochlariga kumushdan, oltindan ishlangan marjonlar taqilgan edi. Onasi Dursun amakining aytganidan ham go'zalroq edi. Bir oz vaqt onasining chiroyiga to'ymay qarab turdi.

Oqshomdan buyon, balki bir necha kundan buyon onasiga bildirmasdan bir hurjun tayyorladi. Ichini oziq-ovqat bilan to'ldirdi. Pul xam topgan edi. To'g'rironi, o'zining bir hovuch puli bor edi. Pullarini qo'yniga, qo'ltig'ining tagiga solib qo'ydi. Chiroyli kiyimlarini kiyib, qo'lga miltig'ini olganicha pastga tushdi.

Og'ilxona xali xam qorong'u edi. Qo'li bilan paypaslab, toyini topdi. Toyiga minib hovliga chiqdi. Onasi uhlayotgan xonaning derazasiga termulganicha eshik oldida biroz turib qoldi, so'ngra sekingina ot surib, yo'lga tushdi. Sharq tomonga b" Qozonga qarab asta-sekin ot surib ketdi-da, birdaniga tezlikni oshirdi. Qozongacha otini to'htatmay choptirdi. Peshin mahali bo'ldi. Otini bir daraxtga bog'lab, oshxonaga kirdi. Ichi non va oziq-ovqatga to'lgan gilamdan to'qilgan xurjunini yelkasiga osib olgandi. Stolga o'tirib, xurjunidan bir yupqa chiqardi. Bu orada oshxonaga xizmatchisi kelib:

"Xush kelibsiz, og'a, nima buyurasiz?" - dedi. Hasan avvallari ham oshxonalariga kelib turardi. "Bir tovoq keltiring", b" deya buyurdi. Oshxonaga xizmatchisi: "Bosh ustiga og'a". Oshxonaga xizmatchisi uzun, qirra soqolli Kurt edi. Hasan uni tanidi. Kurt: "Og'a, juda yaxshi shirinligimiz bor... Xohlasangiz olib kelaman", - dedi. Hasan kulib: "Olib keling, dedi. Men sizni taniyman, og'a" deb qo'shib ham qo'ydi. Kurt shirinlikni olib kelib: "Siz meni qayerdan tanijisiz?" - deb so'radi. Hasan: "Siz oshxonaga xizmatchisi Kurt Sulosiz, shunday emasmi?", b" dedi. "Shunday deylik, o'zing kimsan", - deb so'radi Sulo. Hasan: "Men Halilning o'g'liman, haligi Abbos bor-ku, o'sha o'ldirgan..." Sulo: "Tanidim", dedi. "Tanidim seni. Sen Hasansan, to'g'riri? Onang qanday, yaxshimi? Eshitishimcha, onangni amakilaring o'ldirmoqchi bo'lishibdi, lekin sen yo'l qo'ymabsan. Otang xaqiqiy erkak edi. Men seni kap-katta yigit bo'lib qolganingni bilmagandim. Otangni onang o'ldirgan deyishadi, ammo sen ishonma, chiroyli ayollarning orqasidan har xil gap-so'zlar yuradi. Onang aslzodalardan. Onang kabi aslzoda xonimlar erlarini Abbosday bir odamga o'ldirtirmaydi. Onangni o'ldirmagin, xo'pmi? Onasini o'ldirganlar bu dunyoda hech ro'shnolik ko'rmaydilar, narigi dunyoda xam do'zax moliklari xoli joniga qo'ymaydi. Menga quloq sol, men otangni jonimdan ortiq ko'rardim. Otang mening yaqin do'stim, qimor o'ynaydigan o'rtog'im edi. Otang bilan ikkalamiz yolg'iz boshimizga qaramay, Adanaga borib, necha bor bar ochganmiz. Otang misoli bir burgut edi. Abbosday ko'zi qonga to'lgan odam bo'lmaydi. Bu Chukurova o'lkasida otangga bas keladigan, uni o'ldiradigan odam topilmas edi. Mening gaplarimni yaxshilab eshit, do'stimning o'g'li, onangni o'ldirma. Men bilaman, amakilaring onangni senga o'ldirtiradilar. Chunki o'zlari tog'alarindan qo'rqishadi. Tog'alarindan qo'rqmasaydi, allaqachon onangni o'ldirgan bo'lardilar. Ular uchun bir odamni, uning ustiga bir xotinni o'ldirish ish emas, faqat tog'alarindan qo'rqadilar. Tog'alarining juda boy, haqiqiy erkak hamda qonxo'r odamlar. Siznikilar shuning uchun ulardan qo'rqadilar. Biladilarki, agar ularning singillarini o'ldirsalar, tog'alarining kelib bularning butun urug'-aymog'ini qirib tashlaydilar. Holbuki onangni sen o'ldirsang, tog'alarining seni o'ldirmaydilar-da..."

Kurt gapirguncha, Hasan ovqatini tez-tez yeb tugatdi. Birinchi marotaba hayronlik bilan so'radi: "Tog'alarim meni o'ldirmaydilarmi?"

"O'ldirishmaydi b" - dedi Supo. "Lekin sen baribir onangni o'ldirma. Onasining qotili bo'lmoq - o'lguncha olovli ko'ylak kiyib yurmoqdir. Temir tikanli ko'ylak... O'lguningcha har kuni badaningga qizigan temir bosib, dog'lab turadilar. Sen o'zingligingcha qol, nima qilsalar qilsinlar, nima desalar desinlar, onangni o'ldirma, xo'pmi?" Hasanga jon kirib:

"Tog'alarim qayerda yashaydilar, uylari qayerda, ularni qidirib borsam topa olamanmi?" - dedi. "Bilmayman", - dedi Kurt.

"Bilmayman. Otang aytgan edi, lekin hozir esimda yo'q. Otang onangga oshiq bo'lib, uni olib qochgandan so'ng, tog'alarining uning ketiga tushgan edilar. Lekin Chukurovaning katta beklari o'rtaga tushganlaridan so'ng ular dadangni o'ldirishmadi. Yo'qsa... Nima bo'lganda ham onangni o'ldirma, xo'pmi... Aniq bilib bo'lmaydi, tog'alarining balki seni ham o'ldirishlari mumkin. Hasan naqshli, markalar yopishtirilgan ipak karmonidan bitta elliktalik chiqarib, Kurtning yoniga qo'ydi. Kurt pulni olib chopib borib kassada maydalab keldi. Hasan qaytimini karmoniga soldi-da, o'rnidan turdi.

"Xayr, yaxshi qoling, Kurt Sulo, men ketay endi", - dedi. Kurt uni eshikkacha kuzatib, eshitar-eshitilmas bir ovozdab ;

"O'z bilganingdan qolma. Sen o'zing bo'lib qol. Onangni o'ldirmagin", - dedi "Bunday dunyo go'zalini kim o'ldirsa ham baraka topmaydi", - deya qo'shib ham qo'ydi.

Hasan otiga mindi-da, bir oz vaqt qayerga borishini bilmay turib qoldi.

Kurt uni kuzatib turardi. Hasanning yuragi siqilib otning biqiniga bir urdi, toy uchguday bo'lib, shaharchadan chiqib ketdi. Endi esa u shaharning chekkasida, nima qilishini bilmay yuribdi. Daryo bo'yida otini to'htatdi. Nima qilish kerak, qayerga borish kerak? Tog'alarining qishlog'ini, shaharchasini, xattoki ismlarini ham bilmaydi-ku... Balki tog'alari yo'qdir, Kurt uni qo'rqitish uchun shunday degandir. Agar tog'alari yo'q bo'lsa, onasi har doim qayerga qochmoqchi bo'ladi. Yo'q, ular bor edi, onasining aka-ukalari, otasi, onalari, urug'-aymog'i bor edi. Borku, lekin qayerda? Shu tog'larning orqasidami?

Boshi aylanayotganday tuyulardi. Otini toqqa olib boradigan yo'lga burdi. Uzangini bosib, toyni tinmay qamchiladi.

O'rmonning ichidagi soylikni ko'rib, o'sha yerga burildi. Yam-yashil archa daraxtlari ko'kka qarab bo'y cho'zgandi. O'rmon ham yam-yashil edi. Ro'paradagi yonbag'irdan buruqsib chiqayotgan tutun ko'kka intilganicha havoda muallaq turib, yumshoq harakatlar bilan qimirlab turardi.

Ot qiyalikdan chiqayotganida anchagina qiynaldi. Oldidagi tepalikni oshib o'tgach, daraxtlar orasidan, pastdagi vodiylarining uchlari ko'rdi. Qalin bir tutun vodiydagi uylarning ustini pardaday yopib turardi. Bir ho'rozning qichqirig'i, kuchuklarning hurishi eshitildi. So'ngra qo'ylarning, echkilarning, sigirlarning ketma-ket ma'ragan tovushlari keldi. Oqshomlari

qo'ng'iroqlar ham og'ir-og'ir chalinardi. Hasan qishloqdagi uylarni ko'rishi bilan otini to'htatdi, ichiga bir qo'rquv tushdi. Turgan joyida qotib qoddi. Otning ustida oyog'iga tiranib turdi-da, qishloqni tomosha qildi. Bir-ikki bola yig'lar, bir qariya tepalikda turib, sherigiga baqirardi.

Hasan otining ulovini tutganicha shunday turardi. Ko'z o'ngiga buvisi keldi. Uning siymosi ko'z oldidan ketmay turdi. Ichini bir sevgi, ishonch va quvonch tuyg'ulari chulg'ab oldi. Qalbidagi bunday sevinchning sababini o'zi ham tushunmadi. Holbuki pastdagi bu qishloqdan bir kishini ham tanimas edi. Qishloqning nomini ham bilmasdi. Uni bu yerlarga oti boshlab keldi. Vodiyning ustidagi qo'ng'ir qoyaliklar bulutlargacha yuksalgan, bu qoyaliklardagi tovushlar aks-sado berardi. Otning boshini qo'yib, sekingina uzangini bosdi. Qalbidagi sevinchini anglay boshlagandi. Mayli, ot uni xohlagan eshigiga olib borsin. Oti to'htagan eshikda mehmon bo'lmoqchi edi. Men Tangrining bir musofriman, desa nima ham deyishardi. Tangrining mehmoniga kim ham quvonmaydi, deysiz. Balki bu qishloq xalqi kurtdir. Balki Alevi kurtlaridandir. Alevi kurtlari mard, haqiqiy erkak bo'lishadi. Balki bechora Farsak, yoki bo'lmasa, qadimgi qozonlidirlar. Kim bo'lsalar ham, bu tog'liklar mehmonsevar bo'lishadi.

Oti uni tuproq tomli, naqshindor, katga bir uyning ikki ta-baqali keng eshigi oldiga olib bordi. Eshik yonida katta bir chinor daraxti shoxlarini butun hovliga yoyganicha, shamolda og'ir-og'ir tebranib turardi. O'zi otning ustida, egar ustidagi qo'llari tizginni tutganicha hovlida turib qoldi. Ot pashsha qo'ngan dumini tez-tez silkitib qo'yardi. Ichkaridan qari bir odam chiqib, kunchiqar tarafda turgan otligga qarab yurdi. Ko'zini qo'li bilan to'sganicha, yoqimli tabassum bilan yaqinlashar edi. Otning yonboshiga kela turib:

"Xush kelibsan, yo'lovchi, boshimiz ko'kka yetdi, Qani pastga tush", «Б» dedi.

Ogning tizginini qo'lga olib, ichkariga qarab gapirdi:

"Hey bolalar, qarang, uyga mehmon keldi".

Ichkaridan birdaniga uch-to'rtta kishi otilib chiqdi. Kelib otning boshini, otligning uzangisini ushlab turdilar. Hasan otdan tushdi. Qariya uni oldiga solib, uy tomonga boshladi. Belidan chiqargan kaliti bilan taxtali, naqshdor bir eshikni ochdi. Uyning boshdan-oyog'i yumshoq o'rindiqlar bilan o'ralgan edi. Yerga ham qadimgi gilamlar to'shalgan, ranglari ko'zni qamashtirardi. Devori tepadan pastgacha naqshlar bilan o'yib ishlangan yong'oq daraxtidan yasalgan edi. Ochiq bir joyga esa Otaturkning rangli rasmi osilgan edi. Rasmda Otaturk o'ng oyog'ini oldinga chiqarib, qo'lida qamchi ushlab turardi. Orqasida esa to'riq otining boshi ko'rinib turardi. Bu rasmda Otaturkning ko'zlari ko'm-ko'k edi. Birozdan so'ng xonaga sarja matodan shalvar kiygan odamlar bilan to'lib ketdi. Kelganlarning har biri "Salom, xush kelibsan", - deb hurmat bildirganicha o'tirardi.

Qahvalar tortildi. Ilk qahvani unga berdilar. Hamma tizilib, odob saqlab o'tirardi. Hasan ham o'zini shunday tutib o'tirdi. Yonidagi odamlarga o'hshab finjonning orastalik bilan ushlab qahvasini ho'plab-ho'plab ichardi.

Uy sohibi Hasanga qarab o'zini tanishtirdi: "Ismim Murtazo. Murtazo Demirdeli. Seniki-chi?" «Б» dedi.

Hasan biroz qimtinib:

"Mening ismim Hasan, pastlikdagi Anavarza Cho'laklaridanman".

"U yerlarni bilaman", «Б» dedi Murtazo og'a "Halilning o'g'liman", - dedi Hasan.

"Tanirdim Xalilni, haqiqiy erkak edi sening otang. Uningday pahlavon yigit Chukurova tuprog'iga boshqa kelmaydi", - dedi Murtazo. "To'g'ri, boshqa kelmaydi", - dedilar atrofdagi hamqishoqlar ham. "Hammamiz tanirdik Xalil og'ani. Chukurovada hammamizga yordami tegardi. Mehmon suymas Chukurovada, yagona mehmonsevar odam edi Xalil".

Hasan yaxshi eslaydi. O'sha kuni shu qadar charchagan ediki, o'tirgan joyida mudrab o'tirardi. Bu yerda unga ilk marotaba bola deb emas, katta insondek munosabatda bo'lishdi. Shu munosabat tufayli, Hasan bir onda o'zgarib qoldi. Uyqusini qochirish uchun gapira boshladi. Nimalar haqida gapirdi, nimalarni tushuntirdi, hecham eslolmaydi. Otasi haqida gapirgan bo'lishi kerak. Otasining bir ilon, katta, chinqiroq ilon tusiga kirib yurganini gapirgan bo'lsa kerakki, atrofidagi odamlarning ko'zlarini katta-katta bo'lib ochilib ketganini eslaydi.

Kun botayotganda ovqat tortildi. Butun uyni qizdirilgan sariyog' hidi tutib ketdi. Ovqatlarning hammasidan - kartoshkali ovqatdan, bulg'or palovidan ham sariyog'ning mazasi kelar, non, qatiq, asaldan ham sariyog'ning hidi anqib turardi.

Ovqat hali tugamasdanoq Hasan dasturxonning boshida mung tushib qoldi. O'likdek qimirlamay uxlar edi.

Ertalab uyg'onganida kun hali chiqmagandi. Oppoq choyshablardan sovun va yovvoyi olmaning hidi kelardi. Derazadan esa yovvoyi gulning nordon hidi anqib turardi. Darrov o'rnidan turib, tashqaridagi chinor tomonga chopdi. Chinor tagidagi qaynab, ko'pirib turgan buloqda yuzini yuvdi.

Qoyalikning tagiga borib, yozilib oldi. Itlardan qo'rqmasaydi, archalarning ichida, mazza qilib bo'shanib olardi.

Ertalab unga hamma g'alati ko'z bilan qarayotganday tuyuldi. Qaytib kelganida o'rni yig'ilgan edi. O'rtada katta bir patnis, patnis ustida mistovoqda xamirli no'hat sho'rva bug'lanib turardi. Sho'rvadan yalpiz hidi kelardi. Yana pishloq, sariyog', asal ham bor edi. Hasanni dasturxonga taklif qildilar. U uyalganidan hech kimga qarolmay o'tirardi. Oldidagi mis tovoqni Murtazo og'a sho'rva bilan to'ldirdi.

"Bu kecha rohatlanib, yaxshi uhladingmi, mehmonim?" «Б» dedi. Yuzi qip-qizarib ketgan Hasan duduqlanib: "Ha, juda yaxshi uhladim", - dedi. "Hursandman, o'zingni uyingdagidek bemalol o'tir, Hasan ukam", - dedi Murtazo og'a.

Hasan mehr to'la ko'zlari bilan unga qaradi.

U qishloqda necha kun qoldi, Hasanning aniq esida yo'q.

Doim bir ilon quvlardi uni. Uhlayotganida ham, uyg'oq hoida ham katta chinqiroq ilon uni ta'qib qilardi. Qoyaliklarga, archa daraxtlarining tepasiga, yotgan xonasiga ham yo'l topib kirar edi. Hasan kechalari baqirib chiqardi.

Tog'alarining yoniga bormoqchi edi. Ularni qayerda, qaysi qishloqda yashashlarini bilmasdi... Faqatgina bir tog'asining ismini bilardi. Balki bu yerlarda uni tanishar. Lekin hech kimdan so'rab surishtirmasdi.

Birdan yuragi siqilib ketdi. Ichiga bir qorong'ulik, dard cho'kib qoldi. Onasiga bir gap bo'lgan bo'lsa-chi, o'ldirishgan yoki olib qochishgan bo'lsa-chi uni. Bir yerda turolmay qoldi. Qoyalikka karab ketdi. Uzoqdagi bir buloqni ko'rib qoldi.

Buloqning chetida binafsharang yalpizlar ochilib yotardi. Atrofni archa, yalpiz hidlari tutib ketgandi. O'sha yerga qarab chopdi. Bir qoyadan pastga dumalab ketdi. Qanday qilib u maxluqlarning orasida onasini yolg'iz qoldirib ketdi. Qanday qilib-a? O'zi bu yerda yeb-ichib, aylanib-kezib yuribdi-da, onasini esa jahannam o'chog'iga tashlab kelibdi. Endi nima qilsa ekan? O'ldirishgan onasini, aniq o'ldirishgan. Birdan chinor tagida to'htab qoldi. U yerda buloq qaynab chiqardi. Uzoqdagi qoyalarga burgutlar qo'nib, yana uchib ketishardi. Birdaniga kichrayib hovuchday bo'lib qoldi. Inson bunday kichiklashib, hashoratday bo'lib qolishi mumkinmi? Hasan shunday bo'lib qoldi. Kichik barmoqdek holga tushgandi. U nima ish qilib qo'yganini juda yaxshi bilardi. Ha,

amakilari onasini o'ldirishlari uchun uni tashlab qochgan edi.

"Ko'rmayin, ko'zim ko'rmasin... Onam o'lishi, o'ldirilishi kerak. O'ldirilishi lozim. U o'lmasa bo'lmaydi. Chukurovadagi hech kim bizning yuzimizga ham qaramaydi. Otam ham chinqiroq ilon bo'lib, Chukurovada kezib, jahannamda yonib kul bo'ladi. U o'lishi kerak. Onam o'lmog'i lozim. Esmaga o'lishi kerak. Esmaga o'ladi..."

Ochiq-oydin shunday o'ylardi. Qanday qabixlik. Inson ham o'z onasining o'limini xohlaydimi? Onasi otasini o'ldirgan bo'lsa-chi... O'ldirib otasining qonini yerda qoldirgan, shu tufayli otasi arvoqqa aylanib, qiyomatgacha har xil tusga kirib, do'zah azobini tortayotgan bo'lsa-chi... Shuning uchun u o'lishi kerak. Ha, ha, o'lishi kerak. Bo'lmasa buvisining Esmaga qanday dushmanligi borki... U o'g'lini qutqarishga qarakat qilyapti. O'g'lini arvoqlikdan qutqarmoqchi. Esmaga ham o'zi uchun shunday qilmas edimi? Men otamni qutqarmaymanmi?

Buloq boshiga o'tirib, yig'lay boshladi. Yig'lashdan ham dahshatliroq g'am chekar edi. Ichi alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Onasini o'ldirgan bo'lishsa-chi... Qalbida bir sevinch... So'ngra sevinch o'rnini g'am-g'ussa egallab, yuragiga dahshatli og'riq tushdi. Bir dard, bir quvonch to'lqinlanib turardi qalbida. Birortasining arvoqi, buvisi, bir onasi, amakilari... Yana bir Ali ismli amakisi bor edi. Hozir qayerda ekan, ajabo? U telba, insonlikdan chiqib ketgan odam edi. Balki onasini o'sha o'ldirgandir. Ko'z o'ngiga onasining jasadi kelardi. Vizillamay yurgan pashshalar... Qoni oqib yerda qotib qolgan... Qo'li bir tarafda, oyog'i bir tarafda. Yuzi barabanday shishib, ko'zlaridan sariq suv oqardi. Ko'zlarining ichida qora pashshalar to'planib yotardi.

Hech kimga xayr ham demasdan, otiga minib Chukurova yo'lga tushdi-da, uyiga uchguday tezlikda yetib keldi.

Nima bo'ldi, qachon keldi, qishloqqa qachon kirib keldi, qachon Ali amakisi yo'lini to'sib chiqdi, hech narsani eslolmaydi. Onasini ko'rdi, onasini. Loyga botgan edi. Onasi uni ko'rishi bilan baqirib quchoqlab oldi. Shuni eslaydi, xolos. Butun kiyimlari qonga bulg'angan. Yarasi og'ir emasdi. Ikki kundan keyin onasi gapirib berdi. Otining oyog'i singan ekan, onasi shunday dedi. Oyog'i singan bo'lsa, unga bundan ham yaxshiroq, kuchliroq ot olib berishini aytdi. Otasining puli ko'p edi. Onasini o'zining ham puli ko'p edi.

Hasan isitmadan yonib yotardi. Birozdan keyin tuzalib qoldi. Qishloqqa chiqishga qo'rqqan, ertalabdan kechgacha uyda o'tirardi. Hasan qishloqqa chiqish u yoqda tursin, eshikdan boshini chiqarishga ham qo'rqardi.

U kasal bo'lib yotar ekan, bu orada uni ko'rgani na buvisi, na amakilari keldi, qishloqdan ham uni yo'qlab hech kim kelmadi.

Qishloqqa har xil gap-so'zlar tarqaldi, lekin onasi bu gaplarni Hasanga aytmadi. Onasi aytmadiyu, ammo bu g'iybatlar qandaydir yo'l bilan uning qulog'iga yetib keldi. Qanday qilib, axir?

Bir kecha Hasanni otasi otiga mindirib tog'larga olib qochganmish. Uni bo'g'izlab, ko'zlarini o'yib olibdi.

Otasi uni bo'g'izlay turib, shunday gaplarni gapiribdi: "Hasan, baxti qaro Hasan kim otasining xunini olmay arvoqqa aylantirib, do'zah azobida yondirib qo'yibdi? Sen ham odammisan. Sen o'lishing kerak. Xor bo'lib, hayvondek yashayotganing, otang qotili qo'lidan non yeb kun kechirayotganing uchun o'lishing lozim, Hasan."

Oradan bir qancha oylar o'tsa hamki, qishloq hanuz shu haqda gapirardi. Bir kuni Hasan tashqariga otilib chiqib, buvisining, amakilarining uyiga ketdi.

Telbalarday o'zini yo'qotib, tinmay baqirardi. "Men ketgandim, men qochgandim, qochgan edim bu la'nati joydan. Siz tufayli ketgandim. Na otamni ko'rdim, na boshqa narsani... yolg'on, yolg'on, hammangiz yolg'on gapiryapsizlar, yolg'on". Kechgacha kimni ko'rsa yo'lini to'sib, yolg'on gapirayotganliklarini aytib baqirardi. Hamqishloqlari unga telbaga qaraganday befarq qarab o'tishardi.

Safar ismli qariyaning yo'lini to'sib, yuziga baqirib tashlaganida, qariya tinmay duolar o'qib unga puf-pufladi: "Voy bechora, otasining arvoqi buni chalib ketibdi". Hasan bu gaplarni eshitib, yuzini qo'llari bilan berkitganicha uyiga chopdi va o'zini divanga otib, o'likday qimirlamay yotib qoldi.

Onasi unga yaqinlasha olmas, nima bo'lganini ham so'rolmas edi.

Bu voqeadan so'ng Hasan uyida o'tirolmadi. Ichidagi qandaydir bir tuyg'u uni doim qishloq ichiga boshlayverardi. Hamqishloqlari xoh yolg'iz, xoh ko'pchilik bo'lib unga duch kelsalar, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, unga gapirmay o'tmas edilar. Yo orqasidan yoki tap tortmay yuziga...

"Xuni olinmagan arvoqlar, o'g'illari bittagina bo'lsa ham chalib ketadilar..."

"Arvoqlar, arvoqlikdan qutilish uchun har narsaga tayyor".

"Olloh hech kimni arvoqday sarson qilmasin, hech kimning boshiga solmasin bunday kunni".

"Arvoqlik azobdir".

"Qoni yerda qolgan arvoq - haqiqiy arvoq".

"Agar endi Esmaga o'z ajali bilan o'lsa, Halil qiyomatgacha arvoq bo'lib sudralib, ham bu dunyoning, ham Ollohning jahannamida azob tortadi".

"Inshooloh, o'z ajali bilan o'lmaydi, essiz Halil"...

"Olloh bunday o'g'ilning o'rniga qora tosh bersa bo'lmasmidi".

"Onasini o'ldirish oson ishmi? Inson onasini ko'zi qiymaydi, onaning hidiga to'yib bo'lmaydi". "Hasan hali ham yosh bola, katta bo'lsaydi, voyaga yetsaydi, onasi bo'lsa ham Esmaga bir kun ham yashatmasmidi?"

"Onani o'ldirish qiyin".

"Pahlavon yigit ham onasini o'ldirolmaydi".

"Onasini o'ldirish uchun insonning qahri qattiq bo'lishi kerak".

"Zalo'g'li Rustam kabi bo'lishi kerak".

"Go'ro'g'liday bo'lishi kerak".

"Mustafo Kamolday, Gizik Duranday bo'lishi kerak".

"Faqatgina qora ilon kabilar onalarini o'ldirishlari mumkin. Qora ilon kabilar".

"Bechora; kichkina bir bola bo'lsa, qanday, qanday qilib o'ldirsiz onasini".

"Har qanday erkak ham onasiga qo'l ko'tara olmaydi". "Ko'ta-raolarmi?"

"Onani ham o'ldirib bo'larkanmi?"

"Yo'g'e, sen ham... Bu bir eskilik sarqiti. Bolani aldab, onasini o'ldirtirmoqchilar, bechora o'g'longa".

"U aqlli ekan, onasini o'ldirmayapti".

"Holi-joniga qo'yishmayapti-da".

"Yashasin, Hasan, onasini o'ldirmayapti".

"O'g'longa qara, o'g'longa. Onasini himoya qilyapti. Temirday baquvvat chiqdi, o'g'lon".

"Yo'q otasi... yo'q, Halil arvoth bo'lib..."

"Borsin ana, arvoth bo'lib yuraversin".

"Bularning hammasi arvothga aylanadi. Shu qadar ko'p odam o'ldirganlarki. Hech biri mozorida tinch yotolmaydi".

"Yo'q, qoni yerda qoldi-da... Yo'q..."

"Hech ham qoni yerda qolmadi-da, Abbosni o'ldirdilar-ku..."

"Esmani ham o'ldiradilar".

"Buni ustiga o'z o'g'lib" Hasanga".

Birchidaida, iyusichidaydi..."

"Yosh bola-ku!".

"Og'zidan kirib, burnidan chiqarlar".

"Esmani o'ldiradilar".

"Xotinlarni bolalarga o'ldirtiradilar".

"Onasini Hasan o'ldiradi".

Hasan tush uchida yashayotganday edi. O'zini jinnilikka solib yurardi. Har kuni, har kuni shunday gaplarni eshitish uchun ko'chaga chiqardi. Agar bir kun yo otasidan yo onasidan so'z ochilmasa, qalbidagi bo'shliq uni aqldan ozdiray derdi. Ko'nikib qolgandi. Bu gaplar uning yashash tarziga aylangandi. Bularsiz o'zini tasavvur qilolmasdi. Onasidan, otasi haqida kim to'htamay gapirishini ham bilib olgan va doim o'shalarining yoniga borib olardi. Otasining arvothligini, onasining fohishaligini, telbaligini, otasining xuni olinmaganini va u haqidagi ming bir ertakni jimgina turib eshitardi. Halil haqidagi hikoyalarning yangisi tamom bo'lsa, bu safar o'zi uydirib, to'qirdi. O'z gapiga o'zi ham ishonardi. Tushmi, haqiqatmi? Tush bilan hayotni bir-biridan ajratolmay qolgandi. Arvoth - otasini, dunyo go'zali - onasini ham tush dunyosiga olib kirgandi. Qishloqliklar ham Hasanning holatiga tushishgan, ular ham to'htamay xar xil gaplarni to'qishardi. Yolg'on to'qishar va birozdan so'ng o'z yolg'onlariga o'zlari ham haqiqat deb ishonishardi. Bu uydirmalarga Esma ham ishona boshladi. Endi o'g'lini bersalar ham, o'g'lini berib, ket desalar ham ketolmas edi. Voy, Esma. Bo'lganicha bo'lgandi Esmaning. Hasan, qishloq, buvisi, Esma" hammalari sehrlanganday edilar, go'yo.

Eshiklarning tepasida to'da-to'da qaldirg'ochlar to'planib turardi. Chukurovadagi qaldirg'och inlarini uylarning ichiga qurardilar. Har bir uyda, og'ilxonalarda, somonxonalarda bir emas, bir qancha qaldirg'och uyalari bo'lardi. Qaldirg'ochlar har yili qaytib kelganlarida o'z uylarini ta'mirlardilar yoki loydan yangi uyalar qurardilar. Inlarida tuxum bosib, jo'jalar ochirib chiqarardilar. Qaldirg'och uylarini buzib, qo'llari singan odamlar qishloqda anchagina edi. Shu tufayli qaltiroq kasaliga duchor bo'lgandilar. Ko'chaga chiqqanlarida ham qo'l-oyoqlari, butun a'zoyi badanlari qaltirib turardi.

Yerlarda qaldirg'och uyalari ezilib, polaponlari bejon bo'lib yotardi. Nozik patlari yulini, ezilganidan yerga yopishib qolgan, katta sariq og'izlari qiyomat qo'pganday qo'rquvdan ochilib yotardi. G'azablangan, aqldan ozgan qandaydir bir qo'l tepalardagi, ustunlardagi uylarni har tomonga uloqtirar, inlardagi polaponlarni ham bir bu tarafga, bir u tarafga irg'itardi.

So'ngra boshqa uyalar ilinjida uylar, og'ilxona va somonxonalar tomonga chop boshlardi...

Tongda, kun chiqishi bilan butun qishloq qo'rquvdan zir titrardi. Kim bu uylarni yer bilan yakson qilganini hamma yaxshi bilardi. Qaldirg'ochlar qishloq ko'chalarini to'ldirib, eshiklarning tepasida vijirlashib, xavotirlanib, dardli-dardli chiyillab uchmoqda edilar. Yerda tipirchilab, tuproqqa belanib yotgan bolalarining ustigacha pastlanib, qo'llaridan hech narsa kelmagandan so'ng yana havoga ko'tarilishar va yerdagi polaponlarining ustida halqalar yasab to'htamay uchishardi...

Odamlar qarab turmay darrov inlarni o'z joyiga o'rmashtira boshladilar, lekin afsuski, qaldirg'och bolalarining yarmidan ko'pi o'lib bo'lgandi.

Bir haftami, o'n kundan so'ng, ertalab uyqudan uyg'ongan odamlar ta'mirlanib, o'z joyiga o'rmashtirilgan uylarni yana yer bilan yakson bo'lganining guvohi bo'ldilar. Yana qaldirg'ochlar to'da-to'da bo'lib uylarning eshiklari tepasida ucha boshladilar. Yana yerda tuproqqa belanib, tipirchilayotgan polaponlar katta sariq og'izlarini ochganicha jon berardi. Yana odamlar ertalabdan kechgacha jon kuydirib, yarmi o'lgan, yarmi esa tirik polaponlarni o'z inlariga joylashtirdilar. Qaldirg'ochlar esa yana katta kuch bilan uylarini ta'mirlar, ba'zilar yangidan qurardi. Hali senmisan uylarni ta'mirlab tuzatayotgan, degan ovoz yana bir kecha... Natijada, hamma qaldirg'och bolalari o'lgan edi. Hamqishloqlar ortiq uylarni o'z joyiga o'rnatish befoyda ekanini tushunib yetdilar. Qaldirg'ochlar esa bir necha kun uylarning tepasida to'dalashib uchdilar. Umidlari butunlay uzilgan bo'lsa kerak-ki, bundan so'ng qishloqda bir dona ham qaldirg'och ko'rinmadi. Qaldirg'ochlarni kim bu ko'yga tushirganini hamma yaxshi bilardi-yu, lekin hech kim bir-biriga churq etmasdi.

Qishloqqa motamsarolik, xosiyatsizlik cho'kib qolgandi. Qaldirg'ochlar shu Anavarza xarobalarining burchaklariga, yopiq joylarga, kamarlarning tagiga yuz yillardan beri o'z uylarini qurib kelardilar. Tongda bir cho'pon rangi bir holatda bo'lib qishloqqa nohush xabar olib keldi. Anavarza xarobalarida qancha qush bo'lsa, hammasi yer bilan bitta bo'lib yotar, yerdagi qushlarni ilonlar yeyayotgandi. Qoyaliklarda qancha ilon bo'lsa, har biri og'ziga bittadan qaldirg'och bolasini solib olgan, ularni tinmay utayotgandi.

"Ko'rdim", derdi cho'pon bola. "Ikki ko'zim oqib tushsin, agar yolg'on gapirayotgan bo'lsam"... So'ngra burgutlarni qira boshladi, u vahshiy. Qoya burgut bolalarining o'liklari, buzilgan uylariga to'lib ketgandi. Qoyalikning omon qolgan burgutlari osmonga ko'tarilib, xarobalarning ustida g'azab bilan aylanardilar. Qoyalikda to'htamay o'q otildilar.

O'n xirmon qadar kattalikda bir olov halqasi... Butun atrof yonardi. Olov halqasining o'rtasiga burgut o'liklari tushardi... yana qaldirg'och o'liklari ham. Qoyalar yonmoqda edi... Qiy-chuv... Butun hayvonlar, qushlar, ilonlar, tulkilar qiychuv qilib yong'indan qochardilar. O'tlar, daraxtlar, uylar yonardi.

Hammayoq yonib kul bo'ldi. Miltiqlarni o'qlaydigan pij gaz bilan ho'llanib, buvisining uyiga otildi. Yana bittasini derazadan ichkariga otdilar. Avvaliga dasturxon, so'ngra eshik yona boshladi. Yong'in darrov ustunlarga ham o'tib ketdi. Kuchli shamol esardi. Bir onda butun uyni olov qurshab oldi. Uydan og'ilxonaga, somonxona va omborga, so'ngra Hasanlarning uyigacha yona boshladi. Esma o'rnidan turib, tezda kiyindi. Hasan hech uyg'onmas edi. Onasi uni to'shagi bilan birga ko'tarib, hovli o'rtasidagi daraxtning tagiga yotqizdi. Hasan qisq ko'zlari orasidan yonayotgan ustunga qarab turardi. Onasining yolg'iz o'zi uylaridan kattakon sandiqni sudrab, tapirlatib zinadan pastga olib tushardi. Sandiqni sudray-sudray olib keldi-da, Hasanning yoniga qo'ydi. Baqirib: "Hasan ko'zingni och, uyg'on",.- dedi. "Ko'zingni och, Hasan, bor-yo'g'imiz shu sandiqning ichida. Ko'z-quloq bo'linga..."

Atrof xuddi kunduziday yorishib ketgandi, hovli kalta ishton, oq ko'ylak kiygan yarim yalang'och qishloqliklar bidan to'lib ketgan. Qo'shnilarning biri kelib, biri ketardi. Butun uy yonar, ba'zi joylari gumburlab bosib qolardi. Yonayotgan somonxonadan otning kishnashlari, sigirning ma'rashlari eshitalardi. Telbalarday esayotgan shamol, parcha-parcha cho'g'larni qishloq tomonga uchirib ketardi. Yong'in pastdagi uylarning bir-ikkitasiga ham o'tib, bir zumda yonib kul bo'ldi. Katta uy haligacha yonardi. Bir qancha kishilar yonayotgan uyga chelaklab suv separdilar. Uyning suv sepilgan yerlari undan battarroq olovlanib ketardi.

Hasan uyg'onolmay, shu holatda ertalabgacha uhladi.

Onasi yoniga kelib-ketar va "uhla Hasanim, uhlayver" derdi. "Hech kim hech narsani sezgani ham yo'q. Juda boplading bu kofirlarni. Baraka topgin. Sen uhla, uhlayver..."

Oxiri Hasan chidolmay o'rnidan otilib turib, onasining og'zini berkitdi.

"Jiming, jim bo'ling", - dedi. "Hozir bildirib qo'yasiz. Meni o'ldiradilar. Jim bo'ling!"

Yana darrov o'rniga yotib, uyquga ketdi.

Ertalab hech narsa bo'lmaganday uyg'ondi. Yuz-qo'lini yuvdi. Charchab-horigan odamlar u yer-bu yerga o'tib turishardi. Buvisi qarshidagi hovli devorining tagida mum tushganicha o'tirardi. Onasi haligacha yongan uyidan chala kuygan narsalarni tortqilab chiqayotgandi. Boshini tepaga ko'targanida qo'ndog'i sadafli miltig'ining novdada osilib turganini ko'rdi. Yong'in chiqqanida miltig'ini uyning ichida unutib qoldirgandi.

Tongda yongan uylarning o'rnidan tutun buruqsib turar, atrofni kuygan jun, yog', kuygan go'sht hidi tutib ketgandi. Kuygan yog' hidi kishining dimog'igacha kirib, ko'ngilni behuzur qilardi.

Hasan bu tong, boshqa tonglarga karaganda, juda hursand edi.

Bir nechta kishilar kelib, onasiniyeg yong'indan asrab qolgan narsalarini, hovli devorining orqasidagi katta majnuntol tagidagi uyga tashiy boshladilar. Bu uyning yonidagi ikki qavatli guvalak devorli uyga buvisi ko'chib o'tdi. Yana uylari yonma-yon, qo'shni bo'lib qoldilar.

Qishloqda ancha vaqt yong'inni kim sodir kilgani haqida tortishdilar. Hamma bir-birini ayblar edi. Hamma bir ovozdan Kizirning uch o'g'lini yong'inning sababchilari deya jandarmaga topshirib, qamatib yubordilar. Onalari, xotinlari ularni erta-kech yig'lab qarg'ay boshladilar.

Uylarni yoqishda shubha qilingan Qora Usmon to'rt joyidan pichoqlangan holatda pastdagi tuya o'rasidan topildi.

Butun qishloq bir yoqadan bosh chiqarib, bir necha kunda uylarni maydalangan g'ishtlardan tozaladilar va tog'lik ustalarni olib kelib, yangi uy qurilishini boshlab yubordilar.

Hasan ertadan kechgacha qamishzorda ov ovlar, Anavarza xarobalarida, bir qoyaning ustiga o'tirib o'y surardi. Tog'u-toshdan esa kiyik o'tining hidi anqib turardi.

* * *

"Otangni ko'rdim... Hasanim... otangni ko'rdim. Oy nurlarini sochar, xuddi kun chiqqanday edi. Sariq bir it tilini bir qarich chiqqanicha orqamdan kelardi. Ora-sirada it ketiga o'tirib boshini tepaga ko'targanicha oyga karab uvillardi. Alikesik tepaligiga kelishim bilan yuragimga qo'rquv tushdi. Qarab tursam sariq it bir odam, bir it qiyofasiga kirib-chiqib turardi. Bir qaragam, qarshimda oq kafanga o'rangan odam turar bir ozdan so'ng yana itga aylanib oyga qarab uvillayapti. Yana bir qaragam odam ham it ham yo'q bo'lib, qarshimda o'zidan qizil nur chiqarayotgan qirmizi ilon paydo bo'ldi. Qoyalar, yo'llar, ekinlar, dalalar, qamishzorlar, tunning o'rtasida qip-qizil rangga kirdilar. Anavarza qoyaligidan, hamma yerni bosib ketguday bo'lib, shaldir-shuldirlab qon seli oqardi. Birdan yer silkindi. Qaragam oq kafanga o'rangan, yuzi sarg'ayib ketgan Halil qarshimda turibdi. Qo'llarimga osilib, menga quloq sol, Mulla Husayn, dedi. Meni tingla qardoshim. Birodarim, gaplarimni yaxshilab eshit, ahvolim juda yomon. Jahannamda qurbon bo'lsam ham mayli edi... Uch kun avval bir odamning eshagi edim. O'tgan kuni cho'chqa bo'lib, shu tog'larda yurdim. Bir oy oldin dushmanim bo'lmish Abbosning onasiga it bo'ldim. So'ng chigirtkaga aylandim. Men chigirtkani yoqib yubordilar. Chigirtka bo'lganim uchun sakrab-sakrab qutulib qoldim..."

Hasan yuzini qo'llari bilan yopib oldi.

* * *

Ali keddi. Majnuntol daraxtishshg tagiga borib: "Kel, Hasan", - dedi.

Hasan chopib uning yoniga bordi.

"Xush kelibsiz, Ali amaki. Qayerga qochib ketgandingiz, sizni rosa qidirdim", - dedi.

"Ha qochgandim", - dedi Ali. "Yana qochib ketaman, jiyani, men qochmayin, kimlar qochsin. Balki qiyomatgacha qochib yurarman".

"Kimdan?" "B" deb so'radi Hasan. "Siz kimdan qochib yuribsiz?"

"Men qochishim kerak. Doim qochib yuraman. Sen ham qochib ketasan. Qanday qilamiz, peshonamizga bitilgani shu ekan", - dedi Ali.

"Ha, peshonamizga yozilgani shunday ekan", "B" dedi Hasan boshini egib.

"Qani ketdik, shu tepalikka", - dedi Ali.

"Hozir, miltig'imni olvolay", - dedi Hasan.

Anavarza qoyaliklari tomon yo'l oldilar. Zinalardan chiqib, qal'a devorining tagiga bordilar. Ro'paradagi yo'ldan yuk mashinalari, avtomobillar, avtobuslar, kombayn mashinalari, ot-aravalar o'tib turardi. Yaylov bo'ylab chang-to'zon ko'tarildi-da, tezlik bilan sharqqa qarab uchib ketdi. Bir qoyaning ustiga cho'kka tushdilar.

Ali uzun bo'yli, yoshgina edi. Ammo bo'ynilari burishib ketgan. Burni uzun, yuzi jiddiy va serjahl ko'rinardi. Ora-sira yuzidan jahldorlik o'rnini yig'lamsirashga o'hshash bir holat bosardi. "Charchadim", - dedi Ali. "Menga maslahat ber, bu darddan meni qutqargin, Hasan. Dardimning darmoni, yaramning malhami o'zingsan, pahlavonim. Mana ol, bu to'pponchani senga olib keldim.

Bu Bulg'or beklarining filning suyagidan yasalgan, sadaf toshli to'pponchasi. Bu otangning to'pponchasi. O'lganidan beri meni orqamdan quvlaydi otang. U o'ldirilgan kecha o'girilib orqamga qaragam, Halil uzun bir soya bo'lib turibdi. Terakdek uzun bo'yli oppoq soyaga aylanib turibdi. Og'zi, burni, quloqlari, hamma yeri Halilning o'zginasi... Ammo soyaga aylanib qolibdi. Gapir Halil, dedim. Ustimga egilib, Ali, ukam Ali, dedi. Gaplarimga quloq sol, qonimni yerda qoldirma. Eng mard ukam sensan, o'g'lim hali kichkina. Meni o'ldirganni, o'ldirtirganni ham o'ldir, sen o'ldir. Bu dunyoda arvoq qilib qo'yma meni, dedi. Onang esa juda sohibjamol edi. Buyuk Ollohimiz tirishib harakat qilib onangni yaratgan. Men uni o'ldirolmadim. Qo'lim bormadi. Otang yerga

kirgan kuni, uning to'pponchasini qo'limga olib, onang yoniga bordim. U menga qarab turdi-da, "o'ldir meni", dedi. "O'ldir, lekin o'g'lim meni amakisi o'ldirganini bilmasin. Chunki sizning zotingizga dushman bo'lib qoladi. Bilaman, meni yashatmaysizlar, tezroq o'ldiring, men ham qutulay". Boshini yerga egib, qani ot, dedi. Qo'lim titradi. Ota olmasdim. Onang Ollohning yuz yilda, ming yilda bir yaratadigan go'zali, uni o'ldirolmasdim. Men seni o'ldirolmayman, singlim, dedim. Bu yerlardan boshimni olib ketaman, seni kim o'ldirsa o'ldirsin, lekin men o'ldirolmayman, sen kabi Olloh go'zaliga qo'l ko'tarolmayman. Yo'lga tushdim. Orqamga qarasam, bo'yi cho'zilib ketgan Halil oq kafani bilan boladay yig'lab turibdi. Qo'limdan kelmaydi Halil, qilolmayman, dedim. Boshqasi, boshqa birov bo'lganida edi. Seni arvohlikdan qutqarish uchun hatto onamni ham o'ldirardim, ammo Esmani o'ldirolmayman. O'ldirolmayman, Halil. O'rnimda o'zing bo'lsang ham o'ldirolmasding. Inson zoti o'ldirolmaydi, Esmani. O'ldirolmaydi. Halil yerga cho'zilib, ingray boshladi. Shu qadar ingradiki, uning titrashi va nolasidan yer ham zir-zir titrardi... O'ldir, o'ldir-da meni qutqar, deya yolvorardi. Hech kim o'ldirolmasa ham sen o'ldir uni. Uni ko'rgan odam oshiq bo'lib qoladi, men kabi savdoyi bo'lib qoladi va hech kim o'ldirolmaydi. Sen sevib qolsang ham o'ldir uni. Bu dunyoda holim yomon, juda yomon, deb zorlandi Halil..." Halil kecha-kunduz demay, doim Alining ketidan qolmasdi. Ali Mersinga qochib ketdi. U yerda ham ne ko'rsinki, bo'yni bukik Halil uning qarshisida, ko'zlarining ichiga termulib turibdi. O'ldir uni, o'ldir Ali, derdi. Mozorimning ichi ilon, chayon, qurt-qumursqa, chuvalchanglar bilan to'ldi, meni yeb yotibdilar. Qutqar meni Ali. Xunim olinmaguncha qiyomatga qadar ilon, chayonlarga yem bo'laman. Qiyomat kunigacha meni yeb tugatadilar, tushunyapsanmi? O'ldir uni, o'ldir Ali, ortiq chidolmayman. Kemiryaptilar meni. O'g'lim hali yosh bola, hali kichkinagina. Buning ustiga onasi dunyo go'zali bo'lsa... Ali men hali ham unga oshiqman, u meni o'ldirtirgan bo'lsa ham, Ali...

Istambulga qochadi. Istanbulda ham Halil uning ketida. To'htash nimaligini bilmaydi. Qayerga bormasin Halil uning ortida, yolvorib turadi...

"Uch marta keldim, qasam ichib, ont ichib, Esmani o'ldirmoqchi bo'ldim. Uch safarida ham o'ldir meni, o'ldir-da qutulayin, Ali, dedi. Uch martasida ham qo'lim bormadi. Qilolmadim bu ishni. Endi sen ol bu to'pponchani. Endi sen ham o'lg'ayib, erkak bo'lding. Otangning xunini olish, bundan buyon sening bo'yingda..."

Shundan so'ng to'htamay Esmaning go'zalligini maqtay ketdi. Oxiri yana bir marotaba, inson zotining Esmani o'ldirishga ko'zi qiymasligini aytdi va qoyaliklardan pastga qarab yurib ketdi. Hasanga xayr ham demadi.

* * *

Dursun: "Onang dunyoda tengi yo'q soxibjamol, u dunyo go'zalidir, shaytonning gapiga kirma, xo'pmi?" "B" dedi. Bir dengizga aylangandi tekislik. Pastlikda "B" qal'aning tagida bir dengiz ko'rinar edi. Katta, pishqirayotgan dengiz. Yonida onasi ham bor edi. Yana bir qancha qayiqlar ham bor edi. Onasi bilan birga qayiqda ketayotgandilar. Qayiq to'g'ri o'rmon tomonga ketardi. Keyin qayiq oldidan Xamita qoyaliklari chiqardi. Qayiq keskin tumshug'i bilan qoyaliklarni yorib kirar, qo'ng'ir qoyaliklardan ko'piklar vishillab chiqardi.

"To'htang", deya baqirdi Ali. "Ikkalovingizni bir joyda o'ldirmoqchi edim. Yaxshiki, ikkingiz ham bir yerdasiz."

Qayiq keskin tumshug'i bilan qoyalarni yorib kirar, qoyaliklar ko'pirib, toshlar osmondan ustlariga yomg'irday to'kilardi. Ali otasining to'pponchasini olib, ularni nishonga olar, Hasanga qarata o'qtalardi. Hasan qo'rqqanidan dumalab qolardi...

"Hali tosh yog'adi bu Chukurovaning ustiga... Bir bechora Halilning, pahlavonning, ham o'g'li, ham onasi, ukalari bor bo'la turib, xuni olinmaydimi?"

Halil yarasini ikki qo'li bilan ushlaganicha qamishliklar orasiga kirib ketardi. Uchli, qirrali qamishzor, qamishlar Halilning qo'llariga, oyoqlari va ko'ksiga sanchilardi. Halil baqirib chopib ketardi. Ko'zlari chiqib ketguday bo'lib, meni qutqaring, qutqaring meni... Yura-yura botqoqlikka tushib ketardi. Botqoq gonga to'ladi. Botqoqlik biqirlar, har yeridan qon pishqirib chiqardi.

Halilning boshi botqoqqa kirib chiqayotgandi. "Chukurovaning ustidan ilonlar yog'iladi. Olovlar yog'iladi. Chigirtkalar, chuvalchanglar, qurbaqalar, qurt-qumursqalar yog'ilajak. Adanaga sel, Jayxonga uyat yog'ilajak.

Missis ilon, Tarsus botqoq bo'lib ketadi... Anavarza yonib xarob bo'ladi. Anavarzada kim qolsa ham, nima qolsa ham pashsha, chumoli bo'lib ketadi..."

Hasan ham Halilni ochiq-oydin ko'rdi. Otasi turgan joyda qornini ushlab-ushlab kulardi. Unga tepadan g'alati qilib qarardi.

"Shu ham insonmi, insonmi?" "B" degan gaplar qulog'iga chalinardi.

Buvisi to'shakda yotardi. Yuzlari so'lib, ko'zlarining osti ko'm-ko'k bo'lib qolgan, qo'llari ham ko'karib ketgandi.

"O'lyapman-ku Hasan, o'lmasligim kerak. Agar men o'lib ketsam, kim o'g'limning xunini oladi. Hech biringiz odam bo'lib chiqmadingiz. Anovi Ali borku - Ali amaking, o'sha onangga - akasining qotiliga uylanmoqchi ekan. Uning ishqidan telba bo'lib, tog'u toshlarga ketgan. O'zing ayt, men qanday qilib o'lib ketaman, Hasanim. Inson o'z akasining qotiliga ham oshiq bo'lib qoladimi? Bilaman, u juda go'zal. Inson zoti unga yomonlik qilishga botinolmaydi. Uni ko'rganning qo'llari qurolga bormaydi. Uni o'ldirish uchun butun boyligimni berdim, lekin hech kim o'ldirolmayapti. Onangni ko'rishlari bilan sehrlanib qoladilar, Hasanim..." Hattoki bolalar ham o'ldirolmadilar Esmani. Tog'larda Hoji ismli bir qaroqchi bor. O'zi Jankizan qishlog'idan bo'ladi. Hoji qaroqchining yetti o'g'li bor. Yettovi ham yosh bola. Sakkiz, to'qiz, o'n, o'n besh yoshlarda. O'n sakkiz yoshgacha... Hech birisi jazoga tortilmaydi. Hoji qaroqchi bolalari hali aqlini tanir-tanimas qo'llariga to'pponcha beradi. Uzun soqolli eski qaroqchilar ichida katta bo'lganlar. Bolalar bir necha yildan so'ng turaning ko'zini, qochayotgan quyoning orqa oyog'ini poylab nishonga oladigan bo'ladi. Bolalar nishonga aniq uradigan bo'lganlaridan keyin, boshqasini gapirmasa ham bo'ladi.

Hoji qaroqchi juda boy... Bolalari odam o'ldirish bilan shug'ullanadilar. Dushmani bor odam, Hoji qaroqchining oldiga kelib, hey Hoji qaroqchi, shunday bir dushmanim bor. Bir o'g'lingni bersang, dushmanimni o'ldirsa. Xohishingni ayt, deydi. Yuz ming, deydi Hoji qaroqchi. Bir qurush ham pastga tushmayman. Bu hayot-mamot masalasidir. Buning ustiga hozir bolalarni ham qamab yuborishyapti. Bir odamning hayoti pul bilan o'lchanadimi. Bir odamning qadr-qimmati dunyoning moli bilan o'lchanmaydi axir, o'lchanmaydi. Lekin biz kabilarning ko'zi ko'r bo'lsinki, ishimiz faqat odam o'ldirishdir. Afsuski shunday. Shuning uchun yuz ming berasan. Buvisi ham Hoji qaroqchining o'g'liga yuz ming berishga rozi bo'libdi. Hoji qaroqchining o'g'li mushtdekkina bir bola bo'lsa ham, to'pponchani buvisiga qaytarib, Esmani ko'rishim bilan oyoq-qo'lim qotib qoldi, chiroyi ko'zimni qamashtirdi. Men uni o'ldirolmayman. Xohlasangiz Esmaning o'g'li - Hasanni o'ldirib berishim mumkin, ammo Esmaning o'zini o'ldirolmayman, debdi. Odam o'ldirish bilan shug'ullanadigan, pul uchun odam o'ldaradigan qancha odam bor bu tog'larda. Ataylab shunday bolalarni tarbiyalab, yetishtirib chiqaradilar. Pul uchun xohlagan kishingni o'ldirib beradilar, lekin Esmani o'ldiradigan odam yo'q.

"Sen ham o'ldirolmaysan Hasanim. Go'zal onangni sening ko'zing qiymaydi. Borib bir ablahning qo'yniga kiradi u, Hasan. Mening o'g'lim ham tengi yo'q, kelishgan yigit edi. O'g'limning to'shagiga bir yomonni yotqizadi. Shundan keyin men o'lmay, kimlar o'lsin.

O'ldirma uni, onangni o'ldirma, Hasan. Uni hech kim o'ldirolmayapti. Uni ko'rgan odam oshiq bo'lyapti. Sen ham o'ldirolmaysan, o'ldirmagin Hasanim. Ana borsin, chayonlar kirsin, o'g'limning gul yotog'iga. Men o'g'limni o'pishga ham qizg'anardim, ana qizil qonga beladilar. Men nima qilay, arslonim? O'g'limning qotili ko'z o'ngimda sollarib yuribdi. Kiyinib, yasanib-tusanib yuribdi".

* * *

Dahshatli bir shamol esardi. Daraxtlarni ildizi bilan qo'poradigan, xirmonlar, o'tlarni uchirib, yo'llarni changitadigan, qoyalarni tebratadigan shamol... Ko'ksilarini quturgan shamolga berib, osmonda burgutlar uchishardi...

Bir xirmon bo'lib gulxan yonardi. Avvaliga olov xalqasi kattalashdi. So'ngra o'nta odam bo'yi barobar olov Hasanni o'rab oldi. Olov borgan sari kichiklashardi. Hasan hech bir yerga ketolmas, hech bir yerga qarolmasdi. Olov halqasi kichiklashgani sari, Hasan bo'g'ilib borardi.

"Uch kundani beri tuz totmading, bolam. "O'g'lim, ovqat yemasang..."

Hasanning peshonasini no'hotday-no'hotday ter bosardi. U narigi tomonga o'girilib olgan, Esmaga hech qaray olmasdi. "Hasan, agar odam uch kun ovqat yemasa..."

Hasanning yuzi qizarib ketdi.

"O'lmoqchimisiz?"

Ha, Hasan o'lishni xohlardi. Qani endi o'la olsa. Hasan hech kimning yuziga qarolmasdi. Qishloqda Hasanni kim ko'rsa, yuzini teskari o'girib ketardi. Amakilari, hattoki, qishloqning itlari ham u bilan gaplashmas edi.

Uylarni yoqqan kim? Hasan! Butun qishloq bir ovozdan shunday gapirardi.

Otasining qonini yerda qoldirib, arvo'ha aylantirib qo'ygan insondan xayrli ish kelarmidi. Uylarni ham yoqadi, insonlarni ham, o'zini ham.

Qaldirg'och uylarini buzib, ularni o'ldirgan kim? Hasan!

Otasining qonini yerda qoldirgan insondan yaxshilik chiqadimi, qaldirg'ochlarni ham o'ldiradi, begunoh bolalarni, laylaklarni, insonlarni ham...

"Bo'yi chirigurga qarang, bo'yi chirigurga. O'zini odam deb hisoblab, qishloq ichida odamlarday gerdayib yurishini qarang!"

"Ilonga o'hshaydi, ilonga!"

"Ahmoqning o'zginasi, ahmoqning".

"O'zini birovga kerakday hisoblab..."

"Qochadi-da albatta, qochadi".

"Burnini osmondaligani-chi, juvonmargning".

"Xuddi otasining qotilini o'ldirgandek".

Qishloqqa chiqib aylanib yurar, yo'l-yo'lakay anjirlarni uzib ketardi. Paluch deb ataluvchi anjirlarning nozik tikanlari qo'llarida. Qishloq ichidan chiqib ketolmasdi. Necha yil, necha oy, necha kunlardan beri otasi haqida gapirib yuruvchilar endi bu haqda og'iz ham ochishmasdi.

Uning arvo'hligi va doim qishloq ichida kezib yurishi... unutilgandek edi... Gapirishga galirilardi-ku, lekin Hasanning yonida churq etishmasdi. Hasan bu holning tagiga yetolmay garang edi. Ajabo, shu kunlarda nima haqida gapirishayotgan ekan-a? Hasanni ko'rishlari bilan hamma joy-joyida jim bo'lib qolar edi.

Nima bo'ldi-yu, bir kun bir bola og'zidan ilinib qoldi. Hasan sevinchidan telba bo'layozdi.

Otasi hali ham onasiga oshiq emish. Shuniig uchun qabrida tinch yotolmay, Esmani ko'rish uchun yer yuzini kezib yurganmish.

Esmaga bilan bir kun birga bo'lish uchun jon bermoqdamish. Balki bir kun kelib Esmani bo'g'ib o'ldirarmish. Balki bir kun qishloq aholisi Esmaning o'ligini yo Anavarza qoyaliklariga otilgan yoki irmoqda cho'kib, ko'karib yotgan holatda toparmishlar.

* * *

Qaldirg'ochlar, yong'inlar, o'lgan laylaklar, ilonlar quvlamoqda edi Hasanni. U ortiq uhlolmaydigan bo'lib qolgandi, kechalari o'rnidan turib, xo'roz ilk qichqiradigan maxalda Anavarza qoyaliklariga chiqib ketardi. Qoyalikning pasti o'n terak bo'yicha keladigan jarlik edi. Qoyalar tekislikdan, pastdan turib yuqoriga tikka yuksalib ketgandi. Anavarza qal'asining qoyalari keskin edi.

Qorong'u. Hasan pichoqning tig'ida yurayotganday, qirra qoyalar ustidan ketardi. Qadam bosayotgan yeridan ikki barmoq nariyog'i jarlik edi. Jarlikning tagi marmar yotqizilgan tekislik edi. Bu yerdan to marmarning ustiga tushguncha, eng kichik parchasi ham qolmay zarraga, unga aylanadi. Buni Hasan yaxshi biladi. Juda yaxshi biladi... Bilgani uchun dahshatli bir qo'rquvda, tik qoya ustidan yurib o'tardi. U yerdan o'tib olishi ancha vaqtga cho'ziladi. Pichoq og'zidek qoyalikdan o'tgunicha, qora terga tushadi. Ko'zini katta ochib pastga, qorayib turgan jarlikka qaraydi. Hartigul, yiqilmadi. Chuqur nafas olib, xo'rsinib qo'yadi-da, qishloqqa qaytadi. Bu har kuni takrorlanadi. "Qishloqda hech kim u bilan gaplashmasin, u la'natlangan", "БѢ" dedi Deli Haydar. Og'zida bir dona ham tishi yo'q, jag'lari ichiga kirib ketgandi. "Aqldan ozgan u. Har kecha, har tuni... Men uni o'z ko'zim bilan ko'rdim".

"Hech kim yuziga ham qaramasin", - dedi Ramzi Topsharan. O'zi, singlisini o'ldirib, burdalab tashlagan bir qaroqchi edi. "Yo jinni bo'ladi yoki...", - derdi u.

Qarib qolgan Maryam ismli xotin, bo'ri tishlarini chiqarib, chivinning uchishiga o'hshash chiyildoq ovozi bilan: "Men gaplashaman, u bilan. Ko'yinglar, yashayversin bechora. Otasi ham arvo' bo'lib yurgan bo'lsa bechoraning", - dedi.

"Qanday yaxshi bola", - dedi Fingirdek. "Ozgina kattaroq bo'lganida edi, o'zim uni bu qishloqdan olib qochardim".

"Ko'rdim", dedi Mustan. "Otasi uni har kuni qo'lidan ushlab Anavarza qoyaligiga olib chiqadi. Qorong'uda qo'lidan tutganicha jarlikning og'zida aylantirib yuradi. Bir kun kelib, otasi Hasanni shu qoyaliqudan pastga qarab itarib yuboradi", - dedi siyrak, tola-tola, uzun soqolini to'htamay qashib.

* * *

Hasan ertalab juda vaqtli uyg'ondi. Yuzini ko'p suv bilan ura-ura yuvib, kiyindi va qornini yaxshilab to'yg'azdi. Buvisining yoniga ketdi. Buvisi ancha vaqtdan beri u bilan gaplashmas, uni ko'rishi bilan narigi tarafga boshini o'girib u ketguncha shunday yotardi.

U ketganidan so'ng, ingrananicha bu tarafga o'girilardi. Hasan ko'p marotaba buvisini o'zining orqasidan qarg'aganlarini eshitgan.

"Bir nima deng, buvi. Gaplashing men bilan. Tushuntiring, otam qanday qilib arvo' bo'lib qoldi. Tushuntirib bering. Otamni bo'rilar, kushlar yeyaptimi, ayting menga..."

Halilni har kuni bo'rilar yer edi. Bo'rilar uni yeb tugatar, lekin Halil yana boshqatdan arvoq holiga kelar edi. Har kecha xuddi shu holat takrorlanar edi.

"Otamni ular qanday yeyishyapti, buvi?" Bari bir buvisi u bipan gaplashmasdi.

Amakilari, ularning bolalari, qishloqdagi bolalar b"hech kim u bilan gaplashmasdi. Onasi, onasi bo'laturib ham Hasanga gapirmas edi.

Quyosh qizdirib turardi. Irmoq eritilgan kumushday tovlanib oqardi. Hasan qishloqdan qochar, quyosh uni tobora qizdirayotgan edi. Irmoq bo'ylab, pastga Dumlu tomonga qarab chopdi. Dumlu qizil tuman ichida tebranib turardi. Yalang oyoq Hasan yerni, qumlarni bosarkan oyoqlari kuyardi. Hasan chanqab suvsizlikdan o'layozdi. Oqshom tushganidan so'nggina g'arbdan shamol esa boshladi.

Hasan yonidagi oqayoggan suvga egilib, bir qultum suv ichishni yoki yuzini yuvib olishni aqliga keltirmasdi.

U to'htamay yurar, terga botgan, changga belangandi. Oyoqlari yurishni xohlamay, uni orqaga tislantirardi. Oldinga yurishga ham, orqaga qaytishga ham juda qo'rquardi. Ikkala tomon ham Hasanga vahima solardi. Birdan orqasiga qaytdi. Orqaga qayttganini o'zi anglamadi. Qachon, nima uchun orqaga qayttganini ham bilmadi. Tuning qoq yarmida Anavarza qoyasining qoshida edi.

Qorong'uda qoyalar tobora kattalashib ketayotgandi. Qoyaning tepa tarafidan shovqin-suronlar, yaralangan katta bir hayvonning ingraganlari eshitilardi. Shamol o'tlarni, daraxtlarni, hatto qoyalarni ham sovurayotgandi. Butun kuchi bilan yugurib, nafasi tiqilganicha tepaga chiqdi. Tizzasi, qo'llari qonadi. Yuqoriga chiqqanida atrofda kekik deb ataluvchi o'tning achchiq hidi va kuyindi hidi keldi. O'zini jarlik tomonga urdi. Xuddi soch tolasining ustida yurayotganday yurar, quloqlari ostida garang qiluvchi shovqin shang'illardi. Ustaraning tig'idek o'tkir qoyada yurgani sari qo'rquardi, qo'rqqanidan mastlarday tebranardi. Jarlik haqida o'ylardi. Butun badani qorong'ulik bilan qorishib ketgan, titrab turardi. Birdan qarshisida uni ko'rdi. O'zini chap tarafga otdi. U ustiga bostirib keldi. Baqirolmadi. To'g'rirog'i baqirsa ham ovozi chiqmadi. Bo'g'ilib ketayotgandi, birdan bo'g'zinnng bo'shshib qolganini his qildi va asta-sekin nafas ola boshladi. Yana o'rnidan turib, tizzalari titraganicha jarlikning ustirayotganday og'ziga o'zini urdi. Hozir o'zini xuddi bir o'yinda ishtirok etayotganday his qilib milliy raqsga tushayotganday yurardi. Ichidagi qo'rquv ham sekin-sekin ortayotgandi.

Shu tariqa Hasan bu kecha ustirayotganday qoyada qora terga botgunicha yuraverdi. Shimolga qarab yurar, so'ng yana orqaga qaytardi. Kun chiqqungacha, oyoqlari chalishib ketgunga qadar borib kelaverdi.

Kun yorishib, jarlikni yaxshiroq ko'rishi bilan boshi aylana boshladi. Tevarakdagi dunyo, qoyalar, o'tlar, arilar, kapalaklar, qurigan gullar b"hammasi bir-biriga qorishib gir-gir aylanardi. Pastdagi katta daryo bir soydek bo'lib qolgan, tekislikdagi yo'llar ipday inginchkalashgan, odamlar qurt-qumursqalar misoli betartib aylanardi. Kichik bir qizil yuk mashinasi ham changga botganicha aylanardi. Atrofidagi hamma narsa gir-gir aylandi-da, Hasan ikki qoyaning orasiga yiqilib tushdi, nafasi tiqilganicha bir oz o'sha yerda shunday yotib qoldi.

Kun qizdirar, Hasan terlardi, qoyaliklar yonib turardi. Hasanning quloqlari shang'illab, ko'z oldi qorong'ulashib, kechami, kunduzmi farqiga bormasdi. Anglolmasdi ham. Qoyalikning ustidan shaffof, nurli, olamni yoritganicha qizil ilonlar o'tib ketayotgandi. Otasi Halil uzun oq kafanga o'ranib, qizil, shaffof ilonlarni o'ldirar, har ilonni urganida, ilondan nurlar otilib chiqar va osmonga sapchib, u yerdan yulduz bo'lib yerga to'kilardi. O'ldirilgan ilonlar yerga tushishi bilan yana qaytadan tirilar edi. Terisi qalin qurtlar, quyosh nurida aylanib-aylanib, qoyaliklarga urilib aks-sado berar va yerga tushib yo'llarga, yaylovlarga yopishib ketardi. Million-million shilliqurtlar oq tugmachalarday har bir o'tga, gulga, archaga, daraxtga, yaproqqa yopishib olgandi. Hasan o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin turolmadi. A'zoyi badani qaqshab, chidab bo'lmas bir og'riqqa kirgandi. O'rnidan turib, jarlikning ustirayotganday kabi qirrasida yurishni xohlardi. Turib yurmasa, yorilib o'ladiganday edi.

Pastdagi o'sha qizil yuk mashinasi jimjiloqday kichrayib ketgandi. O'sha yerdan bir yiqilsa, ming burda bo'lib... Qo'rquvdan dag'-dag' tirardi. Sudralib-sudralib jarlikning og'ziga keldi va o'rnidan turdi, pastlik esa chuqur, uzoq edi...

Yaylov to Gavurtog'innng tagiga qadar tep-tekis edi. Xamita qal'asi, Ilonqal'a va Toprak qal'a tuman ichida qolgandi. Yaylov tovlanib turardi. Tekislikning har yoni nurga to'lgandi. Faqat jarlikning tubi qorayib turar, Hasan esa u yerga qarolmasdi ham, Qorong'ulik. Hasan birdan jonlanib, sapchidi-da, oyog'ining yarmicha keladigan jarlikning uchida yura boshladi. Yurgani sari qo'rquv, qo'rquvdan aqldan ozar, yana o'ziga kelardi. Boshi, ayniqsa, kunduzlari ko'p aylanardi. Yurgan yo'li cheksizday tuyuldi, balki bir kunlik yo'l yurgandir?! Shunday tuyulardi unga... Bir bo'shshisa, yurolmay qolar, jarlikning boshida, pastlikka qarab bir oldingga, bir orqaga tebranardi. Ichidan ana yiqildim, mana yiqildim, degan tovushlar kelar va tebranardi. Bir oldinga, bir orqaga tebranardi. Atrof qorayib ketar, so'ng quyuk, ko'zni oluvchi bir yorug'lik bilan ochilardi. Hasan bir oldinga, bir orqaga borib, kelardi. Quloqlarni kar qilgulik shovqin borgan sari ortib, u tebrangan sari shovqin ham kuchayib borardi.

Oxiri Hasan o'zidan ketdi. Orqaga, tuproqning ustiga yiqildi, qoyalarning orasiga chalqanchasiga cho'zilib qoldi. Oldinga tebranganida, o'zidan ketganida edi, hozir pastda burda-burda bo'lib yotgan bo'lardi. Butun badani sochilib yotgan, jarlikka tushmasdanoq burgutlar uning parchalarini ming bo'lakka bo'lib, yeb tugatgan bo'lardilar...

Oq kafanli keldi. Oldida bir suruv qirmizi ilonlar... "Hasan", - derdi, - "Hasan sen o'g'lim emasman? Mening pushti kamarimdan bo'lman, Hasan? Otangni qutqarmaysanmi? Mana oldimda yuzlarcha qirmizi ilon, bular ilon emas, qoni yerda qolgan, xuni olinmagan odamlar. O'ldirilganlar, biroq o'chlari olinmagan. Arvoqga aylanib, qirmizi ilon tusiga kirib yuribdilardir. Do'zax moliklari meni bularga cho'pon qilib qo'ydi. Mening ham qonim yerda qolsa, shu ilonlar holiga tushaman. Otangning bu ahvoriga qanday chidaysan, Hasan? O'g'lim emasman, rahming kelmaydimi menga? Men qirmizi ilon bo'lib, qiyomatta qadar shunday sudralib yurishga loyiqmanmi Hasanim, bolam. Oh ilonni o'ldirsalar, o'ldirsalar edi ilonni... Oh, Hasan..."

Bir qarasa ayiq edi, devorlar, qoyalar, qaldirg'ochlar cho'g'lar ustiga to'kilardi. Hasan qochar, ilon, qaldirg'ochlar, burgutlar, qirmizilar uni quvardilar.

Qishloq yana gapira boshladi. Yetti yoshdan, yetmish yoshgacha hamma-hamma, gapirardi. Tillarida Esmam edi. Halil kelganmish. Butun qishloq tamom bo'lgan Halil bilan gaplashganmish. Avval onasining yoniga kelganmish. Onasi bilan juda ko'p gaplashganmish. So'ng chidolmay, qishloqqa kelib, daraxtning tagida o'tirganmish. Atrofdan apel'sin hidi kelarmish. Qishloq o'rtasida baqirganmish: "Qirmizi ilonlarga cho'pon bo'ldim, cho'pon..."

Keyinroq, shaffof qirmizi ilon bo'laman. Meni ilon qilib qo'yman, ilonni o'ldiringlar, o'ldiringlar ilonni..."

So'ngra pat etib, o'rtasidan yorilib, qishloq ustiga qirmizi ilonlar yog'ila boshlaganmish.

Buvisi biroz yumshab qolgan, yuzi sevinchli ko'rinar. Anchagacha Hasanning sochlarini silab o'tirdi. Hasan bundan juda ham hursand edi. Buvisi u bilan gaplashdi ham. Demak, endi xamqishoqlari ham gaplashishadi. Yaxshi, Hasan bu safar ham qutilib qoldi. Buvisining og'ziga kirguday bo'lib gaplarini eshitardi. Eshitganda ham, butun yuragi bilan mazza qilib tinglardi... "Halil

muhabbati tufayli ham arvoq bo'lib yurganmish, eshitdingmi, Hasan? Onangga savdoyilanib, oshiq bo'lgan. Rashk qilayotganmish onangni. Teng'i yo'q go'zalimning qo'yniga boshqa bir erkak kiradigan bo'lsa, men o'laman, deyotganmish. Tushundingmi Hasan, tushundingmi bolam, sening otangning, shunday pahlavon bir yigitning to'shagiga boshqa bir erkak kiradimi, bo'ladigan ishmi bu? Kel, kel, kel Hasan. Kel bolam, kel".

Hasanning boshini quchog'iga olib, ming'ir-ming'ir gapira boshladi:

"Sen bilmaysan bolam, hali yosh bolasan. Menga quloq sol bolam. Ulg'ayding, pahlavon yigit bo'lding, sen kabi bir yigitning onasi boshqa erkaklarni o'z yotog'iga olishi mumkinmi? Kel, kel, yaqinroq kel, hech kim eshitmasin. Onang har kecha bir erkakni yotog'iga olayotganmish. Buni butun qishloq ko'ribdi. Ko'rmagan, eshitmagan, bilmagan qolmabdi. Bu gapga nima deysan, Hasan... Otangning qoni yerda qoldi, onang esa dunyo go'zali, uni o'ldirishga hech kimning ko'zi qiymaydi, mayli o'ldirmasinlar. Lekin sen, sen nima degan odam bo'lding, bu dunyoda qanday bosh ko'tarib yurasan. Hamma sening onangni... O'lguninggacha seni fohishaning o'g'li demaydilar?! Nima deysan Hasan? Peshonangdagi bu qora dog'ni qiyomatgacha qanday ketkazasan? Men yaqinda o'lib ketaman. O'g'lim o'lib, qoni yerda qoldi, endi esa nabiramning ham yuzi qora bo'ldi".

Hasanning boshini o'zidan uzoqlashtirib, unga ko'z qirini tashladi. Hasannng yuzi o'liklarnikiday bo'lib qolgandi. Buvisi nishonga aniq tushganini sezib, sevinib ketdi. Odatda bolalar onalarini o'z otalaridan ham qizg'onadilar.

"Kechalari uhlamay uni poylab ovora bo'lma, onang juda ayyor. Agar bir xotin boshqa bir erkak bilan don olishishni xohlasa, etagining uchini o'z eriga tutqazib qo'yib ham maqsadiga yetisha oladi. Eri buni sezmaydi ham. Shuning uchun onangni poylama. Ana, ko'chaga chiq. Onangni boshqa erkak bilan yotganini ko'rmagan bormikan..."

Gapirdi, gapiraverdi. Onasining go'zalligini ming marotaba, qayta-qayta gapiraverdi.

Hasan buvisining yonidan chiqqanida tinmay gandaraklardi. Qalbini chidab bo'lmas bir qayg'u chulg'ab olgandi. Qishloq maydoniga bordi. Yonidan o'tgan-ketgan uni tutib olib gapirardi. Qishloq onasining fohishaligini bir, ikki oy to'htamay gapirdi. Miyasida har xil gaplar aylanardi, go'zal xotinning oyoqlari, yuzi-qoshlari, ko'zlari. Va yalang'och holatda quchoqlashishlari... Aqldan ozay desa ham, yana hamqishloqlarining onasi to'g'risida hech zerikmay, charchamay gapirgan gaplarini tinglardi.

Tinglamasa, o'lardi. Qishloqliklar qandaydir sehr bilan buvisiga bog'langan, u nima deb gapirsa, ular ham birga ming qo'shib so'zlashardi. Qishloq ham, Hasan ham buvisining qo'rqinchli bosimi ostida edilar. Onasi o'lishi kerak. Onasi...

"Bu qiyin, bu juda qiyin, uka".

"Shu ham B" onasining fohishaligi ham ta'sir qilmasa Hasanga, unda qon yo'q demak".

"Tomirida qoni bor odam, otasining qotili onasi bo'lsa ham, yashatarmidi uni?"

"Qoni qurigan, qurib qolgan qoni".

"Erkaklar uylariga kelib, onasini boshdan-oyoq yechintirib, ishga kirisharmishlarda, Hasan uni tomosha qilib, kayflanarmish".

"Hasan ko'zlarini ochib, qarab turarmish".

"Bir safarida onasi uyalib, ket bu yerdan, odam ham onasini shu holatda tomosha qiladimi, deganmish. Hasan yig'lab, men tomosha qilaman, deganmish".

"Hasan onasiga to'htamay, ko'zlarini yummasdan ham qarab turarmish".

"Erkaklarning u bilan o'ynashishlaridan zavq olarmish".

"Onasiga, men seni o'ldiraman, deganmish".

"Nega endi?"

"Agar bir erkakni to'shaginga olganingda, men bo'lmasam, seni ko'rmasam, mendan yashirincha bu ishni qilsang..."

"Onasi nima debdi, onasi?"

"Nima derdi, bechora. Men bir tul xotinman, erkaklarga muhtojligim bor, debdi. O'g'ilning, onasini tomosha qilishi uyatdir. Nima qilayki, erkaklarga muhtojman, erimni bo'lsa, o'ldirganlar".

"Erkaksiz yasholmayman, deganmish"

"Yasholmaydi, u".

"U misoli Dalap Arab biyasi kabi..."B ;

"Bir kechada butun qishloqning erkagini qo'ldan o'tkazadi".

"Boshqa erkak yo'qmi? Ey, Muhammad ummati, menga yana erkak kerak, deydi".

"Hasan nima qilsin, hali mushtday bir bola bo'lsa..."

"Bo'yni uzilsin Hasanning, bo'yni".

"Odam ham onasini boshqa erkaklarning qo'yniga solib, onasining ishlarini, u yer-bu yerini tomosha qiladimi?"

"Jinni bu sulola. Bularning boshdan-oyog'i jinni".

"Bechora Hasan".

"Qayerdan bilsin, bola bechora, onasi erkaklarni to'shagiga olishini, qayerdan bilsin"

"Poylab yotibdi, bechora".

"Bir kun poylabdi, ikki kun poylabdi".

"Poylaydi-da, poylamasinmi? Hasanday bola, onasining fohishgaligiga chidaydi, deb o'ylaysanmi?"

"Odam har narsaga chidaydi-ku, lekin, onasining fohishaligiga chidolmaydi, o'ladi".

"Hasan erkak emasmi, bir ko'rsin onasi bilan boshka birisini".

"Onasining qo'ynida".

"Mo'ljalga aniq oladi Hasan... Onasini ham, uning ustidagi odamni ham o'ldiradi".

"O'h, o'h, o'h! Onasi buni bilmaydimi? Bilib turib, ishini Hasanning ko'z o'ngida qiladimi?"

"Hasan onasiga bir narsa qiladimi... Axir u Hasanning onasi... Ana qilaversin... Onasi dunyo go'zali. Bunday go'zal xotin o'zini ko'z-ko'z qilmay nima qilsin?"

"Uch kun poylabdi, bola".

"Uning uhlamayotganini onasi bilmaydimi?"

"Uch kundan so'ng, Hasan uhlashi bilan, bir erkakni qo'yniga olibdi, ertalabgacha".

"Uch kun uhlamabdida Hasan... Bechora..."

"Halil ham ilon tusiga kiribdi, qirmizi ilonga aylanibdi. Shishadek ichi ko'rinadigan, bir uchi bu yerda, narigi uchi u yerda bo'lgan ilon".

"Bechora kelib, ularning ro'parasida o'ralib, Esmani tomosha qilib turarmish. Esmo bo'lsa haligiday odamlar bilan... Arvoq,

arvohning qo'lidan nima ham kelardi? Ilonmish, ammo ichi havodek ko'rinish turuvchi, qirmizi bir ilonmish. Havodan yasalgan ilon o'ch ololmaydi".

"Hasan, ajoyib bola. Siz Hasanning miyasini bunday zaharlamang".

"Hasan onasining bunday ishlariga chidolmaydi".

"Hali yosh bola".

"Qanaqasiga bu yosh bola, eshak-ku bu..."

"Esmani ko'z qiyadimi?"

"Olloh bunday go'zal bir Esmani boshqa yaratmaydi..."

"Bu qishloq, bu ming yoshdagi kattakon jodugar o'ldiradi bechorani".

"Go'zalga dushman - Ollohga dushman".

"Qaniydi Olloh uni yaratmasa. Uni yaratib insonlarning boshiga balo qilgan".

"Nega, nega balo qilarkan. Bechoraning og'zi bo'lsa ham tili yo'q".

"Og'zi boru tili yo'q bo'lsa, qishloqning o'rtasida likillab kezib yurgan kimdir?"

"Har kuni, qar kuni..."

"Ko'rgan erkakni, es-hushidan ayirgan..."

"Essiz, Esma!"

"O'z qishlog'iga ketsa edi".

"Ketmaydi".

"Ketolmaydi".

"Nega ketsin, nega ketsinki, u kabi go'zallar yuzlab bor ekan, qishlog'ida".

"Bu yerda esa bir dona".

"Ey, Ollohning boshqa ishi yo'qmi, yuzta Esma yaratadimi ne hasratda. Esma go'zallikda, bu dunyoda yagonadir".

"Bir dona, bittagina, yagona".

"Essiz!"

"Bir dona bo'lsa ham, Hasan uni yashatmaydi, o'ldiradi".

"Essiz!"

"O'ldiradi".

"Hasan, kofir, inson ham onasini, o'z onasini o'ldiradimi?"

"O'ldiradi, bu sulola".

"Bu qonxo'r sulolaga odam o'ldir, desang bo'ldi. Nafaqat onasini, balki yetti sulolasini ham so'yib tashlaydi".

"Essiz!"

"Bechora Esma".

"O'ldiradilar bular".

"O'ldiradi, Hasan".

"Hali yosh bola, qamashmaydi ham".

"Uni qamasharmikan?"

* * *

Birdan bu gaplar to'htadi. Qishloqqa shunday bir sukunat cho'mdiki, churq etgan tovush yo'q. Qishloqliklar hech gapirmasdilarmi yoki Hasanga shunday tuyulyaptimi. Har kuni buvisinikiga borar, buvisi ham og'iz ochib bir narsa demasdi. O'likda tovush bo'lishi mumkin, lekin qishloqda, buvisida hech qanday tovush yo'q edi. Yoki otasini, onasini gapirmaganlari uchun Hasanga shunday tuyulayotgandir. Hech kim, hech bir zog' og'iz ochmasdi.

Hasan ertalabdan kechgacha qishloq ichida u yerdan bu yerga borib kelar, uchragan odamga umid bilan, yolvorgandek qarardi. Hech kim churq etmasdi. Otasini, onasini ham unutilib yuborganday edilar. Daraxtlarga, suvlarga, til-zabonli ne bo'lsa, barisidan omonlik tilardi.

Qaldirg'ochlar ham yo'q edi endi, uyalari bo'm-bo'sh, vijir-vijir kilishmaydi. Burgutlar esa yuksaklarda uchadilar, tovushlari ham yo'q, pirillamaydilar ham.

Qirmizi ilonlar, qumursqalar, uzun kafanli odamlar, sariq itlar, har kecha kabristonda huradigan kuchuklar... Hamma, hamma narsa yo'q bo'lib ketgan. Hech narsa yo'q...

Hasan bu bo'shlikni to'ldirishga umid bilan harakat qilardi. Qishloqdagi eng kichik novdani ham quchoqlardi. Hamma narsa, hamma o'lgan, jimjitlikda edi.

Hasan so'nggi bir umid bilan quyoshning qizg'in nuri ostida jarlikka qarab ketdi. Ustara kabi o'tkir qoyada, jarlikning yonginasida, oyog'i bir toyib ketsa, pastda, burda-burda...

Parcha-parcha, deya o'ylardi Hasan, lekin men parchalanib ketsamchi, degan fikr hech xayoliga kelmasdi. Qo'rqmas, yuragida ozgina hayiqish ham yo'q edi. Pastlik yastanib turar, yuk mashinalari o'yinchoqday, insonlar chumoliday, irmoqlar ipday ko'rinaradi. Na boshi aylanar, na yiqilishdan qo'rqardi. O'zini shu yerdan pastga qarab otishdan ham qo'rqmaydi hatto.

Qo'rqishga harakat qilib, pastlikka tikilganicha chuqur jarlikdan ko'zini olmasdi. Qancha tikilmasin, hech bir foyda yo'q. Jarlikning ustarakdek o'tkir cho'qqisida yurib, chopib, aylanib kelsa hamki, baribir yo'q, yo'q, yo'q...

Qishloqqa qarab ketdi. Uyiga bordi, onasi uni kutib oldi. Endi sochidan tirnog'igacha yengil titrab, tuklari tikka bo'ldi.

Qo'l-oyog'i qaltiray boshladi. Uyda o'tirolmay ko'chaga chiqib ketdi. Qishloq maydoniga borgunicha bo'm-bo'sh bo'lib qoldi.

Onasini ko'rishi bilan telbalarday qaltirar, o'zini bilmay, titrab-qo'rqar, u yerdan ketishi bilan bo'm-bo'sh bo'lib qolardi...

* * *

Onasi hovlidagi tandirga o't qalardi. Tandirdan bir quchoq olov yuqoriga o'rlardi. Hasan titroq ichida qo'lidagi to'pponchani o'ynardi. Qo'lidagi to'pponcha otasiniki edi. Olov loyillab-loyillab, so'ng birdan pasaydi. Onasi tandirga egilib-egilib turardi. Hasan qaltirar, titrardi. Eti junjukardi. Boshi aylanardi. Onasi ko'zining oldidagi olov ichida edi. Birdan qo'lidagi to'pponcha otildi. Bir qichqiriq eshitildi.

Yana, yana o'q uzildi. Atrofni kuygan go'sht, kuygan soch hidi tutib ketdi. Hasan birdan bo'shasdi. U qo'lida to'pponchasi bilan

This is not registered version of TotalDocConverter

tanishib olishda o'z qaynagani. Onasining o'g'ini ukaferga kirib qolgan, sochlari yonardi. Anavarza tomon yo'l oldi. Uch kundan so'ng uni o'sha qoya sandig'ining ichidan kuchugi topdi. Tosh qopqoqni ustiga yaxshilab yopgan edi. It o'z sohibini qanday qilib bo'lsa ham topadi, hididan topadi, hididan. Bir necha oy avval Hasan meni qidirib topdi. Turish-turmushi joyida ekan. Uchta kombayni, beshta traktori, yana bilmadim, qanchadir qarich dalasi bor ekan. Kattakon bir uy qurdiribdiki, uymisan-uy. O'ttiz qarichlik apel'sin bog'ining ichida ekan. Uylangan, juda go'zal xotini bor ekan. Bolalari esa oltita bo'libdi: uchi o'g'il, uchi qiz.

To'rtga odam o'ldirib, kecha-kunduz namoz o'qiydigan turmadagi og'ani esladik. Insonlikdan chiqqan Lutfini esladik... Chukurova insonlari borgan sari zolim, yomon, mehr-muhabbatsiz bo'lib ketishganmish. Do'st deb atash mumkin bo'lgan, do'st qolmabdi. Hammasi bir-birining ko'zini o'yar, sariq chaqa uchun otasini o'ldirishdan ham toymasmish. O'zi elu xalqqa unchaligam qo'shilavermasmish. Bahorda apel'sin gullari shunday bo'y taratarkanki, ifori kishini mast qilar emish..